

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Usmon SANAQULOV

O'ZBEK XALQI VA TILINING ETNOGENEZI
HAMDA ETNIK QATLAMLARI
(O'ZBEKISTON TARIXI BO'YICHA MAQOLALAR TO'PLAMI)

I

SAMARQAND - 2011

**Sanaqulov U.O`zbek xalqi va tilining etnojgenezi hamda etnik qatlamlari.** O`zbekiston tarixi bo`yicha maqolalar to`plami, Samarqand, SamDCHTI nashri, 2011. 120-bet

Mazkur to`plam SamDChTI Ilmiy va uslubiy kengashlarida ko`rib chiqilib, nashrga tavsiya etildi. Ushbu kitob ikki qismdan iborat bo`lib, mazkur qismda ilk ajdodlarimiz va ular bilan bog`liq ravishda Markaziy Osiyo, ayniqsa, ko`hna Turonzaminda yuzaga kelgan qabila-elatlar va ularning ilk davlatlari, tillari, umuman etnogenezi va etnik (asosan, milodan avvalgi davrlardagi) qatlamlari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

To`plamga Usmon Sanaqulov tomonidan institut talabalariga o`qigan ma`ruzalari va ilmiy seminar hamda anjumanlardagi chiqishlari va aksariyat «Zarafshon» gazetasida chop etilgan maqolalari asosida tayyorlanib, **muallif tavalludining 70 yilligi va ilmiy pedagogik faoliyatining 52 yilligi munosabati bilan** institut talabalari va O`zbekiston tarixi hamda o`zbek tili tarixi bilan qiziquvchi yosh mutaxassislar uchun mo`ljallab nashr etildi. Unda tarixshunoslik darg`alaridan S.P.Tolstov, A.Yu.Yakubovskiy, M.Ye.Masson, I.M.Dyakonov, V.A.Shishkin, A.N.Bernshtam, N.A. Bichurin, G.A.Pugachenkova, V.A.Livishis, B.A.Litvinskiy, L.N. Gumilev, S.Ye.Malov, A.K.Kononov, Q.G.Klyashtorniy, xususan, B.Ahmedov, A.Asqarov, Q.Shoniyozov, Azamat Ziyoyev, I.Jabborov, H.Ziyoyev, O`I.Islomov, M.M.Isoqov, G`Abdurahmonov, E.Fozilov, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, A.Sagdullayev, X.Doniyorov, I.Karimov, Sh.Karimov, R.Shamsutdinov, F.Boynazarov kabi taniqli olimlarning tadqiqotlarida o`tmishimiz haqida aytilgan fikrlariga va tarixiy yozma manbalar ma`lumotlariga tayanilgan holda ba`zi mulohazalar bayon etilgan. Mapkur materiallar institut talabalari va O`zbekiston tarixi bilan qiziquvchi yosh mutaxassislar uchun tavsiya etiladi.

Mas`ul muharrir:

Farmon TOShev

Muharrir:

Nuriddin BEGALIEV

Taqrizchilar:

Sh. AHADOV – tarix fanlari doktori, professor

M.HAMDAMOVA – Tarix fanlari nomzodi, dosent

AJODLARIMIZ HAMDA ULARNING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI HAQIDA (KIRISH SO'Z O'RNIDA)

Ma'lumki, sobiq ittifoq tarkibidagi respublikalarda milliy xalqlar va tillarning o'zligini saqlash, tarixini o'rganish, yanada taraqqiy ettirish masalasi cheklab qo'yilgan edi. Mustaqillik sharofati bilan milliyligimizni, o'zligimizni yoritishga keng imkoniyat yaratildi. Endilikda yuz bergan bu sog'lom yo'nalish natijasida milliy tariximiz va tilimizga munosabat tubdan o'zgardi. Xalqimizning o'z yurti, millatining tili va adabiyoti, madaniyati, umuman, milliy qadriyatlarimiz tarixini o'rganishga keng sharoit vujudga keldi. Kundan-kun xalqimizning o'z o'tmishini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi tobora kuchaymoqda. Xususan, hozirgi yosh avlod o'z ajdodlari kimlar bo'lganligini, ular tarixining ilk boshlanish davri hamda tilining qachon va qanday tarzda shakllanganligini bilishga, chuqur anglashga sidqidildan intilmoqda. Shu bois, ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida e'zozlanib kelingan milliy qadriyatlarimizning mazmun va mohiyatini, tub ildizlarini talqin etib, har tomonlama keng yoritish lozim bo'lmoqda. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov "Avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqyeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur...O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi"¹, degan fikrlari davr talabi asosida aytilgandir. Shu bois, o'zbek xalqi va tilining tarixini jiddiy tarzda qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos targ'ib etish zarur.

Vatanimiz, millatimiz va tilimizning o'tmishi chuqur ildizga ega. Ammo bu tarixning boshlanish ildizi Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi bilan umumiy bo'lgan. Zero, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi shu zaminda shakllangan va bu o'tmish tarixi hozirgi barcha xalqlarga ham tegishlidir. Jumladan, qadimda ularning nomlari ham umumiy (skif, sak, massaget, xorsimiy, sug'd, tur va hokazo) nomlar bilan atalib kelingan. Shuning uchun hozirgi turkiy xalqlarning aksariyatining nomi qadimgi davrdagiga mos kelmaydi. Shu bois, o'tmish tariximiz haqida fikr bildirilganda uning umumiy idizlarini inkor etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bizning ildizimiz Markazi Osiyodagi, xususan Movaraunnahr xalqlari bilan mushtarakdir, Umuman, tarixiy ildizimiz umumiturkiydir. Shuning uchun "qadimgi tarixiy ildizlarimiz turkiy xalqlar bilan bir ekanini, tilimiz, dinimiz, urf-odatimiz mushtarak bo'lganini e'tirof etamiz"². Zero, o'tmishda ham turkiy

¹ . Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T. :“O'zbekiston tarixi” jurnali, 1-son, 1999

² . Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz.-T.“Adolat”gazetasi, 5 fevral, 1999.

ajdodlarning bir-biri bilan enografik, antropologik, irqiy va boshqa tomonlari, xususan til jihatdan ancha umumiylikka egaligi bo'lgan.

Lekin shuni ham qayd etish lozimki, bundan barcha turkiy xalqlarning (turk, o'zbek, qozoq, uyg'ur, turkman, qirg'iz, ozarboyjon, qoraqalpoq va boshqalarning) etnik jihati bitta degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Chunki hozirgi turkiy xalqlarning miloddan oldin ham, miloddan keyingi davrlarida ham o'zlariga xos ma'lum darajada etnogenezi va etnik ajdodlari (ibtidoiy to'da, urug'chilik va qabilachilik davrlariga xos etnik belgilari) mavjud bo'lgan. Ammo ularning ilk ildizlarining taraqqiyot yo'li, o'tmish tarixi yuqorida qayd etilgan mushtaraklik tomonini inkor etib bo'lmaydi. Shuningdek, bu fikrni fors-tojik xalqi bilan qadimiy qardoshlik aloqalar bo'yicha ham qayd etishimiz mumkin. Harholda Markaziy Osiyo xalqlarining qardoshlik va mushtaraklikka xos bo'lgan ilk tarixiy ildizi miloddan oldingi davrlar bilan bog'lanadi. Chunonchi, ko'hna tarix sahifalarida o'zlarining ko'pqirrali va sermazmun faoliyatlari bilan chuqur iz qoldirgan o'tmish ajdodlarimizning xotiralari bu fikrni to'liq isbotlaydi. Bu xotiralar yozma manbalarda tarixga aylangan.

Qadimgi yozma manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra miloddan avval ham, milodiy davrlarda ham Markaziy Osiyoda, xususan Movarounnahr, Xorazm, Oltoy, Tohariston, Sug'diyona, Orol bo'yi kabi qator hududlarda skif, sak/shak, massaget, xorazmiy, sug'd, xun, turk, o'g'uz kabi juda ko'p qadimgi urug' va qabilalar yashashganki, ular ham turkiy, ham forsiyzabon xalqlarining ajdodlari bo'lishgan¹. Ularning keyingi davr shajaralari ham turli nomlar bilan atalib kelingan.

Hozirgi paytda etnogenetik va etnik tarixni tahlil etishda ajdodlarimiz to'g'risida mavjud bo'lgan va bizgacha yetib kelgan muhim madaniy meros-qimmatli, juda noyob tarixiy manbalar ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar tufayli yuzaga chiqdi. Ayni davrda ana shu ajdodlarimizning o'tmish merosi asosda etnogenetik va etnik tariximizni yoritishda S.P.Tolstov, A.Yu.Yakubovskiy, M.Ye.Masson, I.M. Dyakonov, V.A.Shishkin, A.N.Bernshtam, N.A. Bichurin, G.A. Pugachenkova, V.A.Livishis, B.A.Litvinskiy, L.N. Gumilev, S.Ye.Malov, A.K.Kononov, Q.G.Klyashtorniy, ayniqsa, respublikamizda A.Asqarov, B.Ahmedov, Q.Shoniyozov, A.Ziyo, I.Jabborov, H.Ziyoyev, O'.I.Islomov, M.M.Isoqov, G'.Abdurahmonov, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, A.Sagdullayev, X.Doniyorov, I.Karimov, Sh.Karimov, R.Shamsutdinov, F.Boynazarov kabi zamonamizning o'nlab taniqli olimlari tomonidan tarixshunoslik, tarixiy tilshunoslik arxeologiya, etnografiya, jamiyatshunoslik kabi qator sohalarida tadqiqotlar yaratildi. Lekin hali ham bu sohalar asosida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini nazariy-ilmiy jihatdan talqin etishda turlicha qarashlar, yakunlanmay qolgan xulosalar bor, umuman, yakunlangan

¹ . Freyman A.A. Xorezmskiy yazik. 1.-M.-L. 1951.

bir umumiy xulosa mavjud emas. Bu holat ba'zi bir tarixnavis olimlarning ishlarida to'g'ri ta'kidlangan¹.

Taniqli tarixshunos A.Asqarov aytganidek, biror xalqning kelib chiqishi, uning etnik qatlamlari tarkibini aniqlamay turib, u xalq haqida, uning yuzaga kelgan va yashagan o'rni haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish qiyin. Har bir xalqning kelib chiqish tarixini o'rganishda uning ikki jihatiga e'tibor berish lozim. Birinchisi, uning etnogenez jhati bo'lib, bu elat, xalqning shakllanganiga qadar bo'lgan tarixiy jarayondir. Bu jarayon davomida etnosga (xalqqa) xos belgilar birin-ketin shakllana boradi. Hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy xo'jalik birliklari, etnomadaniy, til birligi, etnik-nom, o'zlikni anglash birligi va siyosiy uyushma (davlatchilik) kabilar etnosga xos belgilar va omillar sanalib, ularning barchasi etnogenez yakunida to'liq sodir bo'ladi, mujassamlanadi va etnos(xalq)ning shakllanishi o'z nihoyasiga yetadi. Shakllangan etnosning bundan keyingi tarixi fanda etnik(xalq) tarix nomi bilan yuritiladi².

Demak, aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, har bir etnosning yoki xalqning shakllanish jarayonini o'rganishga kirishar ekanmiz, avval o'sha etnos-xalqning etnogenezining qachondan boshlanganini aniqlash lozim bo'ladi. Shuning uchun ham akademik A.Asqarov biror bir xalqning tarixini o'rganishda uning etnogenetik va etnik taraqqiyoti davrlarini ilmiy asosda tadqiq etish lozim deb biladi. Chunonchi, bu o'rinda u etnogenetik jarayonni o'rganish masalasiga kompleks yondashish, ya'ni etnogenezga aloqador fan yutuqlaridan foydalanish muammo yechimiga obyektiv ilmiylik bag'ishlaydi, degan mulohazalari bilan M.V.Kryukov, M.V. Safronov, N.N.Cheboksarovlarning fikrlariga qo'shiladi³ va birinchi galda etnogenez muammolarini hal etish uchun foydali hisoblanadigan, ya'ni bir-biriga bog'liq sohalardagi manbalarni tavsiya qiladi. Bular antropologiya, arxeologiya, etnografiya, yozma manbalar, tilshunoslik, epigrafika, paleoantropologiya kabi qator sohalarga oid manbalardir. Bu boradagi fikrlar muhim xarakterga ega. Zero, haqiqatdan ham qayd etilgan sohalardagi ma'lumotlar o'zaro bog'liq holda bir-birini to'ldiradi va ulardan chiqarilgan umumlashgan xulosa asosida etnogenetik jarayon hamda etnik belgilar va etnik omillarning tarkib topishi oydinlashadi.

Antropologiya malumotlarida ma'lum hududiy birlikda shakllangan etnos (xalq)ning va aynan shu hudud doirasida yashagan qadimgi aholi bilan

¹. Qarang: Jahon adabiyoti, 1-son, 1999.; Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi.-T. 2007. 61-b.; O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari. -T. "O'zbekiston tprixi", jurnali, 2002. 4-son, 54-60-bb.; Jabborov I.O'zbek xalqi etnografiyasi.-T. O'qituvchi, 1994.77-bet va boshqalar.

². Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 4-5-bb. : shu muallif-O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi nazariy va ilmiy metodologik asoslari, 54-b.

³. Kryukov M.V.,Safronov M,V., Cheboksarov N.N. Drevniye kitaysi.Problemi etnogeneza. -M. 1978.-S. 11.

uzviy bog'liq bo'lgan har xil etnik guruhlar qorishuvidan u yoki bu etnos tipining tarkib topish jarayoni ham aks etgan bo'ladi. Etnogenez va etnik tarixni davrlashtirib o'rganishda ham antropologiya ma'lumotlarga murojaat etishga to'g'ri keladi. Chunonchi, bunda etnosni etnogenez bosqichidan to uning hozirga qadar davom etgan antropologik tipidagi izchil bog'lanishni tadqiq etish taqozo etiladi¹.

Arxeologik topilmalar ham ushbu jarayonda muhim o'rin egallaydi. Arxeologik topilmalar orasida suyaklar va bosh chanoqlari, umuman, odam skeletining qoldiqlari kabilarni antropologik jihatdan sinchiklab tekshirish orqali insonning avvalgi tashqi ko'rinishi, qiyofasini tiklash va shu orqali ming yillar davomida etnogenez va etnik jarayon davrlardagi o'zgarishlar aniqlanadi. Shuning uchun antropologik ma'lumotlari xulosasi uchun arxeologik topilmalar daliliy ashyo sanaladi. Masalan, 1958-1980 yillarda A.K.Okladnikov va U.Islomovlar tomonidan Farg'ona vodiysining Sux tumanidagi Selung'ur g'oridan topgan ajdodlarimizning manzilgohlari va qabridan qo'lga kiritilgan arxeologik topilmalar shular jumlasidandir. Bunda topilgan odam skeletida aniqlangan antropologik malumotiga ko'ra, Sharqiy Afrikadagi Zinj vodiysidan (Olduvay darasidan) topilgan va taxminan miloddan avvalgi 3-2 ming yil oldin yashagan Zinjanthrop yoki Olduvay odamidan keyinroq yashagan ajdodlarimizniki deb qaraldi va fanda Fergantrop odami deb nomlandi. Fergantrop odami va boshqa topilmalar Ashel davrining ilk bosqichiga xos bo'lib, uning yoshi taxminan I million yilga teng deb qaraldi.

Demak, arxeologik ma'lumotlar etnogenez jarayonida etnos hayotining qanday kechganini, **ibtidoiy to'da** davridan milodiy davrlargacha etnos va uning turmushida yuz bergan o'zgarishlar, yashash sharoiti, manzillari, umuman, madaniyatida yangi elementlarning paydo bo'lishi va etnik jarayonlarini o'rganishda antropologik va epigrafik, yozma manbalar bilan bog'lanadi, shuningdek, paleoantropologiya materiallari bilan ham to'ldirilib boriladi. Jumladan, paleoantropologiya malumotlari esa obyektni arxeologik tadqiqotlar asosida aniqlangan xronologiyasiz ilmiy ahamiyat kasb etmaydi². Xullas, bu sohalar bir-biri bilan uzviy bog'lanib, etnosga xos qadimgi sivilizasiya o'choqlarini belgilash, uning shakllanishi va madaniy hayotidagi taraqqiyotni aniqlashga yordam beradi.

Etnografiya ham(ayniqsa, tarixiy etnografiya ma'lumotlari etnosga xos moddiy va ma'naviy madaniyat an'analarning izchilligini aniqlash imkoniyatini beradi) arxeologiyadan farqli o'laroq, jonli materiallar misolida,

¹ . Qarang: Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari, 58-b.

² . Qarang: Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari, 57-b..

etnosning o'zlikni anglash darajasini kuzatadi¹. Tarixiy etnografiya mavjud yoki yo'qolib ketgan etnoslar (elat va xalqlar), uzoq o'tmishdagi etnogenez jarayonlari, maishiy turmush va ma'naviy madaniyat qoldiqlari hamda xususiyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, o'rta osiyolik etnoslarning miloddan oldingi ilk ajdodlari-skif, sak(shak), massaget, sug'd, baqtar, xorazmiy, apasiak, augasi (o'g'uz) kabilar haqidagi tarixiy etnografiya ma'lumotlar o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda ham muhim o'rin egallaydi. Chunonchi, tub aholi orasida apasiak, augasi (o'g'uz), pachanak (pecheneg) kabi qadimiy turk tilli qabilalar va turk nomi bilan atalgan o'troq holda yashovchi aholi ham bo'lgan. Lekin bu masalalar etnografiya tomondan hali yetarli o'rganilgan emas. Vaholanki, etnogenez va etnik tarixni yoritishda etnografiya ma'lumotlari alohida o'rin egallaydi.

Tarixning nisbatan so'nggi davrlarida, asosan I ming yillikning o'rtalarida O'rta Osiyoga ketma-ket ko'chib kelgan xun, xionit, eftalit kabi ko'plab turkiy elatlarning tub (mahalliy) qabilalari va turkiy sak-massagetlar(turkiy tilli qatlami nazarda tutiladi-U.S.) zaminida o'ziga xos jimjimador madaniy belgilarni yuzaga keltirdi. Ta'kidlash joizki, yuqorida nomlari keltirilgan miloddan avvalgi markaziy osiyolik qadimiy tub aholi, jumladan, turkiy tilli elatlarni yunonlar skif-saklar, eronliklar saklar-massagetlar, deb ataganlar. Ularning **G'arbiy Yevropa bilan bog'liq** tomonlari ham bo'lganligi, ayrim madaniy belgilari Bolgariya, Ruminiya mamlakatlarida yashovchi qadimiy **ketlarga o'xshashligi** haqida ham fikrlar bor. Shu kabi ba'zi etnograf-tarixnavislarning fikrlaricha, saklarning qavmu qarindoshlari Bolqonda va Shimoliy Qora dengizning bepoyon dashtlarida yashagan qadimiy praskiflar shajarasi bilan ham bog'lanadi².

Ma'lumki, jahonda o'zini boshqa millatlar bilan aralashmagan, sofmiz deb da'vo qiladigan biror bir xalq yo'q. Chunonchi, yuqorida qayd etilganidek, har bir etnos etnogenezi jarayonida, uzoq tarixiy davrlar davomida turli elatlar bilan yaqin aloqada bo'lgan, ba'zan tub aholi tarzida bir hududda yashagan. Ba'zan o'zga hududlarga ko'chib, u yerdagi boshqa etnoslar bilan aralashib, ularga xos xususiyatlarni o'zlashtirgan hatto, tili va antropologik tipini ham o'ziga singdirgan. Masalan, A.Karimulinning "Amerika hindlari va qadimgi turkiylar" nomli tadqiqotida ham turkiy til ildizlarini kuzatish mumkin³. Ko'chish natijasida qadimgi qabilalarning ba'zilar o'zlarining milliy xususiyatlarini saqlab kelgan bo'lishsa, ayrimlari o'sha yerli xalqning (bir komponenti sifatida uning) tarkibiga singib ketishgan. Bunday holatni Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi o'tmishida qadimdan sodir bo'lganligini arxeologiya, etnografiya,

¹. Qarang: Asqarov A. Ko'rsatilgan maqola, 58-b.

². Jabborov I.O'zbek xalqi etnografiyasi, 13-14- bb.

³. Abdullayev O.Haqiqat ko'zgusi. -T. Jahon adabiyoti, 1-son, 1999. 31-b.

antropologiya kabi sohalaridagi va qadimiy yozma yodgorliklar bo'yicha qilingan ilmiy tadqiqotlarda aks etishini kuzatish mumkin.

Chunonchi, Qashqadaryoning o'rta oqimlarida hozirgacha major (mojor) nomi bilan ataluvchi etnik guruh yashaydi. Ma'lumki, majorlar Vengriya davlatining asosiy xalqidir. Majorlarning ilk ajdodlari bir zamonlar Sirdaryoning quyi oqimidagi cho'llarda va O'rol tog'oldi mintaqalarida yashashgan. Milodiy IX asrda mojorlarning katta qismi xazarlarning siquviga bardosh bera olmay g'arbga siljib, hozirgi Vengriya hududiga kelib o'rinishganlar va keyinchalik slaviyanlashib millat bo'lib shakllanganlar. O'z ona vatanida qolib ketganlari esa xazarlar va o'zbeklar tarkibiga qo'shilib singib ketishgan. Lekin ularning ajdodlari sanalgan sheva vakillari qadimgi majar etnik nomlarini (mojor etnonimini) hozirgacha saqlab kelmoqdalar¹. Ba'zi manbalarda turkiy qavmlarning shumerlar bilan etnik tomondan aloqasi bo'lganligi haqida fikrlar bor.² Bu masalalar haqida keyinroq maxsus fikr bildiramiz.

Umuman, tarixiy manbalar asosida olimlar turkiy tilli urug' va qabilalar ham miloddan avvalgi davrlarda skif, sak, massaget qabilalari tarkibiga bo'lganligini qayd etishgan, jumladan, deravid, xususan, shumer va qadimgi xitoy, keyinchalik sug'd, eron, arab va boshqa elatlar bilan yaqin aloqada bo'lganligi ham ta'kidlangan. Natijada qadimiy aloqa ta'sirida bu tillarda o'zaro chatishuv (gibridizasiya) hodisasi yuzaga kelgan. Demak, turkiy, jumladan, o'zbek xalqi va tilining ilk ildizlari taraqqiyotida ancha qadimgi davrlardan ikki xil ta'sir borligini, ya'ni turkiy-qarindoshlik (metizasiya) va qardosh bo'lmagan turli etnik chatishuvlar (gibridizasiya) mavjud bo'lgan. Shunga ko'ra olimlarimiz o'zbek halqining shakllanishida asos bo'lgan tomir yoki ildizni (komponentni) belgilashda turlicha fikrlar bildirishgan.

K.Shoniyozovning yozishicha, o'zbek halqining shakllanishida ikki tomir asos bo'lgan. Birinchisi tub aholi (azaldan bir yerda-Movarounnahrda turg'un yashagan turkiy urug'lar-U.S.), ikkinchisi yarim ko'chmanchi qadimiy turkiy ildizlardir. Bizningcha, yuqorida ta'kidlangan metizasiya va gibridizasiya holatiga chuqurroq yondashsak, o'zbek xalqining shakllanishida uch tomir asos bo'lgan, deyish mumkin. **Birinchi tomir** qadimdan turg'un holda yashagan-tubjoy (qorluq-chigil-uyg'ur guruhiga xos) turkiylar, **ikkinchi tomir** yarim qo'chmanchi (o'g'uz-qipchoq) turkiy qabilalardir. Xususan, bu ikki ildizning birikishi (o'zaro sintezi) metizasiya shaklida kechib, o'zbek xalqining asosiy tarkibi (komponenti) yuzaga kelgan. Shuningdek, qadimgi sug'diy, eroniy kabi qardosh bo'lmagan qabilalar

¹ . Shoniyozov K.Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.-T. 2001. 79-80-bb.; Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 74-b.

² . D'yakonov I.M. Yaziki drevney Peredney Azii. -M.Nauka, 1969.-84 s. Qarang: Asqarov A. Ko'rsatilgan asar, 247-b.

chatishuvi (gibridizasiya) asosida yuzaga kelgan tarkibi (komponenti) esa o'zbek xalqining **uchinchi tomiri** hisoblanadi.

To'g'ri, bu uchinchi komponent ham birinchi tomirdek ancha qadimdan shakllanib kelgan. Ular miloddan avvalgi davrlarda skif-sak, massaget, xorasmiy, baqtar, sug'd va eroniy, tilli qabilalar bilan chatishib ketgan ikki til sohiblari sifatida shakllangan eng qadimiy turkiylar hisoblanadi. Ana shu qadimiylikka qarab, akademik A.Asqarovning ushbu komponent (ikki tillilik tomir) haqida quyidagicha xulosaga keladi: "Movarounnahr va qadimgi Xorazm hududlari azaliy vatani bo'lgan *o'zbek xalqining ilk ajdodlari ikki til-turkiy va (o'q tomir sug'diy)eroniy tillar turkumidagi qabila va elatlar bo'lgan*. Ular uzoq asrlar davomida bir hududda aralashib, qo'ni-qo'shni va quda-anda bo'lib yashaganlar, ularning qorishuvi jarayonida o'zbek xalqi shakllangan. *O'zbek xalqi ikki xil tilda so'zlashuvchi ajdodlardan, ya'ni ikki til sohiblari bo'lgan etnik birliklardan tarkib topgan*¹. Bu etnik birliklarning taraqqiyot yoki shakllanish jarayoni 7 asosga ko'ra talqin etilgan. Bunday fikrlarni olim o'zining o'quv qo'llanmasida bir necha o'rinlarda turli shaklda, xususan Qang' davlati bilan bog'li ravishda qayd etgan. Ushbu fikr bir tomondan to'g'ri, chunki o'zbek xalqining ushbu tarkibi ham etogenetik jarayonining so'nggi davrlarida (mil.avv III va milodiy V asrlar) birlashish va qorishuvi tamoyiliga ko'ra yuzaga kelgan tomirilaridan **biri** sanaladi(A.A.). *Lekin bu komponent o'zbek xalqining shakllanishidagi o'q (asosiy) tomir sanalmaydi*. Olimning fikrlaridan esa go'yo o'zbek xalqining ilk ajdodi va uning shakllanishida o'q tomir (asosiy komponent) ikki tilli qabilalar bo'lgan, degan xulosa chiqadi. To'g'risi, shunday xulosa chiqarilgan ham. Masalan, "Demak, *o'zbeklar ikki xil tilda so'zlashuvchi (sharqiy eroniy va turkiy) qabila va elatlarning qorishuvidan tarkib topgan etnosdir*" (qarang:-239-b.).

Har holda, ikki tilli qatlam qanchalik qadimiy bo'lmasin, u o'zbek xalqi va tilining shakllanishida asos komponent sanalmaydi. Zero, O'zbekiton aholisi orasida o'tmishda (keyingi davrda ham) bu qatlam aralash yashagan hududlardagina sezilarli bo'lgan. Turkiy qabilalar orasida umumtil jihatdan qaralganda bu qatlam ozchilikni tashkil etadi. Shuning uchun o'zbek xalqi va tilining shakllanishida asosiy tomir bir tilda, ya'ni turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar birinchi (asosiy) o'rinni egallaydi. Chunonchi, o'zbek xalqining shakllanishida qarluq-chigil-uyg'ur guruhidagi (az, us/o'z qabi juda ko'p turkiy urug'lar) hamda o'g'uz-qipchoq guruhi va ular tarkibidagi urug'lar ham salmoqli o'rin egallashi o'zbek tilshunosligida, jumladan, turkologiyada, umuman fanda allaqachon tan olingandir. Bu kabi fikrlar A.Asqarov tomonidan ham qayd etilgan. Ammo olimning asarlarida yuqorida aytganimizdek ba'zi mulohazali fikrlar uchraydi.

¹ . Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 57-58, 62, 74-75-66.

Chunonchi, olimning quyidagi fikrlarida aniqlik yetishmaydi. “Qadimgi yozma manbalar tahliliga ko’ra, neolit(yangi tosh) va bronza davrlarida O’zbekiston hududining **tubjoy aholisi eroniy tillar oilasining sharqiy lahjalarida so’zlashuvchi sug’diylar, xorazmiylar, boqtariylar, sak qabilalari** bo’lganligi fanda e’tirof etilgan.(?) Mustaqil O’zbekiston aholisining tili-o’zbek tili esa **turkiy tillar oilasiga kiradi.(?)**”¹. Bu fikrga aniqlik yetishmaydi, zero o’zbek tilli aholi tubjoy emas, boshqa yerdan kelganmi? degan savol tug’iladi. Shunindek, kitobining 247 sahifasida quyidagi fikrlarni o’qiymiz: “Demak, o’zbek xalqi etnik komponentining asosiy o’zagi hisoblangan turk etnosi uning ikkinchi asosiy komponenti sug’d, boqtar, xorazmiylar kabi bu zaminda qadimiydir”. Ushbu fikrda **turkiy etnos** o’zbek xalqining **asosiy o’zagi** sifatida ta’kidlangan (ammo Sug’diyananing to Amudaryogacha bo’lgan xududlariga nisbatan ko’zda tutilgan) hamda sug’d, baqtar, xorazmiy qatlamlarni ikkinchi komponent sifatida qaralgan....²

Olimning bunday xulosalariga qo’shilish qiyin. Ushbu o’rinda shunday mulohazalar tug’iladi: “Mustaqil O’zbekiston aholisining tili turkiy til oilasiga kiradi (A.A.)”. To’g’ri, Bu fikr fanda ham tan olingan. Shunday ekan, nega o’zbek tilining shakllanishiga asosiy tomir sof turkiy til birinchi qatlam sanalmay, ikki tillilik qatlam o’q (asosiy) tomir deb qaralgan.

Birinchidan, qadimdan O’zbekiston hududining tubjoy aholisining asosiy qismi turkiy tilli va shuning uchun uning mavqeyi hamisha sezilarli bo’lgan. Ikkinchidan, saklar, xorazmiylarning asosiy qismi va baqtariylar tarkibida ham turkiy tilli qabilalar katta o’rin egallaganligi, hatto turkiy tilning kuchli ta’sirida sug’diylarning turkiylashgan qismi ham bo’lganligi olimning tadqiqotlarida qayd etiladi, ammo “neolit(yangi tosh) va bronza davrlarida ular O’zbekiston hududining tubjoy aholisi **eroniy tillar** oilasining sharqiy **lahjalarida so’zlashuvchi** deb qaralgan. Zero, sak va xorazmiylar tili masalasida, hatto sug’diy til bo’yicha ham fanda hozirgacha har xil fikrlar mavjud. Shuning uchun bu elatlarni qadimiy ajdodini faqat eroniy tilli deb bo’lmaydi. Balki ularning tili mustaqil o’ziga xoslikka ega bo’lganligi, eroniy tildan ham, turkiy tildan ham farqlanganligi fanda e’tirof etilgan. So’nggi davrlarda ularning bir qismi **tamoman forsiylashgan** bo’lsa, bir qismi esa **tamoman turkiylashganligi** ham qayd etilgan....

Irqiylar masalada ham har xil mulohazalar mavjud. Xususan, o’tgan asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrlargacha olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, o’zbek va tojiklarning o’tmish ajdodi tarkibida yevropoid irqning o’ziga xos pomir-farg’ona pushti ham bo’lgan. Bunga dalil sifatida eng qadimgi mustye davriga oid bolaning suyak qoldiqlari

¹ . Asqarov A. O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 239-b.

² . Qarang: Asqarov A. Ko’rsatilgan asar, 247-b

Boysundagi Teshiktosh g'orida topilishidir¹. Bunday irqqa o'xshash tiplar O'rta Yer dengizi, Old va Janubiy Osiyoning ayrim rayonlarida ham topilgan edi. Bu shundan dalolat beradiki, O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston arxeologik va paleoantropologik tadqiqotlar ma'lumotiga ko'ra, insoniyat tarixiy taraqqiyotining eng ilk davrlaridan boshlab ajdodlarimiz Old Osiyo bilan ham tarixiy-madaniy va etnogenetik jihatdan bog'liq bo'lgan. Chunonchi, paleolit davridan boshlab old osiyoliklar O'rta Osiyoga ko'cha boshlagan. Bunga Machay g'oridan topilgan (miloddan avvalgi VII-VI ming yilliklar davriga xos) odam suyagining qoldiqlari va juda ko'p moddiy buyumlar dalil bo'ladi.² Bu kabi dalillarga o'xshash ashyolar Toshkent, Turkiston, Janubiy Qozog'iston va boshqa yerlardan ham topilgan. Paleoantropologik tadqiqotlar mazkur hududlar aholisi orasida yevropoid irqqa mansub elatlar ham yashashganini tasdiqlaydi.

T.Q.Xo'jayevning yozishicha, O'zbekistonga shimoliy-g'arbiy tomondan Yevropaning (yuqori paleolit, mezolit va neolit kabi) miloddan avvalgi davri aholisi vakillari kela boshlagan, janubdan esa, janubiy yevropoid tiplar kelib, qadimgi vatanimiz aholisining ma'lum qismini tashkil etgan. Taxminan, o'sha davrlardan o'zbek xalqi asosining shakllanishida o'ziga xos yevropoid irq ham bir komponent bo'lib qo'shilgan³. Shuning uchun ham qadimgi turklardan sanalgan xun-eftalitlarni vizantiyalik tarixchi Prokopiy (VI asr) oq tanli qabilalar qatoriga kiritgan⁴.

Miloddan avvalgi 1 ming yillikda O'zbekiston aholi orasida irqiy jihatdan ancha o'zgarishlar ro'y beradi. Antropologik jihatdan mongoloid elementlar ta'sirida yevropoid irqda o'zgarishlar keltirib chiqardi. Natijada ajdodlarimiz tomirida yevropoid irqlari bilan birga mongoloid pushtlar ham singa borgan.

Xullas, Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ham elatlar shakllanishida murakkab etnoantropologik jihatdan jiddiy aralash-quralash jarayon qadimdan boshlangan⁵. Bu aralashish yoki chatishuv (gibridizasiya) mavjud tubjoy aholining faqat ikki tilli aholi bilan yoki bir-ikki "qabilaning qo'ni-qo'shni va quda-anda bo'lib yashaganlari (A.Asqarov.)" bilan emas, balki turli mintaqaga xos qo'plab turkiy qabila-urug'larning qo'shilib, birikishi (o'zaro sintezi) metizasiya holatda singib ketishi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, tarix fani kabi etnografiya, asosan, xalq og'zaki va yozma manbalarda, o'tmish yodgorliklarida hamda aholi orasida qadim davrlardan beri saqlanib kelingan etnomadaniy ma'lumotlar, urug'-aymoqchilik yoki qavm-qarindoshlik shajaralari va urf-odatlar kabi turli an'anaviy aqidalarga,

¹ . Jabborov I.O'zbek xalqi etnografiyasi, 54-55-bb.

² . Jabborov I. Ko'rsatilgan asar, 55-b

³ . Jabborov I. Ko'rsatilgan asar, 58-b..

⁴ . Azamat ZiyO'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: "Sharq".2001.73-b.

⁵ . Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi, 59-b.

shuningdek, shu xususiyatlarni ifodalaydigan arxeologik topilmalarga ham tayanib ilmiy xulosalar chiqaradi. Xususan, ajdodlarimizning etnogenezi va etnik shakllanishi, taraqqiyoti haqida folklor, ya'ni xalq og'zaki ijodiyoti materiallarida, qadimgi yozma yodgorliklar(tarixiy va badiiy, tilshunoslikka oid manbalar)da ham muhim ma'lumotlar beriladi.Chunonchi, ilk ajdodlarimizning etnogenezi haqida ma'lumotlar miloddan avvalgi davrlardan to hozirgacha og'zaki holda ham yetib kelgan.

Xalq og'zaki ijodiyoti materiallarida buni kuzatish mumkin. Kuzatilgan tadqiqotlarda mamlakatimiz hududida miloddan avalgi 1-ming yilliklarda bo'lib o'tgan tarixiy voqyealar va ma'naviy qadriyatlarimiz xalq og'zaki ijodiyoti materiallarida aks etganligi ma'lum bo'ldi. Ularda qisman ajdodlarimizga xos etnogenez va etnik ma'lumotlar berilgan. Garchi ular mifologik, afsona va ertaklar tarzida tasvirlansa-da, ularda ma'lum darajada sodir bo'lgan tarixiylik ham uchraydi. Masalan, antik davrlarda yaratilgan yozma adabiyotda, jumladan, hozirgi davrimizda ham xalq og'zaki ijodiyoti asosida vujudga kelgan tarixiy folklorda aks etgan ko'pgina voqyealar va ularda ishtirok etgan shaxslar o'tmishda mavjud bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Chunonchi, "Alpomish" asaridagi voqyealar, qadimgi Katta Xorazm davlati va uning hukmdori Saksafar, Siyovush va uning sulolasi, Sak podsholigi va uning hukmdori Amorg va malika Spayetra, Shiroq va uning qahramonlik sarguzashti, Massagetlar va uning hukmdori To'maris, Alp Er To'nga (Afrosiyob) va uning podsholigi kabi tarixiy shaxslar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan voqyelar asosida xalq tilida asrlar davomida og'zaki tarzda afsona, hikoyalar mavjud bo'lgan.

O'tmish haqidagi og'zaki hikoyalarning aksariyati tarixda bo'lgan dalillar asosida yaratilgan. Lekin tarixiy dalillar asrlar osha asta-sekin badiiy-tasviriy bo'rttirishlar natijasida badiiy-afsonaviy hikoyalarga aylangan. Shunga qaramay, ularda tarixiylik ildizi, haqiqat ham saqlangan. Zero, ular tarixiy yozma manbalar bilan qiyoslab o'rganilsa, bu tasdiqlanadi yoki tarixiy hikoyalarda aks etgan voqyealarni birma-bir tahlil qilganda ham buning guvohi bo'lish qiyin emas. Misol uchun "Alpomish" dostoni tasvirlari miloddan avvalgi davrlarda chorvachilik sohasining vujudga kelishi bilan bog'liq voqyealar va ilk chorvador qabila-elatlarimizni eslatadi.

Katta Xorazm, sak va massagetlar va ularning rahnamolari (miloddan avvalgi VII-IV asrlarda yashagan ajdodlarimiz) qadimgi davr manbalarida tarixiy haqiqat sifatida qayd etilgan. Bunday xalq og'zaki ijodi materiallari yozma adabiyotga singib ketgan. Ularni tarixiy yozma manbalar bilan qiyoslab o'rganish xalqimizning etnogenezi va etnik jihatlarini yoritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul bilan qilinadigan tadqiqotlar ham hali me'yoriga yetgan emas.

Yozma manbalar antik davrda ham yaratilgan bo'lsa-da, ular bizgacha juda oz yetib kelgan. Lekin bori ham maxsus va chuqur o'rganilgan emas.

Chunonchi, bu davrlar haqidagi ma'lumotlar ba'zi bir bitiklarda qayd etilgan. Miloddan avvalgi ibtidoiy davrdagi etnomadaniy hayot haqida Surxondaryo vohasidagi qoyalarda o'yib chizilgan surat-bitiklar, olimlarning xulosalariga ko'ra, O'rta tosh bosqichining so'nggi asrlariga yoki ilk neolit davriga xos bo'lib, o'sha qadimiy davr ajdodlarimizning turmush tarzi aks ettirilgan. Shu kabi arxeologik topilmalar orasidagi ko'pgina bitik namunalari, miloddan avvalgi davr yozma yodgorliklardan Eron, Bobil, Ossuriya hukmronlari davrida bitilgan tosh-qoyalar, qabr-toshlaridagi ma'lumotlar, ayniqsa, Zardushtning "Avesto" asari O'rta Osiyo hududi elatlarining eng qadimiy tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda taniqli tarixnavis-arxeolog olimlar tomonidan turkiy ajdodlarimizning eng qadimgi davri haqida Xitoy manbalarida ham ajoyib ma'lumotlar mavjudligini aniqladilar. Chunonchi L.N. Gumilevning yozishicha, qadimgi Xitoy yozma manbalarining miloddan avvalgi 1764 va 822, 304 yillarga xos davrlar ma'lumotlarida turkiy tilli xalqlar ajdodlaridan xunlar nomi tilga olingan.¹ Xitoyshunos A.Xo'jayev aniqlagan ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi Kichik Shi yozma manbalarida miloddan avvalgi III ming yillik oxiridagi Xitoy podsholiklarining shimoli va shimoli-sharqiy chegaralarida chorvador turkiy qabilalar yashaganlar. Olim o'zining izlanishlarida ko'pgina manbalar asosida ba'zi atamalar haqida fikr yuritib, "tele, chile (chele), turo" kabi atamalar turkiy qabilalarning nomlari ekanligini ta'kidlaydi.²

Xullas, yuqorida qayd etilgan fikrlar va manbalar asosida turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini ilmiy asosda o'rganish, talqin etish mumkin.

¹. Gumilev L.N. Xunnu. –M. : 1960.-S .23; Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 200-b.

². Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 203-b

ENG QADIMGI YOZMA MANBALARDA AJDODLARIMIZ HAQIDAGI ILK MA'LUMOTLAR

Ma'lumki, tarix xalqimizning shajarasi, naslu nasabimizning muqaddas ildizidir. Bu buyuk shajarani haqqoniy va xolisona o'rganmay turib, milliy o'zlikni anglab bo'lmaydi. Milliy taraqqiyot haqida so'z borar ekan, o'zbek davlatchiligi tarixini eng qadimgi (antik) davrlardan boshlab o'rganish, o'zbek xalqining etnik tarkibi va shakllanishi hamda nomlanishi jarayonini mukammal tarixiy jihatdan yoritish olimlarimiz oldidagi hozirgi asosiy vazifalardan biri sanaladi¹. Ushbu muhim masalani yoritishda, aniqrog'i, o'zbeklar tarixini belgilashda unga dunyoviy jarayonlar bilan bir butunlikda qarash lozim bo'ladi, boshqacha qilib aytganda, ham mahalliy, ham xorijiy yozma manbalar ma'lumotlariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, xususan, qadimgi grek-yunon, hind, xitoy, arab, fors, umumturkiy va boshqa xalqlarning tarixiy yozma manbalari alohida o'rin egallaydi. Zero, jamiyatning qadimiy tarixi umumiylik xarakterga ega, shu bois ularda ajdodlarimiz ildizlari haqida ham muhim ma'lumotlar uchraydi.

Tarixiy manbalar guvoh berishicha, Markaziy Osiyo xalqlari avlodlarining o'tmishi, dastlabki ildizi miloddan avvalgi urug' va qabilalarga borib bog'lanadi. *Bu davrda urug' va qabilalar etnik jihatdan har xil bo'lsa-da, ular aralash holda, bir birlashmada yashashgan. Shu bois eng qadimgi (mil. avvalgi) davrlardagi urug' va qabilalar faqat turkiy yoki eronzabon xalqlarning avlodlarigagina xos bo'lmay, balki ular o'tmish davrlarda Markaziy Osiyoda yashagan ba'zi bir yevropa xalqlarining ham ajdodlari hisoblanadilar.* Xuddi ana shu xususda ba'zi olimlar noto'g'ri qarashlari bilan bu masalani o'rganishda ziddiyatlar keltirib chiqarishmoqda. Olimlarning asosiy guruhi qadimgi Turkiston o'lkasida (hozirgi O'zbekiston hududida ham) turkiy elatlar, jumladan, o'zbek xalqi azal-azaldan tub aholi sifatida yashab kelganini ta'kidlashsa-da, ba'zan bu fikrga qarshi chiqib, mazkur hududda yashagan qadimgi elatlar eroniy qabilalar bo'lgan, boshqa xalqlar, xususan, turkiylar "kelgindi xalq", ular milodiy davrning boshlarida, aniqrog'i, VI asrda O'rta Osiyoga kirib kelganlar", degan fikrni isbotlashga urinadiganlar ham uchraydi.

Jumladan, tarixnavis Bobojon G'afurovning tojik xalqi tarixiga doir qator ishlarida shu kabi fikrlar aytilgan edi. Ularda qadimgi Turkiston o'lkasining tarixi boshdan-oyoq faqat bitta xalqning mulki

¹ . Komilov N. Milliy o'zlikni anglash. –T.: "Jahon adabiyoti" jurnali, 1-son, 1999.17-b.

tarzida talqin qilingan, ya'ni hamma masalalar bir millatning taraqqiyot bosqichlari nuqtai-nazaridan yoritilgan. Oqibatda Turkiston o'lkasida, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida ro'y bergan tarixiy jarayonlarda boshqa xalqlar, xususan, o'zbek xalqi ham ishtirok etmagandek, ularga dahli yo'qdek taassurot yuzaga kelgan. Olimning barcha izlanishlarda yuqorida qayd etilgan fikrlar, hukm va xulosalar yetakchilik qilgan¹.

Bu kabi dalil va isbotsiz aytilgan fikrlar X.G. Ko'ro'g'lining "O'rta Osiyo, Eron va Ozarboyjon xalqlari eposining o'zaro aloqalari" nomli tadqiqotida ham keng o'rin olgan (Moskva, 1983 yil). Unda O'rta Osiyo va Kavkazdagi turkiy elatlar "kelgindilar" sifatida faqat milodiy IV asrdagina paydo bo'lgan, degan fikr o'rin olgan.

Qayd etilgan asossiz fikrlarga ba'zi olimlarimiz o'z ishlarida e'tiroz bildirishgan edi. Ayniqsa, Ortiqboy Abdullayev, Shukur Xolmirzayevlar (Turkiston hududida har doim asosiy o'rin egallab kelgan yetakchi xalqlarning tarixini soxtalashtirib yoki kamsitib, inkor qilingan yuqoridagidek qarashlarga o'zbek olimlarining o'z vaqtida jiddiy e'tibor berishmaganligi va tanqidiy yondashib, o'z fikr - mulohazalarini bildirishmaganligidan afsuslanib) respublikamiz jurnallarida chop ettirgan maqolalarida ishonchli dalillar orqali B.G'afurov va X.G.Ko'ro'g'lining "mohiyat-e'tibori bilan xato bo'lgan fikrlar" ini haqli ravishda tanqid qilgan edilar....².

XX asrning 80 yillaridan boshlab O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixini o'rganish sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarda g'arazli siyosiy o'yin boshlandi. Bunda keyingi yillarda "paneronizm" g'oyasi tarafdorlari milliy avtohtonizm masalasini g'ayri ilmiy nuqtai nazarda talqin etib, mintaqada milliy adovat keltirib chiqaruvchi qator asarlar chop ettirdilar va anjumanlarda chiqishlar qildilar. Masalan, AQSh Indiana universitetining professori Yu.Bregel, Tojikiston FAsi akademiklari, tarixnavis olimlardan R. Masov, A.Ya. Vishnevskiy, N.Ne'matov, Yu.Yakubov, S.Polyakov, B.A.Litvinskiy, S.N. Petrovalarning ishlarida paneronizm nazariyasi keng o'rin oldi.³ So'nggi davrlarda bularning tadqiqotlari va anjumanlardagi chiqishlarida aytilgan g'ayri ilmiy fikrlar akademik A. Asqarov, K.Shoniyozovlarning asarlarida o'rinli fosh etildi va hozirgi dunyo ilm-fanida mavjud ilmiy-nazariy qarashlar asosida milliy avtohtonizm masalasini tarix fanida

¹ . Abdullayev O. Haqiqat ko'zgusi. -T.: "Jahon adabiyoti" jurnali, 1-son, 1999, 28-29-bb.

² . Abdullaev O., Xolmirzaev Sh. Bilib yozgan yaxshi..., -T.: "Sharq yulduzi" jurnali, 2-son, 1977.; Meros va zamon, -T.: "Guliston" jurnali, 1981. 2-son (Qarang: Abdullayev O.Haqiqat ko'zgusi, 28-32-bb.).

³ . Asqarov A.O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 87-b.

xolisona yoritish masalasi bo'yicha to'g'ri yo'nalish belgilandi. Chunonchi, ularning asarlarida O'rta Osiyo xalqlarining hayot yo'li, yashash tarzi va o'rni bir xilda kechganligi, ibtidoiy davrdan hozirgacha o'tmish tarixi bir, umumiy xarakterga egaligi, ularning etnogenezi, etnik taraqqiyotini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo'lmasligini ilmiy jihatdan, ishonarli dalillar asosida yoritib berildi. Bu masala ko'pgina xorijiy olimlar asarlarida ham xolisona yoritilgan.

A.Yakubovskiy o'zining "O'zbek xalqining etnogenezi masalasiga doir" nomli risolasida yozishicha, turkiy xalqlarning bir qismi qadim davrlardan O'rta Osiyoning markaziy qismlarida miloddan avvalgi III-II asrlarda sug'dlar bilan aralash yashab kelganlar, ular bir-birlari bilan qiz berib, qiz olib qarindoshlashib ketishgan, muomalada bir-birlarini tushunishgan, tashqi va ichki nizolarni hamjihatlikda hal etganlar. Hatto, sug'dlar o'zlari yashagan hududlarida zulmkor, adolatsiz bo'lgan hukmdorlarga qarshi turklar bilan birgalashib kurashganlar. Olim bu haqda kuyidagicha yozgan: "agar VI asrdan ilgari Buxoro va Samarqand hududlarida sug'dlar qatorida o'troq turkiy xalqlar yashamaganda edi, avvalo, ular (sug'dlar) turkiy tilni tushunmaganlarida, turk shahzodasi Aboni hududlariga kirishga qo'ymagan va unga ergashib, o'z mahalliy hokimlarini haydab chiqarmagan bo'lar edilar"¹.

Demak, o'tmish ajdodlarimiz sug'dlar, tojiklar bilan ancha qadimdan bir-birlarining tillarini bilishgan va inoq yashashgan, ularning ilk tarixlari ham birga kechishgan. Antik davrdagi ajdodlarimiz haqida fikr yuritganimizda ham xuddi shunday xulosaga kelish lozimdir. Aks holda qo'pol xatolikka yo'l qo'yishimiz mumkin. Zero, masalaga bunday yondashuv, boshqa xalqlarni kamsitishga yo'l qo'ymaydi.

Xolisona fikr bildirilganda, *Markaziy Osiyoda yashagan o'tmish qabila-elatlar yuqorida qayd etganimizdek, faqat birgina xalqqa tegishli bo'lmay, balki hozirgi afg'on, turkman, o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, uyg'ur va boshqa xalqlarga ham tegishlidir. Bu xalqlar miloddan avval ham, hozir ham aralash yashab kelganlar va ularning antropologik tuzilishi ham, urf-odati ham, an'anaviy marosimlari ham, umuman, yashash tarzi bir xil, hatto, bir-birlarining tillarini tushunadilar, qardoshlashib (qiz berib qiz olib chatishib) ketganlar. Shuning uchun ularning kadimgi tarixi ham umumiy xarakterga ega. Uni (xususan, tojik va o'zbek tarixini va o'tmish avlodlarini) ajratib qarash juda katta*

¹. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari, 54-66-bb.(Yakubovskiy A.Yu. K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda.-T. Izd.ANUz. 1941.-S.186 .)

xatolikka olib keladi. To'g'ri, bu tarixda har bir xalq o'zining qadimiy o'tmishi aks etishini etiborga olishi va uni o'rganishi mumkin. Lekin bu qadimiy tarix ildizlarini tamoman bir xalqqa qarashli deb bo'lib o'rganish va xulosalash noto'g'ridir. "Tarix-era, bir millat yoki bir qancha millat orasidagi mashhur vaqtdir" deb tarixga baho bergan ekan Aburayhon Beruniy o'zining "Qonuni Ma'sudiy" asarida. Bu "mashhur vaqt" uzluksiz davom etganidek, o'tmish tariximizni ham davomiy va yaxlit holda (parchalamasdan) o'rganishimiz lozim¹.... Shuning uchun xalqimizning ilk tarixini o'rganish uchun o'tmishdagi tarixni umumiylik xususiyatga egaligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz shart.

Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, har bir etnosning yoki xalqning shakllanish jarayonini o'rganishga kirishar ekanmiz, avval o'sha etnos (xalq)ning etnogenez va etnik tarixlari qachondan boshlanganligini aniqlash lozim bo'ladi. Shuning uchun ham akademik A.Asqarov biror bir xalqning tarixini o'rganishda uning etnogenetik va etnik taraqqiyoti davrlarini ilmiy asosda tadqiq etish lozim deb biladi. Ta'kidlanganidek, etnogenez bu elat, xalqning shakllanguniga qadar bo'lgan tarixiy jarayondir. Bu jarayon davomida etnosga (xalqqa) xos belgilar birin-ketin shakllana boradi. Shundan so'ng ikkinchi bosqich, etnik (etnosga xos) tarix, ya'ni ma'lum bir xalq tarixi boshlanadi.

Biz etnogenez bosqichini tarixni o'rganishda **birinchi galda, Markaziy Osiyodagi eng qadimgi urug' va qabilalar**, ya'ni skif-sak-massaget, xorazmiy, sarmat, sug'd, xunn, o'g'uz va boshqalarning tarixi haqida fikr yuritishni lozim topdik. Zero, bu qabilalar va ularning tarixi hozirgi Markaziy Osiyodagi turkiy, eronzabon va boshqa mintaqalardagi xalqlarga ham tegishli etnogenez bo'lib, bu elat, xalqning shakllanguniga qadar davom etadigan tarixiy jarayondir. Ikkinchi galda ana shu etnogenez taraqqiyotning ma'lum bir davrida yuzaga kelgan turkiy, jumladan, o'zbek elatining shakllanishiga asos-ildiz sanalgan qadimgi urug' va qabilalar haqida mulohaza yuritishni o'rinli deb bildik. Har ikkala jarayon davomida etnosga (xalqqa) xos belgilar birin-ketin shakllana boradi. Bu sohada imkoniyat boricha **mahalliy yozma manbalar** asosida, ya'ni Markaziy Osiyo hududida va shu hududda faoliyat ko'rsatgan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yozma manblarga tayangan holda fikr-mulohazalar yuritish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, milodiy davrlar boshlaridan boshlab o'tmish ajdodlarimiz tarixi haqida juda ko'p yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. O'rxun-Enasoy va qadimgi uyg'ur (VI-X asrlar) bitiklari,

¹ .Muhammad Ali. Vorislik tuyg'usi.-T.: "Jahon adabiyoti" jurnali, 1999. 23-b.

Mahmud Koshg'ariyning (XI asr) "Devonu lug'otit turk" asari va turkiy (o'zbek) xalqlarning etnik shajaralariga doir bir qancha qo'lyozma manbalar ham mavjud. Shu kabi o'tmish davlatchiligimiz tarixida mashhur bo'lgan sulolalar tarixnavislarining asarlari yetib kelganki, ular so'nggi davrlarda olimlarimiz tomonidan tadqiq kelinmoqda. Bu manbalarning aksariyati taniqli tarixnavis olim Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixi" kitobida qayd etilgan¹. Jumladan, B.A. Ahmedov, K.Shoniyozov, A.Asqarov, I.Jabborov, X. Doniyorov, G'.Abdurahmonov kabi juda ko'p tarixshunos, etnogaf, tilshunos olimlarning asarlari ajdodlarimiz o'tmishiga oid tarixiy yozma manbalar tahlili asosida yaratilgan².

Ammo Markaziy Osiyoda yashagan eng qadimgi urug' va qabila larning antik davrlari haqida yaratilgan **mahalliy yozma manbalar** deyarli yetib kelmagan, yetib kelgani ham sanoqli darajadadir. Chunonchi, **mahalliy yozma manbalar sifatida** ta'kidlangandek, Misrning qadimgi tarixini o'rganishda "**Piramidalar matnlari**" va "**Marhumlar kitobi**", yahudiylar uchun "**Tavrot**", yeropaliklarda "Injil", hindlar uchun "**Rigveda**", Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixini o'rganishda esa "**Behistun**" ("**Bhyeston**") qoyatoshi, "**Naqshi Rustam**", "**Suza**" bitiklari va "**Persepol devoridagi rasmlar**", ayniqsa, "**Avesto**" asari kabi yozma manbalar muhim o'rin egallaydi. Bular orasida "Avesto" asarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayrim manbalarda "Avesto" miloddan avvalgi 589-512 yillarda yaratilgan³ shaklida ma'lumot berilgan. A.Asqarov esa Zardusht miloddan avvalgi II yillikning ikkinchi yarmida (1500-1200 yy.) yashagan, Xorazm yoki Sug'diyona kohini oilasida tug'ilgan, Spitam urug'idan, otasining ismi Paurushasp, onasiniki esa-Dug'dova" tarzidagi Meri Boys fikriga qo'shilgan. "Avesto"ning yaratilgan o'rni tarixiy geografik jihatdan qadimiy Marg'iyona, Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm, O'rta Osiyo yoki shimoliy-sharqiy Eron hududlari bo'lishi mumkin, degan mulohaza ham bildirilgan. "Avesto"dagi qadimgi geografik hududiy tushunchalar, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar, undagi jamiyatning ijtimoiy tarkibi, nomlar-etnik qabilalar va viloyatlar nomlari

¹ . Azamat ZiyO'zbek davlatchiligi tarixi, 11-21-bb.

² . Ahmedov B.A.O'zbek xalqi tarixi manbalari (qadimgi va o'rta asr).-T.: O'qituvchi, 1991.; Shaniyazov K.Sh. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda.-T.: Fan,1974.; Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. -T. O'qituvchi, 1994 (bu sohada ularning bir qancha asarlari mavjud); Doniyorov X.O'zbek xalqining shajara va shevalari.-T.: Fan, 1968.; Abdurahmonov G'.O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida.-T.:1999.

³ . Normatov K Haqoniylik tamoyili.-T. : "Jahon adabiyoti" jurnali, yanvar, 1999.27-b.

O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi va ilk davlatchilik tarixi uchun noyob manbadir, deb baholanadi¹.

“Bhyeston” bitiklarida miloddan avvalgi VI-V asrlarda, ahmoniylar davrida mavjud bo'lgan uch tilda, ya'ni qadimgi fors, elam (Elamtu/Xotamtu-tog'li mamlakat²) va babil tillarida Eron davlati ittifoqiga kirgan, yoki axmoniylar zabt etgan mamlakatlardan 23(24)tasining, jumladan, **Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya va sak, massaget qabilalarining** (podshohliklari) **nomi** ham sanab o'tilgan. Ushbu bitik shundan dalolat beradiki, bu qabilalar va ularning mavqeyi, hukmronligi o'sha davrlarda o'ziga xos kuchga ega bo'lgan, o'zining mustaqqil hayot tarzi, taraqqiyot yo'li bo'lgan. Lekin bu ma'lumotlar bilan antik ajdodlarimiz haqida mukammal fikr bildirish qiyin, albatta. Buning uchun xorijiy mamlakatlar tarixnavislarining asarlariga va ulardagi ma'lumotlarga xolisona yondashish lozim bo'ladi.

Xususan, Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi qabilalari hayoti va tarixini o'rganish va yoritishda grek-yunon tarixchisi Gerodotning (mil.avv.V asr) 9 kitobdan iborat “Tarix”, Ksenofont, Ktesiy (mil.avv. V-IV asrlar) yodnomalari, Strabonning (mil avv.I asr) “Geografiya”, qadimgi Rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufning (mil.I asr)“Buyuk Aleksandr tarixi”, yunon tarixchisi Arrianning (milodiy II asr) “Aleksandrning harbiy yurishlari” kabi asarlarida³ Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan qadimgi ajdodlarimiz to'g'risida, jumladan, yurtimiz tarixi haqida muhim ma'lumotlar mavjud.

Qadimgi tariximiz qayd etilgan manbalarda o'rganib kelinganligining boisi shundaki, Vatanimiz hududidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayot va tashqi aloqalar o'sha davrlarda ma'lum darajada mavjud bo'lgan. Zero, tariximiz dunyo sivilizasiyasining qadim davrlari bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham xorijiy tarixnavislarining ham e'tiborini o'ziga jalb etgan. Shuning uchun, avvalo kishilik jamiyatining eng qadimgi ko'hna tarixini bilishimiz lozim bo'ladi. Zero, Vatanimiz hududida shakllangan ko'hna taraqqiyot ham dunyo sivilizasiya sining ajralmas qismi hisoblanadi. Vatanimizning qadimgi sivilizasiya tarixini, ajdodlarimiz hayotini yoritishda xitoy manbalarining ham ahamiyati kattadir.Chunonchi, “Tarixiy guvohliklar” (mil. avv.I asr), “Ulug' Xan xonadoni tarixi”(I asr), “Kichik Xan

¹ . Asqarov A.O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 122-130-bb.

² . Asqarov A. Ko'rsatilgan asar, 130-b.

³.Azamat Ziyo.O'zbek davlatchiligi tarixi, 10-6; Asqarov A.O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 135-160- bb; Boynazarov F. O'rta Osiyoning antik davri.-T.: O'qituvchi, 1991, 3-471-bb.

xonadoni tarixi” (V asr), “Vey xonadoni tarixi”(VI asr), “Shimoliy podsholiklar (Beyshi) tarixi”(VII asr), “Suy xonadoni tarixi” kabi manbalar shular jumlasidandir.¹ Ushbu manbalarda ham Vatanimiz hududlaridagi ijtimoiy hayot, madaniy taraqqiyot haqida ba’zi ma’lumotlarning berilishi Markaziy Osiyo, jumladan, O’zbekiston hududi ham qadimgi sivilizasiya o’choqlaridan biri bo’lganligini tasdiqlaydi.

Xullas, ushbu manbalar ma’lumotlaridan ajdodlarimizning o’tmish tarixini yoritishda o’rni bilan foydalanish mumkin.

MARKAZIY OSIYODA YASHAGAN ENG QADIMGI URUG’ VA QABILALAR

Kuzatilgan tarixiy yozma manbalarning ko’pchiligida milodgacha skif, sak(shak), massaget, xorazmiy, dak, sug’d, o’g’uz, sarmat, xun (xunn), turk nomi bilan atalgan juda ko’p qabilalar Markaziy Osiyo hududlarida yashashganligi qayd etilgan. Bu qabilalar o’zlariga xos hukmron mavqeyega ega bo’lgan ittifoq (birlashma)lariga ega bo’lishgan. Ular hukmronlik qilgan birlashmalarga turli tilda (va bir til ichidagi har xil dialekt, shevalarda) gaplashuvchi katta-kichik urug’ va qavmlar bo’ysungan. Masalan, turkiy tilda gaplashuvchi qabilalar tarkibiga xunn, augas(o’g’uz), tirkash (tirkesh), qarluq, chigil, uyg’ur, qipchoq, telengut, qangli, us/o’z/az kabi juda ko’p urug’ va qavmlar birikkan. Bulardan ba’zilari, xususan, xunnlar (oq xunnlar, gunlar) ko’chib yurish natijasida (o’zlari zabt etgan) Osiyoning ko’pgina hududlarida, Kavkaz, va Yevropa yerlarida, Azov dengizi atroflarida (hatto, ugro-fin mintaqalarida ham) boshqa qavmlar bilan aralash yashab qolishgan². Grek-yunon tarixnavislari asarlarida Markaziy Osiyodagi qabila-urug’lar, jumladan, ular bilan bog’liq bo’lgan boshqa yerlardagi elatlar haqida juda ko’p tarixiy ma’lumotlar bor. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, qadimgi yunon tarixi o’ziga xos xusuiyatga ega. U tarixiy-badiiy tarzda yaratilgan. Bu tarixning ilk yaratili o’rni

¹ . Bichurin N.Ya. Sobraniye svideniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii drevniye vremena 1-3 t. M.-L.:1950-1953; Azamat Ziyoy. Ko’satilgan asar, 10-b; Asqarov A. Ko’satilgan asar,163-165 bb.

² Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi.-T.:Cho’lpon, 1995.-38-42-bb;Baskakov N.A. Altayskaya semya yazikov i yeye izucheniye. M.: Nauka, 1981.-135 s.,Tyurkskiye yaziki.-M.:VYa.1956.-530 s.; Gumilev A.M. Tisyachiletiye vokrug Kaspiya.-Baku.: Azerb. gos. izd. 1991.-307 s.; Klyashtorniy S.G. Rossiya i tyurkskiye narodi.// «Kazaxstanskaya pravda», 1997.№64 64-65.;O’zbekiston xalqlari tarixi.-T.:1-qism,1992.-187-b., 2-qism,1993.-255-b.va boshqalar.

Ioniyaning Milet shahrida shakllangan. Shuning uchun ham “tarix” atamasi milet tilidagi “historiya” (tadqiqot, izlanish) so’zidan olingan.

Miletidagi tarix maktabida yaratilgan yozma manbalar orasida miloddan avvalgi VI asrning taniqli vakllaridan biri Gekatiyning “Yer qurrasi tavsifi” asarida ilk bor xorasmiylar haqida ma’lumot bergan. Bu ma’lumot Gerodotning ijodida qayd etilgan. U Gekatiy asaridagi ma’lumotlarga asoslanib, xorasmiylar va ularning Amudaryo quyi havzalariga ko’chib borgan avlodlari haqida fikr yuritgan. Bunday ma’lumotlar Afiney, Stepan va boshqalar ham yozishgan¹. Bular orasida Gerodotning o’zi yashagan va o’z ko’zi bilan ko’rgan davrlar(miloddan avvalgi 490-489 yillar oralig’i)dagi qabila va urug’lar, ayniqsa, skiflar ittifoqi (birlashmasi)ning tarkibi haqida bergan ma’lumotlari muhim o’rin egallaydi.

Gerodot eramizgacha bo’lgan VI-V asrlarda Osiyodagi ko’pgina o’lkalarda bo’lib, u yerlarda yashagan **argippiylar, issedonlar, skif-sak (shak)lar, massagetlar, oriy (ariy)** va **sug’dlar, dak** va **xorazmiylar** singari qabilalar va ularga tegishli qardosh urug’larning vakillari bilan uchrashgan, ularning yashash va tarqalish joylarini aniq tariflagan. Gerodotning O’rta Osiyo hududlariga bo’lganligi aniqv bo’lmasa-da, Gekatiy asari kabi tarix yozma manbalar va xalq og’zaki manmalar asosida anchagina aniq va muhim ma’lumotlarni qayd etgan. Chunonchi, u Xorazm va Turkmaniston hududlari va Kasbiy bo’ylarida **dak** hamda **xorazm** qabilalari, Zarafshon (Politimet) daryosi sohillarida, Tyanshan tog’ining g’arbiy etaklarida **sug’d** va **sak** kabi qabilalar yashaganliklarini va ular skif nomi bilan ham atalishini to’g’ri yozgan². Bu fikrlar keyingi davr olimlari asarlarida tasdiqlanadi. Gerodotning 9 jildlik “Tarix” asarida O’rta Osiyo hududlarida ancha qadimdan ko’chmanchi va qisman turg’un holda yashab kelgan skif, sak, massaget, xorasmiy, bahtariy (baqtar), issedon, day, sug’d, parikan kabi qabilalar haqida ma’lumotlar biz uchun xarakterlidir. Uning asarida massagetlar 19, bahtariylar 13, skif-saklar 11, xorasmiylar 3, sug’dlar 2 marta tilga olingan³

Tarixnavis olim Hasan Ato Abushiy “Turkiy qavmlar tarixi” nomli asarida yozishicha, skiflar turkiy elatlarning ham avlodidirlar, sak , massaget, sarmat va boshqa bir qancha qabilalar ulning tarmoqlardir.

¹ . Asqarov A.O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 135-b.

² .Geradot. Istoriya. -M.:Nauka,1972.Kn. 4, s.116-324.;Boynazarov F.O’rta Osiyoning antik davri, 35-b.

³ . Asqarov A. O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 137-b.; Sagdullayev A. Qadimgi O’zbekismton ilk yozma manbalarda.-T.: 1996.34-b.

Olimning ushbu asarida sak, massaget, sarmat, xun kabi qadimiy urug' va qabilalar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Ularning barchasi Turoniya elati, ya'ni turkiy qabilalarga bog'lab talqin etilgan. Turoniya elati haqida quyidagicha yozadi: "*Qavmi Turoniyadin ushbu qavmlar sonoladilar: Xitoy –Chin, Hindixitoy-Mochin, Tibet, Onom, Yopun, Qo'ri, Fin, Turk, Totor, Mang'ul, Tunguslar, Buryotlar, Moloy, Yig'qog'ir, G'iloq, Oyn, Kochodali, Chuqut, Kuryok, Numulus, Iukimus, Oluyut, Tiling'ut; Turk urug'i qavmi o'n yetti ulug' firqaga bo'linmishdir; eng eski Xitoy, Yuunon, Turk, Eron, Ovroppa, Rus tarixlarida soksondin ortiq turk qabilalari zikr edilmishdir. Ushbu qavmlar barchasi forsiylarda qavmi Turon otolmishlari Turkiston sahrosindin sochilmish xalq o'lduqlari uchun qavmi Turoniya otolmishdirlar. Tub o'rinlari Oltoy tog'lari o'ldig'indin Oltoy qavmlari, ko'progi O'g'ir va yo Uyg'ur ismindagi qabilalar O'g'ir-Oltoy guruhi otolmishlar; ushbu qavmlarning barchasi Turoniya "Turk urug'i qavmlari" otolmishdirlar*"¹.

Umuman, Abushiyning asarida miloddan avvalgi davr qabilalardan boshlab keyingi, milodiy asrlarda mustaqil tarzda shakllangan qabila-urug'lar ham sanab o'tilgan. Masalan, xitoy, iskit, iskif, iskullut, xorasimiy, xun, sormot (sarmat), ruquslon, yozig'ay, yotvog', masog'yet, olon, ovrasi, serok, yosa, qosug', tukiya, o'g'ir, bulg'ar, o'g'uz, uyg'ur, boshqurt, mishor, major(mojor), venger, xazar, qoroym, xolis, oxolin, ovor, pechenig' (pechenek), bijenok(bijanak), poluvesiy, kumoniy, qipchoq, saljuq, saqsen, qoiy, usmonli, solniy, quriyaq-keroyit, jurjiniy, neuchiy, kedoniy, xoro, xolxo, nayman, dulg'os, qirg'iz, qozoq, totor, to'ng'us, monjur, turkman (turkmon), qirg'iz, qozoq, o'zbek, mo'g'ul, buryat, telengut(teleut) kabi turkiy elatining shajarasi haqida fikr bildirilgan².

Ushbu asarda 60 dan ortiq urug' va qabilalar nomi ko'rsatilgan bo'lib, ularning barchasi Turoniya turklarining avlodlari sifatida talqin etilgan. Olimning yozishicha, turkiy qavmlar ba'zilar turli qavmlar bilan qorishib yashagan va ular har xil nomlar bilan atalganlar.

Umuman, turkiy xalqlarning shajarasi va ularning shakllanishi haqida so'nggi davr olimlarining tarix, etnografiya, dialektologiya kabi mavzuda fikr yuritilgan asarlarida bu kabi ma'lumotlarni kuzatish

¹ . Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi, 20-21-bb.

² Abushiy X.A. Ko'satilgan asar, 3, 224-bb.

mumkin. Ayniqsa, so'nggi yillarda, bu sohada bir qator maxsus ilmiy tadqiqotlar, asarlar yaratildi¹.

Ushbu ishlarda turkiy xalqlarning qadimiy munosabati, shakllanishi va nomlanishi hamda boshqa qavmlar bilan aloqasi masalalarda turli xil fikrlar aytilgan. Ayniqsa, venger, ugro-fin, oltoy, mo'g'ul-manjur, yapon, xitoy, shumer kabi tillar bilan turkiy tillarning qadimiy aloqalari borligi masalasida anchagina mulohazalar mavjud. Chunki bu masala hali yetarlicha yoritilmagan. To'g'ri, ba'zi ilmiy asarlar borki, ular bu masalani maxsus yoritishga bag'ishlanganga o'xshaydi. Masalan, N.A. Baskakovning "Altayskaya semya yazikov i yeye izucheniye" asarida bu masalaga doir anchagina fikrlar aytilgan ammo bu yetarli emas. Ikkinchidan, unda asosan, til oilalari, shajaralari nuqtai nazardan fikrlar bildirilgan, shu kabi eng qadimiy xalqlar (tillar)ning mavjud bo'lish davrlari taxminiy xulosalanadi. Har holda, Markaziy Osiyo o'lkasidagi qadimiy elatlar va ularning tillari, hamda hozirgi xalqlar va tillarga munosabati, shu kabi elatlarning nomlanish masalalari hali ham to'liq yoritilgan, deb bo'lmaydi. Xususan, o'zbek xalqi va uning nomlanishi masalasi ilmiy, tarixiy jihatdan mukammal xulosalanmagan. Ushbu masalani mukammal va ilmiy jihatdan asosli holda xulosalash uchun tarixiy yozma manbalarni nihoyatda sinchiklab kuzatish, avvalo, uning ildizini topish, so'ng etnosning etnogenetik va etnik taraqqiyoti davrlarini tadqiq etish lozimdir.

Biz ushbu sohada qadimgi ajdodlarimiz va ular bilan munosabatda bo'lgan yuqorida qayd etilgan ba'zi bir qabila-elatlar va ularning birlashmalari haqida qisman bo'lsa-da, fikr bildirishni lozim topdik.

¹. Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi.-T.Cho'lpon, 1995.-239 b.;Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab.-T.: O'qituvchi,1964.-124 b., Yakubovskiy A.Yu. K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda.-T.: Izd.ANUzb. 1941.-86 s., Baskakov N.A. Altayskaya semya yazikov i yeye izucheniye.-M.: Nauka,1981.-85 s., Kononov A.K. Rodoslovnaya turkmen. Sochineniye Abul-l-Gazi-xana Xvinskogo.-M.-L.: Izd.Vost.lit. 1958.S.-7-20; Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari.-T.: Fan, 1968.; Ivanov S.N. Rodoslovnaye drevo tyurok Abu-l-Gazi-xana.-T.: Fan, 1969.-203 s.; Gumilev A.M. Tisyachiletiye vokrug Kaspiya.-Baku.Azerb. gos. izd. 1991.-307 s.; Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari.-T.: O'qituvchi, 1991.-216 b., 2001.-351 b., shu muallif- O'zbeklarning kelib chiqishi tarixidan. -T.: Fan. 1962.-77 b., O'zbek ulusi.-T.: Abdulla Qodiriy , 1992. -121-b.; Sodiqov Q. Ajdodlar bitigi.-T.: Fan.1990.-30 b.; Sulaymonova F.Sharq va G'arb.-T.:O'zbekiston,1997.-415-b.; Azamat Ziyo.O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq , 2001.-366 b.; Rahmonov N. Turk hoqonligi. -T.: Abdulla Qodiriy, 1993.-142 b.; Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi.-T.: O'qituvchi, 1990.-159 b.; Shoniyozov K. K etnicheskiy istorii uzbekskogo naroda. -T.: Fan, 1974., Qarluq davlati va qarluqlar.-T.: Sharq, 1999.; Jabborov I . O'zbek xalqi etnografiyasi.-T.: O'qituvchi., 1994.; Abdurahmonov G'.O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida.-T.:TDSHI, 1999.-69-b.; Mahmudov Q.Turkiy hoqonliklar.Turon tarixi to'plami.-T.:1999.-32 b.va boshqalar.

SKIFLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)

Ta'kidlash joizki, miloddan avvalgi davrlarda yashagan elatlar (qabilalar) halq, millat sifatida shakllanmagan edilar. Skif va uning nomi bilan atalgan sak, dax, xorazmi, sug'd va boshqalarni hozirgi qaysi xalqqa-millatga mansub ekanligini aniqlash qiyin. Ayniqsa, Sug'diyonada yashovchi qabila va urug'larning yashash sharoiti, urf-odati, kiyinishi, yurish-turishi, tillari bir-biriga yaqin bo'lgan. To'g'rirog'i, ular o'zaro munosabatda bir-birlarini tushunishgan, aralash holda yashashb, umumiy nom bilan skiflar deb ham atalganlar.¹ Bu holat(bir-birini tushunish va birlik) keyingi davrlarda ham Turoni zamin xalqi (fors manbasi bo'yicha) yoki Turkiston o'lkasi aholisi kabi nom bilan davom etib keldi. Hozir ham Markaziy Osiyoning, ayniqsa, Movarounnahrning qaysi hududiga bormang, hozirgi xalqlarning aksariyati bir-birini tushunishi, bir-birining tilini bilishi seziladi....

Gerodotning ma'lumotlarida skiflar va uning ittifoqdoshlari asosan Markaziy Osiyoda yashagan va shu yerlardan boshqa joylarga tarqalishgan. Yevropa yerlariga qanday qilib skiflar kelib qolganligi haqida Gerodotning kitoblarida ko'plab hikoyalar mavjud. Jumladan, Gerodot ma'lumoticha, Ovropea yerlaridagi skiflar bilan O'rta Osiyodagi skiflarning avlodlari bir bo'lgan. Skiflar ko'chmanchi qabila bo'lganligi sababli ular katta-katta qo'shinlar bilan ko'p yerlarni zabt etganlar. Chunonchi, Gerodotning "Tarix"nomli to'qqizta kitobidan to'rtinchisida (uchinchi kitobida ham qisman) Skiflar hayoti hikoya qilinadi. Hikoyalardan birida yozilishicha, Osiyolik skiflar Araks(Oks) daryosi bo'ylaridagi qardosh qabilalar, aniqrog'i, massagetlar bilan kelishmovchilik natijasida (ular bilan bo'lgan jangda yengilib) kimiriylar yerini ishg'ol etganlar. Shu davrlardan ular Don, Dunay, Volga, Dnepr daryolari qirg'oqlarida ham yashab qolganlar². Gerodot asarlariga tayangan holda bu kabi ma'lumotlar boshqa tarixnavislar asarlarida ham qayd etilgan. Masalan, Kvint Kursiy Rufning "Buyuk Aleksandr Makedonskiy tarixi" asarida Gerodot aytgan ma'lumotlar tasdiqlanadi.

Kursiy Ruf o'z asarida miloddan avvalgi IV-III asrlardagi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi qabilalarning tarqalish va yashash o'rinlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Xususan, uning asarida

¹. Boynazarov F.O'rta Osiyoning antik davri, 98-b.

². Qarang: Geradot. Istoriya v devyati knigax. Kniga IV, s.302-303.; Boynazarov F.O'rta Osiyoning antik davri, 11-b.; Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-k., 35- 36 –bb.

ham **skif, sak, sarmat, massaget, sug'd, augas, xorazm, xunn, turk** kabi qabilalar Markaziy Osiyoning sersuv yaylovlarida, jumladan, Sug'diyona, aniqrog'i ikki daryo (Oks yoki O'ks-O'kuz, ya'ni Amu va Yaksart-Sir) oralig'ida joylashganligini aniq dalillar bilan tasvirlanadi¹. Chunonchi, uning asarida Oks, Yaksart daryolari sohilida va Politimit (Zarafshon) vohasida yashab kelishgan skif, sak, massaget, abiy, ambiys² kabi bir qancha qabilalar birlashib, Spitamen boshchiligida Aleksandr Makedonskiy qo'shinlariga qaqshatqich zarbalar berganliklari tasvirlangan.

Umuman, bu kabi ma'lumotlar Ksenofont, Ktesiy, Strabon, Arrian va boshqa tarixchilarning asarlarida ham mavjud. Strabonning "Gografiya" asarida qayd etilgan qabilalar O'rta Osiyoda yashovchi aholi sifatida sanab o'tilgan va ularning yashash va tarqalish o'rinlari bilan birga, hatto ularga xos urug'lar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Sak va massagetlar tarkibiga atasiy va xorazmiylar ham kirganligini aytgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Strabonning Skiflar davlati (ittifoqi) haqidagi ma'lumotlari xarakterlidir. Uning yozishicha, ma'lum davrlarda Skiflar (tarkibidagi podsholiklar) ittifoqi o'sha davrlarda mashhur bo'lgan Rim kabi ulkan davlatga tenglashgan. Rim bilan raqobatda tura oladigan qudratga ega bo'lgan. Uning dovg'i Rimgacha yetib borgan. Shuning uchun ham Rim bilan bu podsholiklar o'rtasida aloqa ham bo'lgan³.

Yunonlik Pompey Trogning skif (sak)lar haqidagi ma'lumotida aytilishicha, "ular (skiflar) Parfiya va Baqtriya podsholiklarining asoschilari sanaladilar...", Rimliklar bilan butun dunyoni o'zaro bo'lib olgan parfiyalik (skif)lar hozirda butun Sharq uzra hukmdordirlar va ular qachonlardir skiflar orasidan badarg'a qilingan (aslida skif) qavmlardandir. Skiflar tilida "parfi"so'zi badarg'a qilingan ma'nosini anglatadi"⁴. Umuman, antik davrlarda skif qabilasi ancha katta va yuqori mavqeyli birlashmalariga ega bo'lishgan. Rimliklar (Midiya), ahmoniylar (Eron) davlatlari skiflar bilan hisoblashishgan. Shuningdek,

¹. Kvint Kursiy Ruf. Istoriya Aleksandra Makedonskogo. Soxranivshiesya knigi.-M.: MGU,1960, s.265-317.

². Abiylar skiflar avlodidan. Ular Yaksart daryosi bo'ylarida, hyech kimga qaram bo'lishni istamay, erkin yashashovchi qabila-urug'lardan. Ambiyklar ham skif avlodlaridan, Ular Kir o'ldirilgandan so'ng Ahmoniy davlatiga bo'ysunishdan bosh tortgan Sug'diyonadagi jangovar qabilalardan hisoblangan (Boynazarov F. O'rta Osiyoning antik davri, 456-b.).

³. Strabon..Geografiya. V semnadsati knigax. Kiniga sedmaya, glava sedmaya. -.M.: Tip. t. Ris. Uyazsk Medinsoviy.1879. S.321, 518, 522, 523-525; Boynazarov F. O'rta Osiyoning antik davri, 145-174-bb.

⁴. Azamat ZiyO'zbek davlatchiligi tarixi, 42-b.

ularning tarixi haqida fikr yuritilgan asarlardagi ma'lumotlardan skiflarning yashash o'rnini Markaziy Osiyo ekanligi, boshqa joylarga shu yerlardan borib qolganligi sezilib turadi.

Gerodot ijodida ba'zi mifologik xarakterdagi hikoyalarga ham o'rin berilganligidan va badiiy asarlarga xos xususiyatlar mavjudligidan qat'iy nazar, uning o'sha davr voqyealarining ko'pchiligini o'z ko'zi bilan ko'rib va eshitib qalamga olganligini, yolg'on yoki soxta ma'lumotlar bilan ish ko'rmaganligini, ayniqsa tarixiy voqyealarni aniq va xolisona tasvirlaganligini uning safdoshlari (undan keyingi tarixchilar) ham tan olishgan. Ular ham Gerodot borgan yerlarda o'z kuzatuvlarida buning guvohi bo'lishgan¹. Shuning uchun ham ular o'z asarlarida Gerodot ma'lumotlari ishonchli ekanligini dalillar asosida qayd etganlar va tarixiy haqiqatni yoritishda unga tayanganlar.

Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganib chiqqan sharqshunoslar ilk ajdodlarimizning eng qadimgi tarixi haqida muhim ma'lumotlar berishgan. Xususan, A.B.Ditmar qadimgi skif qabilasining tarixi haqida ilmiy tadqiqotlar olib borib, o'zining mulohazalarini bayon etadi. Ayniqsa, uning "Skifiyadan Elefantinagacha" nomli tadqiqotida skiflar hamda ular ittifoqidagi sak, massagetlar va boshqa urug'-qabilalar haqidagi qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bu ishonchli ma'lumot va dalillar asosida o'tmish tarixnavislari fikrlari ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Skiflar turli yerlarda, jumladan, Yevropaning ancha ichkarisigacha (Volga, Don, Dnepr, Dunay daryolari bo'ylarida) bo'lgan o'lkalarda ham yashashganligini inkor etmasa-da, olim tarixiy manbalardagi ma'lumotlar asosida, "Skiflar O'rta Osiyodan tarqalgan, ular bu o'lkalar(O'rta Osiyo)da yashovchi sak va massaget qabilalari bilan urug'dosh bo'lgan"². Ular turli sabablarga ko'ra, turmush ehtiyojlari natijasida o'zga yerlarni zabt etib, qadimdan bu yerlarga kelib qolganlar degan xulosaga kelgan. A.B. Ditmarining yozishicha, skif, sak, massaget kabi urug'dosh qabilalar chorvachilik bilan birgalikda dehqonchilik, bog'dorchilik, baliqchilik va hunarmadchilik kabi sohalar bilan ham shug'ullanganlar. Skiflarning bir qismi O'rta Osiyoda turg'un holda yashab, o'zlarining qishloq va shaharlariga ham ega bo'lishgan. Skif-saklar Arshak davrida Markaziy Osiyoda (Parfiya, Midiya, Girkoniya, Baqtriya va ularga tutash bo'lgan yerlarni birlashtirib) ancha baquvvat davlat tuzganlar³. Xususan, turkiy urug'

¹ . Boynazarov F.O'rta Osiyoning antik davri, 35-b.

² . Ditmar A.B. Ot Skifii do Elefantini.-M.: Izd. geogr. lit-ri.,1961.S.22

³ . Ditmar A.B. Ko'rsatilgan asar, 22-b.

qabilalarning bir qismining yashash sharoiti, hayot faoliyati skiflarga mos keladi va shu bois ular skif nomi bilan yuritilgan. Hatto “ularning (skiflarning) ona tillari O’rta Osiyoda yashovchi sak va massaget qabilalarinikiga o’xshash bo’lgan¹. Shuning uchun ham turkiy urug’-qabilalarning ba’zi bir ko’chmanchi qismlari ular bilan Osiyoning (skiflar istelo qilgan) ko’pgina hududlarida, Kavkaz va Ovropaning yerlarida, Azov dengizi atroflarida va boshqa mintaqalarda qardosh bo’lmagan urug’-qabilalar bilan ham aralash holda yashab ketgan².

Ba’zi manbalarda yozilishicha, miloddan avvalgi VII-IV asrlarda turklar Osiyodan boshqa yurtlarga ko’cha boshlagan. Ular miloddan avvalgi III asrda iskitlar (aslida grek-yunon tilida iskuts tarzida “eski turk” ma’nosida bo’lsa kerak, bu haqda keyinroq fikr bildiramiz) nomi bilan mashhur bo’lishgan. Iskitlarni o’rol-oltay xalqlarining eng qadimiysi deb ham hisoblaganlar. Hatto iskitlar podshosining nomi Kartxasis-turkcha qardosh ma’nosini ifodalanganligi ta’kidlanadi³. Shu manbada (Abduzuhur Abduazizovning turk olimi Fuat Bo’zqurt kitobi bo’yicha yozgan mulohazalarida) iskitlar miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Sharqiy Yevropada, Osiyo, Chinda yashaganligi va 750-700 yillarda ular O’rol daryosini kechib, Markaziy Rossiyaga kelganligi aytiladi hamda O’rta Osiyo, Afrasiyob davlati bilan bog’liqligi, shuningdek, Yevropaga borib qolgan iskitlar Xitoydagi xun toifasidan deb qaralib, ular Osiyodagi xunlarning ko’rinishiga o’xshashligi ta’kidlanadi. Tarixiy yozma manbalardagi ma’lumotlarga ko’ra, o’tmishda Osiyo, xususan, Markaziy Osiyoning qadimgi hududlarida juda ko’p turkiy qabilalar uyushmalari bo’lgan va turli nomlar bilan atalgan. Lekin ular qo’pincha skiflar nomi bilan umumlashtirilib kelingan. Shu tufayli ba’zi manbalarda skif qabilasi aslida bo’lmagan degan fikr ham bor.

Sh.Karimov, R.Shamsutdinovlarning “Vatan tarixi” qo’llanmasida yozilishicha, “Skif” so’zi xalqning aniq nomi emas, balki ularning turmushini sifatlovchi ma’noni anglatgan. Markaziy Osiyoning keng cho’l hududlarida yashagan xalqlar yunon manbalarida skiflar nomi bilan yuritilgan”. Ammo yuqorida ta’kidlangan grek-yunon tarixiy yozma manbalarida skiflar yirik qabila sifatida aks etilib, bir qancha qabilalar birlashmalari ular ittifoqida bo’lganligi anglashiladi. Jumladan,

¹. Boynazarov F. O’rta Osiyoning antik davri, 11-b

². Qarang: Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi, 38-42-bb.

³ Bo’zqurt F. Turklarning tili.-Istambul. : 1992 (Abduzuhur Abduaziz. Turkiy xalqlar tillari va tarixi.-T.: “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1993. 8-son, 19 fevral).

bu mulohaza Pompey Trog bilan Yustinning yuqoridagi fikrlariga mos keladi. Chunonchi, Pompey Trog skiflarni dunyodagi eng qadimiy xalqlardan deb hisoblagan, qadimiylikda ular misrliklardan qolishmasligi haqidagi fikrlarni bildirgan. Yunon tarixchilarining yozishlaricha, skiflar qadimda g'arbda Dnepr daryosidan Tyanshan tog'larigacha cho'zilgan dasht va sahrolarda yashaganlar. Ular tarkibidagi asosiy qabilalar massaget, dax, sak (shak), debrik kabi nomlar bilan atalgan, degan ma'lumotlar ham berilgan¹. Rim tarixchisi Yustinning yozishicha ham "skiflar, eng qadimgi qabilalardan bo'lgan. Ular misrliklardan ham eskiroq qavm sanalgan. Qadimiylik jihatidan skiflar bilan misrliklar o'rtasida qattiq bahs yuritilgan"². Bu masalada yana shuni ta'kidlash lozimki, tatar olimi Xasan Ato Abushiyning "Turkiy qavmlar tarixi" (1909 y. Ufada chop etilgan) asarida yozilishicha, yevropaliklar tilidagi **skiflar** ko'chmanchi turkiylar bo'lib, aslida "**eski turk**" qavmlari ma'nosini ifodalaydi. Buni yunonliklar tomonida "**iskisut/iskut**" yoki "**iskit**" tarzida ataganlar³. Harholda, "**eski turk**" birikmasi, **iskusut** (eskiturk) shaklda qo'shilib (qisqargan "iskit" shaklida), qadimgi turk ma'nosini anglatgan bo'lishi mumkin.

O'zbek olimi Nasimxon Rahmon esa quyidagicha tariflaydi: "Eroniylar **skiflarga sak** otini berishgan. Biz sak nomi turklarga tegishli ekanligini aytdik (bu haqda sak-turklar haqida fikr bildirilganda yana to'xtalamiz). Boshqa manbalarda o'zgacha fikrlar uchraydi. Eramizgacha VIII-IV asrlarda bugungi O'rta Osiyo va Qozog'iston hududidagi qabilalar hammasi **sak** nomi ostida yuritilgan. Gerodot va boshqa antik davr tarixchilari ularni **Osiyo skiflari** deb yozadilar. Bu davrlarda turk qavmi "**iskit**" nomi bilan ham yuritilgan. Ovrupada esa "iskif-skif" deb atalgan. Ammo Ovrupa olimlari skif nomini turklarga emas, balki g'arbdagi xalqlar(**ukrain, osetin va h.**)ga nisbatan qo'llaganlar. Turklarni esa prototurk(ko'hna turk) deb ataganlar"⁴.

Jumladan, Nurixon Fattoh o'zining "Yiroq asrlar ovozi" nomli tadqiqotida skif, sak, massaget va boshqa o'nlab qadimiy qabila-elatlar turk xalqlarga ham bevosita aloqasi borligini va ular turkiy tilda ham gaplashganligini ancha ishonchli dalillar bilan isbotlab bergan. Olim qadimgi yunon muarrixlarining asarlaridagi ba'zi ma'lumotlarga etnolingvistik jihatdan yondashadi. Chunonchi, Gerodot asaridagi

¹. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-k . , 35-b.

². Yustin. "Epitoma Pompey Troga". Vesnik drevney istorii. M.1954 , №2, str.211.; Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi, 41-b.

³. Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi, 41-b.

⁴. Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi.-T. : Abdulla Qodiriy, 1993. 7-8-bb.

skiflar tilidagi (Papay, Api kabi xudolar nomini ifodalagan) “papay (boboy), apay(api-abiy), gelon(ilon) kabi so’zlarni ham tahlil etgan¹. Ma’lumki, grek-yunon adiblarining tarixiy asarlarida Oks-O’ks, Oksus-O’ksus,O’kuz Amudaryoning nomini anglatgan bo’lib, skiflar asosan shu daryo sohilida yashaganligi aytilgan. Bunday tahlillar qanchalik ko’p bo’lsa skiflar ham ilk ajdodlarimiz bilan bog’liq ekanligi oydinlashadi.

Miloddan oldin skiflar Dnepr daryosidan tortib to Tyanshangacha cho’zilgan dasht-sahrolardagi urug’ va qabilalarni boshqarganlar. Hatto, ular uch marta Osiyo ustidan hukmronlik qilishgan. Ahmoniyalar davlatining hukmdori Droni sharmandalarcha o’z yerlaridan kuvib chiqarishgan. Kirni butun qo’shinlari bilan qirib tashlaganlar². Ayniqsa, skiflarning Aleksandr Makedonskiy bosqiniga qarshi matonatli kurashlari O’rta Osiyo, jumladan, ajdodlarimiz tarixi sahifasidan alohida o’rin olgan.

Miloddan avvalgi IV-III asrlardagi skiflar bilan bog’liq bo’lgan tarixiy voqyealar Kvint Kursiy Rufning “Aleksandr Makedonskiy tarixi” nomli asarida xolisona bayon etilganini ko’ramiz. Unda O’rta Osiyo, xususan So’g’diyona, aniqrog’i, ikki daryo Oks(Amu) va Yaksart(Sir) oralig’idagi tarixiy voqyealar keng o’rin olgan. O’zga elatlar hayotiga haqiqat va hurmat-ehtirom bilan qaray olgan rimlik tarixnavis Kursiy Ruf bu hududdagi skiflarning adolatparvar, tinchliksevar, o’ziga xos urf-odat va madaniyatiga ega bo’lgan qabilalar ekanligini dalillar bilan ifodalagan. Uning yozishicha, skiflarning nutqi jozibador, ular orasida donishmand, badiiy nutq egalari ko’p bo’lgan. Fikrlarini hayotiy maqollar asosida dadil va ta’sirli tarzda o’z dushmanlariga qarata ayta olganlar. O’sha davrlarda ular og’zidan yozib olgan maqol-hikmatlarni Aristobul sarkarda Aleksandrga o’qib bergan. Aleksandr maqollardagi chuqur mazmundan kuchli ta’sirlanadi va ularni jahl bilan yirtib, suvga uloqtirgan³.

Shu kabi skif birlashmasi elchilari bilan Aleksandr o’rtasidagi muloqot xarakterlidir: “Nega bizning yurtimizga oyoq bosding? Bizning tinchimizni nega buzding? Sen bu yerga qaroqchilarni tutgani kelganman deb maqtanasan, maisading talonchilik-ku? Senga buncha boylik nega kerak? Sen kimsan, qayerdan kelding? Biz senga xizmat qilishni, egilishni xoxlamaymiz? Biz skiflarga ho’kiz, omoch, qilich,

¹. Fattoh N. Yiroq asrlar ovozi.-Qozon. “Qozon o’tlari”jurnali, 1976. 9,10,11-sonlari.

². Boynazarov F. Antik dunyo, 147-b.

³. Droyzen I.G. Istoriya Ellinizma. -M.: Tipo-litografiya Rixter V.F.,1891, s.234.

yoy va qozon-tovoq bo'lsa bas. Ho'kiz va omoch bilan yer haydab ekin yetishtiramiz, hosilni olib, jamoamiz bilan baham ko'ramiz, birlikda bir qozon-tovoqda ovqatlanamiz, do'stlar bilan ichimlik ichamiz. Qilich va yoydan o'zimizni dushmandan himoya qilishda foydalanamiz. Biz shu maqsadda Suriya, Eron va Hind shohlarining bosqinlarini yengib kelganmiz. Bizga o'zga yurtlarning hokimligi kerak emas"¹.

Bu kabi fikrlar orqali skiflarning yuksak jasorat va milliy g'ururga egaligi, o'z vatani, el-yurti uchun har qanday dushmanga qarshi mardonavor kurasha oladigan kuch-kudrati borligi namoyish etilgan. Ular Aleksandrga bosqinchilik bilan o'zgalarning el-yurtini talon-taroj qilayotganligini, boylik ortirish maqsadida nohaq, adolatsiz ravishda har ikki tomonlama xunrezlik bo'layotganini dadil aytib, uni bunday qaltis yo'ldan to'xtatish va tinchlik, do'stona munosabatlar bilan o'z yurtlariga qaytishni talab etganlar. Skiflarning jasur-qo'rqmas, shijoatkor va mardligini Kursiy Ruf o'z asarida misollar asosida qayta-qayta tasvirlab bergan. Chunonchi, muallifning asarida yozilishicha, "Jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan skiflardan 30 nafari o'lim jazosiga mahkum qilinib, hukmni ijro etishga olib borilayotanda, ular o'limdan ham qo'rqmay, ko'tarinki kayfiyatda o'zlariga xos milliy qo'shiqlarini baralla aytib borar edilar Bu holatni ko'rgan Aleksandr Makedonskiy o'limni mensimagan skiflarning mardlik - jasoratiga qoyil qoladi va ularni asrlikdan ozod etadi"². Umuman, skiflarning milliy g'ururi, o'zlariga xos madaniy saviyasi, urf-odatlar, xususan, vatanparvarlik tuyg'ulari yuksak darajada bo'lganligini grek-yunon muarrixlari xolisona baholaganlar. Ularning ma'lumotlari, fikr va mulohazalardan seziladiki, O'rta Osiyoda tarqalgan skiflar o'ziga xos etnik tarixga, etnogenetik belgilarga va mustahkam qabila birlashmalariga (hukmronligi yoki davlatchilik xususiyatiga) ega bo'lganki, zero, bu haqda qadimgi Grek-yunon va Rim davlatlari yozma manbalarida maxsus ma'lumotlar o'rin olgan.

Xullas, Grek-yunon manbalaridagi ma'lumotlar va ilmiy manbalarda aytilgan fikr-mulohazalar qadimgi skif va uning tarkibidagi qabilalar o'tmishda Vatanimiz hududlarida ham yashaganligini to'liq tasdiqlaydi. Skiflar hozirgi Markaziy Osiyodagi yashovchi xalqlarning o'tmish avlodlari bo'lganidek, o'zbeklarning ham eng qadimgi

¹ . Kvint Kursiy Ruf. Istoriya Aleksandra Makedonskogo. Soxranivshiyesya knigi. Izd. MGU, 1963, s. 284.

² . Boynazarov F. O'rta Osiyoning antik davri, 57-b.; (Kvint Kursiy Ruf. Ko'rsatilgan asar, 294-b.)

ajdodlari-ildizlaridan biri bo'lishgan. Ular hukmronligidagi birlashmalar esa, o'zbek davlatchiligining ham ilk ildizlari sanaladi.

QADIMIY XORAZMIYLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)

Xorazmiylar Markaziy Osiyodagi ancha qadimiy va qudratli qabilalardan biri bo'lgan. Bu qabilaning o'tmishi tarixiy manbalarda qayd etilishicha, miloddan avvalgi IX-VIII asrlar bilan o'lchanadi. Xorazm hududidan topilgan va "Amirobod madaniyati" deb nomlangan arxeologik yodgorliklar (o'sha davrlarda yashagan urug'-qabilalarning 20 ta yarim yerto'la kulbalari va jez qurollari, umuman, yashash uchun zarur bo'lgan anjomlari),¹ ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarining mil.avvalgi VIII-VII asrlar davriga (A.Ziyo), yoki miloddan.avvalgi 1500-1200 yillar oralig'iga (A.Asqarov) tegishli ilk qadimiy asar- "Avesto"² Xorazmning qadimgi davlatida yaratilganligi bu fikrni tasdiqlaydi.

Ba'zi tarixiy manbalardagi ma'lumotlardan seziladiki, Axmoniyilar sulolasi davrida ham Xorazm qabilalarining mavqeyi yuqori turgan. Bu davrlarda ular Baqtriya va Girkaniyadan tashqari Sirdaryodan O'rta Afg'onistongacha bo'lgan hududlarni o'z ta'siriga qaratib kelishgan³. Xorazm qabilalarining Ahmoniyilar sulolasidan oldin, eng qadimgi davrlarda (mil.avv. VI asrlargacha) ham yirik qabilaviy birlashmasi bo'lgan, degan fikrlar bor. Ayrim ishlarda bu birlashma (ilk davlatchilik namunasi sifatida) fan olamida **"Katta Xorazm davlati"** nomi bilan ham atalmoqda. Ammo xorazmiylar hukmronlik qilgan eng qadimgi siyosiy sulola to'g'risida aniq bir yozma manba saqlanmagan. Bu haqda akademik A. Asqarovning fikrlari diqqatga molik. Olim tarixiy yozma manbalar va ularning etno-geografik tahlili hamda arxeologik topilmalardagi daliliy materiallarga asoslanib, miloddan oldingi Xorazm tarixida ikki taraqqiyot davr mavjudligini ko'rsatadi. Birinchi davri miloddan avvalgi VI asrgacha bo'lgan "Katta Xorazm davlati"dir. Bu davrgacha xorazmiylarning dastlabki vatani, ya'ni "Katta Xorazm

¹. Jabborov I.O'zbek xalqi etnografiyasi, 52 – b.

². Azamat Ziyo.O'zbek davlatchiligi tarixi, 26-b. Sh . Karimov,R.Shamsutdinovlar "Avesto"ni Zardusht (mil.avv.559-512) qirq yoshga yetganda yozganligini aytishgan.(Vatan tarixi, 97-98-bb.) Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 124-b. va boshqalar.

³. Azamat Ziyo.Ko'rsatilgan asar.30-b. Abu Rayhon Beruniy.Tanlangan asarlar.1-jild.-T.: Fan, 1968,18-20-bb..

davlati” hududining chegarasi Baqtriyadan janubda, Areyadan sharqda, Hyerirud va Hilmend daryolarining yuqori havzasida, hozirgi Hirot vodiysida bo’lgan. **“Xorasmiy”(Xorazm) atamasi(yoki etnonimi)ning ilk ildizi** ana shu hududlarda paydo bo’lgan. Olimning bunday xulosasi Zardushtning (mil.avv.1500-1200 yy.) “Avesto” kitobi, Skilak (mil avv. VI asr), Gekatey (mil.avv.VI asr), Gerodot (mil.avv. V asr), Strabon (mil.avv.63, milodiy 24-y.), Afiniy (milodiy III-II asrlar), Stepan (milodiy VI asr) kabi sayyox-muarrixlarning asarlaridagi ma’lumotlarga asoslangan¹.

Umuman, “tarixiy manbalar va arxeologik materiallarning yangicha qiyosiy tahlili “xorazm” atamasining tarixiy ildizlari aynan “Katta Xorazm davlati” hududlari, uning lotincha “xorasmiylar” nomi bilan bog’liq xalq etnonimi bilan ham bog’liq ekanligidan dalolat beradi². Harholda, bir qator muarrixlarning yozma asarlarida “Katta Xorazm davlati” haqida qaydlar bor. Lekin qadimgi yozma manbalardagi ma’lumotlar xronologik tartibda emas, tarixiy voqyealar tafsilotlari tarzida juda qisqa xabar-hikoyalar tarzida uchraydi. Shu kabi keltirilgan ma’lumotlarda anchagina afsonaviy qism ham mavjud. Jumladan, bu tafsilotlar tarkibida tarixiylik ham bor. Ular so’nggi manbalarda turlicha aks etgan.

Chunonchi, rivoyat va afsonalarga ko’ra Xorazmning eng qadimgi siyosiy sulolasi (VII-I asrlar³) Siyovushiy (Siyovarshan) nomi bilan tilga olinadi. “Avesto” kitobidagi ma’lumotga ko’ra Siyovush Kavousning (Kava Usaning) tutingan o’g’li bo’lgan. Ilk Xorazmiylar sulolasi uning nomi bilan boshlansa-da, aslida Siyovarshon vafotidan so’ng uning o’g’li Kayxusrav (Kova Xusrav) Turon oriylarini birlashtirib, Xorazmda birinchi sulolaga asos solgan⁴.Sulolaga asos solingan davr-xorazmcha yil boshlanish sanasi “buyuk ko’chish”lar davriga to’g’ri keladi.Bu sulola milodiy asrning X asriga qadar hukmronlik qilgan⁵.

Abu Rayhon Beruniyning “Al osorul boqiya anil qurunil xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) nomli asarida yozilishicha, Xorazmga aholi miloddan avvalgi 1292 yildan kela boshlashgan. Afsonaviy Siyovushning Turon zaminiga kirib kelish sanasi esa

¹ . Asqarov A. O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 109-114-b.

² . Asqarov A. Qadimgi Xorazm tarixiga doir ba’zi bir masalalar.”O’zbekiston etimologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar”.-T.: 2004., 76-84-bb.; shu muallif-O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 106-113-bb.

³ . Azamat Ziyov. O’zbek davlatchiligi tarixi, 313-b.

⁴ . Tolstov S.P. Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizatsii.-M.: Nauka, 1948.s.85-86.

⁵ . Jabborov I.O’zbek xalqi etnografiyasi, 239-b.

miloddan avvalgi 1200 yil bilan belgilangan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, "Qatta Xorazm davlati"ning ilk davrlari yoki shakllangan davri haqida aniq bir xulosaga kelinmagan.

Abu Rayhon Beruniy Xorazm tarixini Siyovush nomiga bog'lab talqin etadi. Bu talqinda afsonaviy tarzda (tarixiy voqyealar tafsilotlar orasida Siyovushni ilohiy qahramon sifatida tariflagan) fikrlar ham bor... Beruniy yozishicha, Siyovush Eron davlatining Turonga qarshi uyushtirgan harbiy yurishlaridan biriga qatnashib, g'alabadan so'ng Turon podshosi Alp Er Tunga (Afrosiyob)ning qiziga uylanadi va Turon mamlakatiga qoladi. U o'zi yashab qolgan joyda ajoyib bir qal'a(shahar) bunyod etadi va bu shahar **Qangdiz yoki Qangu Siyavaxsh** deb atalgan¹. Bu kabi ma'lumot Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" nomli asarida ham uchraydi.

XI asrning qabilashunos olimi Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida Siyovushni Afrosiyob va uning qizi Qaz bilan bog'lab tariflaydi. Mahmud Koshg'ariy devonida yozilishicha, "Qaz-Afrosiyob qizining nomi. **Qazvin shahrini** shu qurdirgan... Qazvinni turk shaharlaridan hisoblashgan. Shuningdek, Qum shahri chegara hisoblanadi. Chunki **qum** turkcha so'zdir... Ba'zilar turk shaharlari chegarasi Marv-ash-Shohijondan boshlashini so'zlaydilar. Chunki Qazning otasi To'nga Alp Er-Afrosiyobdir... Ba'zilar butun Movarounnahrni turklar o'lkalaridan deb hisoblaganlar. U Yankaddan boshlanadi. Uning bir oti Dizruiydir. U sariqligiga ko'ra mis shahri demakdir. Bu Buxoraga yaqindir. Bu yerda Afrosiyobning qizi – Qazning eri **Siyavush** o'ldirilgandir. Majusiy-otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, **Siyavush** bo'lgan joy atrofida yig'laydilar. Mollar so'yib, qurbonlik qiladilar. So'yilgan mol qonini uning mozori(qabri) ustiga to'kadilar... turk o'lkalarining chegarasi Abisgun dengizi bilan o'ralgan. Rum o'lkasidan va O'zjandan Chingacha cho'zilgan...²"

Asarda o'sha davrdagi hukmronlik chegarasi aniq belgilab berilgan. Ushbu ma'lumot **Afrosiyob kabi Siyovushning ham tarixiy shaxs** ekanligidan dalolat beradi. Ammo Siyovush sulolasining yaxlit tarixi to'g'risida va uning qachon inqirozga uchragan davri haqida aniq va to'liq ma'lumot yo'q. Tarixshunos olimlarning qayd etishlaricha, "Katta Xorazm davlati"ning ilk shakllangan sanasi, hududlari, uning ta'siridagi yerlar, umuman, dastlabki o'tmish taraqqiyoti va so'nggi parchalanishi yoki inqirozga uchragan davrlari hamda qay tarzda

¹ . Tolstov S.P. Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizatsii , s. 108.

² . Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk 3-tom. –T.: Fan, 1963. 163-164-bb.

ahmoniylar tobeligiga tushib qolganligi haqida ham biror-bir manbada hozircha aniq ma'lumot uchraganicha yo'q. Lekin tarixiy manbalarda qayd etilgan (xronologik tarzda bo'lmagan, yo'l-yo'lakay keltirilgan) qisqa-qisqa ma'lumotlardan ham ma'lum bir xulosaga kelish mumkin. Bu borada ta'kidlangan qadimgi davr muarrixlarining ma'lumotlari, jumladan, so'nggi davr olimlarimiz tomonidan aytilgan mulohazalar, ayniqsa, akademik A.Asqarovning fikrlari muhim o'rin egallaydi.

Xorazmning o'tmish tarixining ikkinchi taraqqiyot davri haqida ham akademik A.Asqarov ancha diqqatga molik mulohazalarini aytgan. Bu davr miloddan avvalgi VI asrdan boshlanadi. Bu davrlarda Ahmoniylar kuchayib ketib, sharqiy Eron qabilalariga tazyiq o'tkaza boshladilar. Ulardan yiliga katta boj olish maqsadida turli adovatlarni keltirib chiqara boshladilar. Jumladan, Hilmend tog' daralaridan oqib tushadigan suv yo'llariga to'g'onlar qurdirib, suv oquvi yo'llarini o'zgartirib, xorasmiy yurti-qadimiy Hilmend (hozirgi Hirot) vodiysiga tomon yo'naltirganlar. Oqibatda natijada vodiya botqoqlik va ko'llar hosil bo'ladi. Natijada xorasmiylar ilojisizlikdan o'z vatanlarini tark etib, o'zga yerlarga ko'chishga majbur bo'ladilar. Ana shu ko'chishda ular asosan Amudaryoning quyi hududlariga (daryo irmoqlari suvlaridan dehqonchilikka qulaylik, ziroatchilikka va chorvachilik uchun imkoniyati mavjud bo'lgan unumdor yerlarga) kelib qoladilar.

Xorasmiylar bu yangi yerning tub aholisi sanalgan massagetlardan farqli o'laroq, parfiyaliklar, marg'iyonaliklar, baqtariylar, girkanlar, saranglar kabi sug'orma dehqonchilik, ziroatchilikka va boshqa sohalarda juda boy hayotiy tajribaga ega bo'lganligi sababli bu yangi yerga tez moslashib, tubjoy aholiga aylanganlar. Shu davrlardan boshlab bu yerlar Qadimiy Xorazm hududiga aylana borgan. *Amudaryoning quyi havzalarida "xorazm" atamasi (yoki etnonimi)ning keyingi yuzaga kelishining tarixiy ildizi* ana shu davrdan boshlangan, desa bo'ladi. Xorasmiylar ta'sirida VI asrning ikkinchi yarimiga kelganda Amudaryoning quyi havzalarida siyosiy-iqtisodiy va etnomadaniy vaziyat o'zgargan. Aholisi yarim yerto'la shaklidagi kulbalarda yashab kelgan, motiga dehqonchiligi va ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan yerlarda tub ma'nodagi sug'orma dehqonchilik shakllandi. Osmono'par mudofaa inshootlar bilan o'ralgan shaharlar bunyod etila boshlandi. Dastlab Xorazm vohasining qirlarida Ko'zaliqir, Qal'aliqir, so'ng tekisliklarda Qo'yqirilganqal'a, Dingilji kabi mahobatli mudofaa devorlari bilan o'ralgan qal'a-shaharlar, kanal va ariqlar asosida sug'orma dehqonchilik madaniyati yuzaga keldi. Endi

Amudaryoning quyi havzalari xorazmiylarning etnik nomi bilan atala boshlangan, ya'ni miloddan avvalgi VI-V asrlardan boshlab bepoyon Aryanam Voychahning Amudaryo etaklarida tarkib topa boshlagan vohalari "Avesto"da "xvarizam", yunon muarrixlari asarlarida "xorasmiya" deb ataladigan bo'ldi. Ayni davrlarda "xorazm" etnonimi, u bilan bog'liq holda qadimgi Xorazm o'lkasi, tarixiy-madaniy markaz, yangi tamaddun (sivilizasiya) o'chog'i, uning o'troq xorazm xalqi shakllana boshladi...

Demak, Xorazm davlatining bu ("Qadimgi Xorazm" deb atalgan-A.Asqarov.) davri kichik Osiyoning xurrit qabilalari bilan bog'liq emas va "Qadimgi Xorazm podsholigi" ilk davrdagi "Katta Xorazm" tarkibida bo'lmagan. Balki so'nggi bronza va ilk temir davrining "Katta Xorazm davlati" mahalliy hokimliklari konfederasiyasining parchalanishidan so'ng, xorasmiylarning Amudaryo quyi havzalariga-massagetlar yurtiga kirib kelishi bilan bog'liq holda "Qadimgi Xorazm podsholigi" shakllangan. Bu tarixiy voqyelik VI asrning so'nggi choragida yuz bergan va shu davrlardan boshlab massagetlar yurtining vohalari Xorazm deb atala boshlangan. A.Asqarovning yozishicha, "Katta Xorazm davlati" deganda qadimiy Hilmend (hozirgi Hirot) vodiysidan to Amudaryosigacha bo'lgan xorasmiylar, girkanlar, parfiyaliklar, sarang va famaneylar yashagan hududlarni tushunmoq kerak. Bu yerlarda ular o'troq hayot kechirganlar, sug'orma dehqonchilik madaniyatini rivojlantirishda boy tajribaga ega bo'lganlar¹.

Yunon tarixchisi Geradotning yozishicha, miloddan oldin Xorazm davlati ancha taraqqiy etgan mamlakatlardan sanalgan, qadim davrlardayoq mintaqa ekin maydonlarini suv bilan taminlash uchun sug'orish inshootlari, to'g'onlar qurilgan. Jumladan, Oks daryosiga to'g'on qurilganligi qayd etilgan. Ayrim manbalarda Oks daryosi Kaspiy dengiziga quyilardi, degan ma'lumotlar ham uchraydi². Bunday ma'lumotlar ma'lum bir asosga egadir. Ularga asoslangan holda so'nggi davr olimlari ham o'zlarining anchagina haqiqatga mos mulohazalarini bildirganlar. Chunonchi, etnograf olim I.Jabborovning yozishicha, Gerodot ma'lumotiga ko'ra miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Oks-

¹ . Asqarov A. Qadimgi Xorazm tarixiga oid ba'zi bir masalalar. O'zbekiston tarixi etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar", 76-84-bb., O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 113-118-bb.

² . Tolstov S.P. Po sledam derevnexorezmskoy sivilizatsii, s.22; Tolstova L.S. Istoricheskiye predaniya Yujnogo priaralya. -M.: Nauka, 1984.s.40; Yesbergenov X., Xashniyazov J. Etnograficheskiye motivi v karakalpakskom folklоре.-T.: Fan, 1988, s.18; Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi, 56-b.

Tajan vohasi, ya'ni hozirgi Turkmaniston hududlari Xorazm hukmronligida bo'lgan. "Katta Xorazm davlati" to'g'risida so'nggi davr olimlaridan S.P. Tolstov, V.Xenn, Ya.G'. G'ulomovlarning fikrlari ham diqqatga molik. Chunonchi, S.P. Tolstov tarixiy va arxeologik ma'lumotlarga asoslanib qadimgi "Katta Xorazm davlati" tarixini, "Avesto" davri bilan bog'laydi. Ma'lumki, "Avesto" asarining muallifi Zardust (Zardo'sht) miloddan avvalgi 589-512 yillarda, ya'ni bizning asrimizdan 2600 (2700) yil muqaddam yashab o'tgan¹.

S.P.Tolstov ko'p yillar davomida Xorazm hududining o'tmish tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, zardushtlikning ilk vatani Ar'yanem Vaychax (Kairizem, Ayranam-vejo²), ya'ni Xorazm bo'lgan va bu hudud qadimgi Daitiya (Amu) daryosining sohilida joylashgan. Zardusht o'z ta'limotini xuddi shu hududdan boshlab so'ng boshqa yerlarga tarqatgan. Ayrim tadqiqotchilar zardushtlik dinining Vatani Balxdir³ yoki Erondir deb qarashadi. Jumladan, E.Berzin ham xuddi shu fikrda bo'lib, uningcha, bu din Hind va Eron qabilalari dinidan kelib chiqqan.

Lekin yuqorida nomlari qayd etilgan (S.P.Tolstov va boshqa) olimlarning katta guruhi, jumladan, A.O.Makovelskiy N.Proxorov, Yu.A.Rapoport, V.V.Struvelar ham zardushtiylik dinining vatani (**faqat** Balx yoki Eron emas) **umumiy** tarzda **Markaziy Osiyo** deb isbotlaydilar. Chunonchi, **"Avesto"da 16 mamlakatga qarashli** hududlarga xos nomlar tilga olingan. Bulardan 2 tasi afsonaviy bo'lsa, **9 tasi Markaziy Osiyoga tegishli** nomlar, 5 tasi esa Hindiston, Ozarbayjon, Armaniston hududlariga qarashlidir. Vedevedod bobining dastlabki qismida Spitam Zardusht bular ta'rifini quyidagicha tartib bilan bergan: "birinchisi bu Daitya (Amu) daryosi sohilidagi Arian Vayego yeri. Daitya daryosining birinchi nomi Araks bo'lgan va Ardeva nomi ham eslatiladi. (Sosoniylar davrida esa Eranvez deb atalib kelingan. Araks nomi Samoniylar davrlarida ham qo'llangan.). Tarixnavis Andrasning aytishicha, Eranvez nomi bilan Xorazm hududi ham bo'lgan. Noberg ham shu kabi fikrni aytib, zaroastrizmning muqaddas mamlakati sifatida tariflaydi. Benvenist va Gersfeldlar esa Xorazm oriylarning birinchi davlati bo'lgan, deyishgan⁴. Oriylar asli ko'chmanchi chorvadorlar orasidan chiqqan tashabbuskor va tadbirkor

¹. Karimov I. Zardushtiylik haqida haqiqat. -T.: "Muloqot" jur.,1999.11-12 (23-24)-s., Normatov K.Haqqoniylik tamoyili. -T.: "Jahon adabiyoti", jur. 1999. 1-s., 27-b.

². Azamat ZiyO'zbek davlatchiligi tarixi, 27-b.

³. Boynazarov F.O'rta Osiyoning antik davri, 461-b.

⁴. Boynazarov F.O'rta Osiyoning antik davri, 218-b.

jangovvar-harbiylashgan qatlam bo'lib, tug'ilib kelayotgan dastlabki sinfiy jamiyatning zodagonlar tabaqasidir. Tarixiy tilshunoslik va arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, ular kelib chiqishi jihatidan eroniy til sohiblari bo'lmay, balki turkiyda so'zlashganlar¹.

Gersfeld fikricha, Eranvez va Turon bir mamlakat bo'lib, Turkistonda joylashgan. Bu mamlakatda qadimda midiyaliklar va forslar ham yashaganlar. Keyinchalik tabiiy sharoitga ko'ra, ular ketib qolishgan va bu yerlar oriylarga tegishli bo'lmay, Turon mamlakatiga aylangan. "Avesto"da "tura" so'zi uchraydi². Ikkinchisi Gava (Sug'd-Sug'diyona yeri); uchinchisi Marv-Mouru (Marg'iyona); to'rtinchisi Baxdi (Baqtriya, Balx); beshinchisi, Niso-Nisaya (Ashxabod atrofi); oltinchisi Garoiva, Gari daryosi havzasi yoki Ariya-Xarayva-Hirotdir; yettinchisi Vaskrenta yoki Qobul-Tus (Xuroson yeri); sakkizinchisi Urava yoki Tus, Gurganch (Urganch); to'qqizinchisi Xneta, Varkanada-Gorkan daryosi sohillari³ (Turkmaniston va Eron chegaralari oralig'i, aniqrog'i, Girkoniya yerlari) kabilar. Bu hududlar, Eron Ahmoniyilar davlati hukmronligigacha Xorazmning ta'sirida bo'lgan, xususan, Sirdaryodan O'rta Afg'onistongacha bo'lgan hududlarda (Baqtriya va Girkaniyadan tashqari) Xorazm ta'siri saqlangan⁴. Xuddi shu davrlarda Parfiya podsholigi ham Xorazm ta'sirida bo'lgan.

Umuman, "Avesto" yaratilgan davrida Xorazm o'lkasida qabilalar birlashmasi (ilk davlatlar ildizi) shakllangan edi. Chunonchi, Sopollitepa yodgorliklari ilk birlashma (Zantu-bir necha vislar, ya'ni bir qancha urug' va qabilalar uyushma)larni eslatadi⁵. "Avesto"dagi ma'lumotlarga qaraganda, Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona, Dovon (Parkan) kabi yurtlarda qabilalar birlashmalari mavjud bo'lgan. Chunonchi, "Avesto"ning Videvdod (Vandidod) bobida Eranvej-Eranvez (Aryanam Vayeju yurti) Xorazm vohasiga nisbat berilgani bejiz emas. "Avesto"ning "Yasht" qismida Xorazm farovon o'lkalardan biri sifatida, Ardeva daryosi suvlari bilan ma'mur bo'lgan yurt deb tariflangan. "Avesto" kitobining muallifi ham asli Turon farzandi. Firdavsiyning aytishicha, shoh Vishtasp farmoniga ko'ra, Zardusht 1200 bobdan

¹. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 111-b.

². Boynazarov F. Ko'satilgan asar, 216, 218-219-bb.

³. Boynazarov F.. Ko'satilgan asar, 217-b.

⁴. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi, 28- b.; Istoriya Uzbekistana v istochnikov {sostavitel B.V.Lunin).-T.: 1984, s. 28; Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-k. 38, 98-99-bb.; Normatov K. Haqqoniylik tamoyili. -T.: "Jahon adabiyoti" jurn. 1-son, 1999. 27-b.

⁵. Isoqov M. Qadimgi davlatchiligimiz tarixidan. -T.: "Ta'lim muammolari" jurnali, 2006.1-son, 18-19-bb.

iborat asarini yozgan¹. Xususan, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a, Qo'yqirqilganqal'a, Filqal'a kabi manzilgohlar ko'hna Xorazm hukmdorlari tomonidan vujudga keltirilgan (miloddan avvalgi VIII-VI asrlarga xos) qo'rg'onlar (shaharlar)ning izlaridir². Demak, bular Xorazmdagi ilk davlatchilik ildizlari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi VI asrlarning ikkinchi yarmida Xorazm siyosiy manfaatlari doirasida bo'lib kelgan Parfiya ahmoniylar tobeligiga o'tgan edi. Parfiyani Doroning otasi Vishtasp boshqarar edi³. Bu davrlarda Parfiya yerlari, asosan, Xorazm ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun Xorazm ta'sir doirasi natijasida ahmoniylarga qarshi Parfiyada notinchlik, xalq qo'zg'olonlari davom etgan. Ahmoniylarning tajovuzkorligiga qarshi kurash kundan-kun kuchaygan. Xuddi ana shunday ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy voqyealarning mazmuni "Avesto" asarda ham o'z ta'sirini topgan.

Harholda, "Avesto" asarida miloddan avvalgi VII-VI asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot haqida g'oyatda muhim ma'lumotlar beriladiki, bu ma'lumotlar ko'hna Xorazmning, umuman, Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda, uning ilk davlatchilik tizimini yoritishda alohida o'rin egallaydi. Eron bilan xorazmiylar munosabati bo'yicha fikr yuritish jarayonida Ahmoniylar qabilasi va ularning tili hamda saltanatining vujudga kelishi haqida qisqacha ma'lumot berish lozim bo'ladi. Xorazmiylar o'zlariga xos tilga ega bo'lib, Sharqiy Eronda yashagani, ahmoniylar esa, Eronning janubiy-g'arbida istiqomat qiluvchi forsiyzabon qabilalar sanalganlar. Ularning tili xorazm tilidan tamoman farqlangan. Ahmoniylar yashagan viloyatlar miloddan avvalgi VI asrlarda Midiyaga tobe hisoblangan. Xorazm esa bunday tobelikdan dahlsiz bo'lgan. Yunon tarixchisi Ktesiyning yozishicha, Astiag hukmronligi (miloddan avvalgi 584-550 yillar) davrida Parfiya Midiya tobeligidan chiqib, Xorazmiy(sak)lar homiyligiga o'tganlar⁴. Chunki Pompey Trog ma'lumotiga ko'ra parfiyaliklar aslida Xorazmiy(sak)lar birlashmasida bo'lganlar⁵. Ushbu ma'lumotlardan seziladiki, Midiya saltanati davrida Xorazmiylar o'zining mustaqqil mavqyeiga ega

¹. Normatov K. Haqqoniylik tamoyili. -T.: "Jahon adabiyoti" jurnali. 1-son, 1999. 27-b.

². Abdrimov K. Drevnexorezmiyskaya kultkra i akademiya mamui.-T.: "Ta'lim muammolari" jurnali, 2006. 1-son, 33-34-bb.; Isoqov M. Teran Tomirlar.-T.: "Jahon adabiyoti" jurnali, 1-son, 1999.15-b.

³. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi, 43-b.

⁴. Istoriya Uzbekistana v istochnikov, s.67.

⁵. Istoriya Uzbekistana v istochnikov, s.155-158.

bo'lishgan. Jumladan, bu davrlarda xorazmiylarning o'ziga xos tili va yozuv madaniyatiga egaligi ham xarakterlidir.

Xorazmiy til va yozuv ancha qadimiy tarixga ega. Ammo bu tarix boshqa (bizgacha yetib kelgan yozma) yodgorliklariga qaraganda yetarli yoritilmagan, umuman, deyarli o'rganilgan emas. Xorazm yozma yodgorliklari haqidagi ma'lumotlar so'nggi asrlarda yuzaga chiqqan arxeologik topildiqlar orqali aniqlandi. Qadimgi xorazmiy yozuv yodgorliklari haqidagi manbalar, asosan 1930-1940 yillardan boshlab yuzaga chiqib boshladi. Bu borada S.P.Tolstov, V.A.Livshis va M.Isoqov kabi olimlarning xizmatlari kattadir. Mahaliy oromey alifbosidan foydalangan holda, undagi yozuvni qadimgi Xorazm tiliga moslab kashf etilgan yangi alifbo- ilk xorazmiy yozuvining nusxalarining namunasi miloddan avvalgi IV asrning oxiri III asr boshlariga oid yodgorlik Qo'yqirilganqal'a xarobalaridan topilgan. Xorazmiy yozuvining keyingi topilgan nusxalari milodiy asrlarga xosdir. Milodiy davrlardagi qadimgi xorazm yozuvlarini arxeologik topilmalar asosida akademik A.Asqarov I-VIII asrga tegish deb belgilaydi¹.

S.P.Tolstov 1930 yillarda miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar chegarisiga xos "Kaltaminor madaniyati" nomi bilan atalgan 18 manzilgohlardan arxeologik topilmalarni kashf etdi. U o'zining 1930-1940 yillarda olib borgan tadqiqotlarining natijalari sifatida Xorazmning qadimiy madaniyati va tarixiga oid qator asarlarini chop ettirdi. Ushbu kitoblarida Tuproq qa'la, To'qqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Mazdahkan madaniyatiga xos va ular tarixiga oid qator muhim ma'lumotlarni berdi. Ushbu joylardan topilgan bitik namunalarida aks etgan yodgorliklar asosida xorazmiy yozuvlarining alifbo shaklini aniqlab berishga muvaffaq bo'lindi. Ayniqsa, Qo'yqirilganqal'adan miloddan avvalgi III asrlarga xos qadimgi madaniyatimiz obidalaridagi: san'at asarlari, hujjatlar, muhr va tangalar, uy-ro'zg'or buyumlaridagi bitiklar topilishi xorazmiy yozuvining o'tmish tarixini yoritadi². Shu kabi o'tmish yozma manbalarni sinchiklab o'rganilsa qadimgi xorazm tiliga doir ma'lumotlarga ham ega bo'lishimiz mumkin.

Chunonchi, Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamat-ul adab" lug'atining ba'zi nusxalarida arabcha-forscha-turkcha-mo'g'ulcha so'zlar bilan birlikda qadimiy xorazm tili matnlari tarjimalari ham berilgan. Lug'atning qadimgi xorazmiy tilidagi so'zlik kiritilgan (5010

¹ . Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 188-189-bb.

² . Tolstov S.P. Drevniy Xorazm. –M.:1948.; Drevniy dal'tam Oksa i Yaksarta. –M.: 1962; Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. -T.: Fan, 1964.

raqami bilan Yusuf og'a kutubxonasida saqlanayotgan) nusxalaridan biri fanda **Ko'niya nusxasi** deb yuritiladi. Unda arabcha so'zlar qadimgi xorazm tilidagi tarjimasi bilan keltirilgan. Lekin xorazmcha (til saqlangan holda) matn arab yozuvida berilgan. Shuningdek, 7429 raqami bilan Angliyaning Britaniya muzeyida saqlanayotgan (1353 yili ko'chirilgan) nusxasida ham arabcha-forscha-turkiycha bilan birlikda qadimgi xorazmcha so'zlik ham kiritilgan¹. Jumladan, qadimgi xorazm tili sohasida tadqiqotlar olib borgan olim K.Abdrimov qadimiy xorazm yozuvi va tiliga doir, xususan, 1400 ta astronomik atamalarni aniqlab, ularning sanasini miloddan avvalgi 1293 yilga xos deb belgilagan.² V.A.Livshisning ham xorazm arxeologik topildiqlardagi yozuvlarni o'qilishidagi hissi katta bo'ldi³.

I.Isoqov xorazmshunos olimlarning tadqiqotlarini davom ettirdi. Olimning aytishicha, xorazmshunoslikka oid tadqiqotlar hali yetarli emas, bu yo'nalish endigina quloq yoymoqda. Olim xorazm yozuvi yodgorliklaridan anchasini aniqlagan. Uning 1992-1994 yillarda chop ettirgan maqolalarida xorazm yozuvi va uning alifbosi bo'yicha muhim ma'lumotlar havola qilindi⁴. Afsuski, xorazmiy yozuv yodgorliklari matnlari (O'rxun-Enasoy bitiklari kabi) to'liq o'qilib, hatto matnlaridan namunalar ham chop etilmagan. Hozircha xorazmiy yozuv yodgorliklari haqida faqat umumiy ma'lumotlarga ega egamiz, xolos. Shuning uchun hozircha uning til qurilishi haqida aniq yoki ishonchli fikr aytish qiyin.

Tarixiy manbalarda Xorazm qabilasining tili Sharqiy Eron hududidagi qabilalar tilining guruhiga kiradi, deyilgan. Ammo bundan xorazmliklar tili fors tili guruhiga kiradi, degan xulosa chiqmasligi kerak, albatta. Chunki Eron davlati xududlarida (forsiy til qabilasi hukmronligi- axmoniylargacha) o'ziga xos mustaqil tilga ega bo'lgan (bobil, oromey, elamtu,⁵ xorazmiy, mitaniy, xurrit⁶ va qisman sug'd, sak, kushon, baqtar-munjan⁷ kabi) bir qancha qabilalar podsholiklari mavjud bo'lgan. Ularning tili, jumladan, u davrdagi Xorazm tilining fonetik, grammatik tuzilishi va leksikasi jihatdan ahmoniy (forsiy) tildan o'ziga xosligi bilan ajralib turganligi fanda ma'lum.

¹ . Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi.-T.: TDSHI, 2006, 29-31-bb. Abdrimov K. Drevnexorezmiyskaya kultkra i akademiya mamui, 34-b.

² . Abdrimov K. Drevnexorezmiyskaya kultkra i akademiya mamui, 34-b.

³ . O'zbekiston tarixi va madaniyati.-T.: O'qituvchi, 1992., 25-b.

⁴ . Isoqov M. Qadimiy xorazmiy yozuvi.-T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1992-1994 .

⁵ . Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-k., 44-b.

⁶ . Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 107-b.

⁷ . Isabek B. Shanyuy unvoni haqida.-T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 993.16 aprel

I.Jabborovning yozishicha, sug'd tilidan oldinroq oromey tipidagi o'ziga xos alfavitga ega bo'lgan xorazm tili yozuvlari (asli parfiya yozuviga yaqin alifbodan) paydo bo'lgan. Qo'yqirilganqal'a va Tuproqqal'a xrobalaridan topilgan namunalar va boshqa manbalar bu tilning ham keng hududga tarqalganligidan hamda bir necha shevalardan iborat ekanligidan xabar beradi. Xorazm tilining fonetik, grammatik tuzilishi va leksikasiga qaraganda, u, ayniqsa, sharqiy eroniy tillar orasida ajralib turgan. U o'ziga xoslikka ega bo'lib, qadimgi sug'd va osetin, sak, afg'on, pomir tillari oralig'idagi mustaqil til bo'lgan. Bizning sak-massaget qabilalari orasidan yuzaga kelgan "Avesto"dagi turlar (Turon)-oriylari tiliga ham yaqin turgan.

Umuman, xorazmiy qabilalari ancha madaniylashgan va har jihatdan qudratli bo'lganlar. Qadimgi Eron dalatining sharqiy hududlarida forslar birlashmada yashagan hozirgi o'zbek, turkman va boshqa turkiy xalqlarning avlodlarining bir qismi, jumladan, tojiklarning avlodlari ham xorazmiy, skif-sak-massaget tillarida so'zlashgan. Boshqacha qilib aytganda, bu hududlarda (qadimiy sharqiy Eron davlatida) yashagan skif-sak-massagetlar turkiy tilda ham gaplashganlar¹. U yerda yashagan qabilalar orasida turkiy o'g'uz qavmlari ham bo'lgan.

Bizningcha, o'g'uz qabilalaridan bir qismi qadimgi Eron hududining sharqiy qismida ahmoniylar sulolasigacha ham forsiy qabilalari kabi tub aholi sifatida xorazmiylar bilan yonma-yon yashashgan. O'sha davrlardagi Xorazmiy qabilalaridan ham ba'zilarining tili o'g'uz tiliga genetik jihatdan yaqin yoki urug'dosh bo'lgan va o'g'uzlar bilan aralash yashab qo'shilib ketishgan. Aniqrog'i, xorazmiylarning avlodlari ko'p lahjali bo'lib, ulardan ba'zilar o'g'uz lahjasida gaplashgan, ozarbayjon, turk-turkman, o'zbek kabi turkiy elatlarga genetik jihatdan qarindosh bo'lishgan. Shuning uchun ham keyinchalik xorazmiylar qardosh turkiy-o'g'uz tiliga ko'chib o'g'uzlashib ketishgan.

Qadimgi sug'd va xorazm tillari XI-XII asrlargacha saqlanib, so'ng turkiy tillar ta'sirida iste'moldan chiqqan va qisman yangi tillarga singib ketgan. Aniqrog'i, mo'g'ul istilosidan so'ng (XIII-XIV asrlarda) qadimgi Xorazm tili mutlaqo yo'qolib, turkiy-o'g'uz shevasiga singib ketgan. Markaziy Osiyodagi mahalliy qabilalar orasida juda qadimdan apasiak va augasiy nomli turkiy elatlar xududning tub aholisidan sanalgan. Augasiylar keyinchalik "o'g'uz" nomi bilan turkiy tillar orasida mashhur bo'lishgan². Bizningcha, augasiylarning tili qadimgi

¹. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi, 59-60-bb.

². Jabborov I. Ko'satilgan asar, 14,70,76, 258-bb.

usmonli turk, gagauz, ozor, turkman, xorazm va boshka o'g'uz tillarning ildizi bo'lishi mumkin.

Ushbu ko'hna xorazm tili sug'd tillari kabi ba'zi bir mintaqalarda milodiy davrlarda ham foydalanilganligi haqida fikrlar bor. Masalan, xorazmshohlar va sug'daklar-turklashgan sug'd qavmlari orasida bu tillardan zaruriy ehtiyojlarini qondirish maqsadida IX-XI asrlarda ham qo'llanilgan.¹ Umuman, qadimgi Xorazmda yashagan qabilalar ancha madaniylashgan va har jihatdan qudratli bo'lganlar.

Ilk qabilalar va ularning uyushmasi(podshohligi) dan ancha qadimgisi xorazm qabilasi va uning "Katta Xorazm dalati" hisoblanadi. Tarixiy manbalarda bu podshohlikni eng qadimgi quldorlik davlatlari qatorida tilga olinadi. Lekin Gresiya va Rim kabi davlatlarda qulchilik munosabatlari ijtimoiy taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan va ijtimoiy turmush tarzi to'la shaklda belgilangan bo'lsa, Xorazmda (umuman, Markaziy Osiyoda) uning aksini ko'ramiz. Bu yerda qulchilik ma'lum tarzda mavjud bo'lgan bo'lsa-da, lekin jamoa mavqeyi katta hisoblanganligidan u quldorlik taraqqiyotning yuqori darajasiga ko'tarila olmagan.

Quldorlik Markaziy Osiyo sharoitida nisbiy xarakterga ega bo'lgan. Chunki bu mintaqada quldorlik tuzumi va quldorlik davlati tom ma'noda sodir bo'lmagan. Bunga mehnatning ko'rinishi (dehqonchilik, bog'dorchilik, baliqchilik, chorvochilik kabi iqtisodiy sharoitlar) qul mehnatining ustunroq mavqeyida bo'lishini ta'minlagan. Chunonchi, Markaziy Osiyoda qul ish jarayonida quldor uchun qancha ko'p daromad yetishtirsa, oladigan mehnat haqi, foydasi ko'paygan. Misr, Gresiya, Vaviloniya kabi davlatlarda esa qul ishlasa-ishlamasa quldor (qul egasi)ning beradigan bir burda noni o'zgarmas nasiba bo'lgan. Ko'rinadiki, Markaziy Osiyodagi quldorlik tuzumi sinfiy xarakter darajasida rivojlanmagan ekan.

Ma'lumki, kuldorlik tuzumi kishilik jamiyatida insonni inson tomonidan ishlashga majbur etilishi (ekspluatasiya qilinishi)ga asoslangan birinchi sinfiy jamiyatdir. Bu ikki toifadagi (ishlatuvchi va ishlashga majbur bo'luvchi, yoki quldorlar va qullar) insonlar qarama-qarshi sinflar bo'lib, ular o'rtasidagi doimiy kurash kishilik jamiyati tarixini harakatga keltiruvchi kuch sanalgan. Eng qadimgi quldorlik

¹ . Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk.-T.: Fan, 1-t.1960. 66,437-bb.; Abdurahmonov G', Rustamov A.Qadimgi turkiy til.-T.: O'qituvchi,1982. 118-b.76-izoh; Klyashtorniy S.G. Drevnetyurkskiye runicheskiye pamyatniki kak istochnik po istorii Sredney Azii.-M.: Nauka, 1964. S.18-98.; Yusupov E.Yu, Bulgakov P.T.. Geniy pereshagnuvshiy veka.-T.: Fan, 1983 -s.3.

davlatlari miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda vujudga kelgan. Chunonchi, quldorlik tuzumi ilk bor Misr va Mesopotomiya (Dajla va Frot daryolari oralig'i) davlatlarda yuzaga kelgan, boshqa hududlarda esa ancha keyin, ya'ni VIII-III asrlarda paydo bo'lgan va rivojlangan.

Qul savdosi Markaziy Osiyoda, jumladan, Xorazm hududlarida ham XX asr boshlarigacha mavjud bo'lgan. Xuddi shu manzara badiiy tarzda taniqli yozuvchi S. Ayniyning "Qullar" nomli asarida aks etgan. Xullas, Markaziy Osiyo xalqlarining ajdodlari (yozma tarixiy manbalar, badiiy adabiyot ilk namunalari—xalq og'zaki ijodiyoti (folklor materiallari), tilshunoslik va toponimik nomlar, qadimgi bitiklar arxeologiyaga oid topilmalar kabi ashyoviy dalil va ma'lumotlar asosida aniq va ishonch bilan aytish lozimki) miloddan avvalgi bir minginchi yillikda skif, sak, massaget, dah(a), sarmat, xorazm, sug'd, o'g'uz, turk kabi urug' va qabilalar ma'lum darajada uyushib yashashgan va ularning o'zlariga xos birlashmalari hamda yashash hududlari, til va urf-odatlar ham mavjud bo'lgan. Milodiy asrimizning boshlarida ular yashagan o'lkalar, shakllangan ilk davlatlar nomi bilan atala boshlangan. Chunonchi, Xorazm (Amudaryoni quyi oqimidagi shimoliy yerlar, Murg'ob vohasi Parfiya xududlari) aholisi-**xorazmliklar**;

Baqtriya (Surxondaryo va Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari) aholisi-**baqtryaliklar**; Sug'diyona (Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo hududlari)dagilar-**sug'diyonaliklar**; Choch (Toshkent) vohasi-**chochliklar**; Parikana (Farg'ona) vodiysi-**parikanaliklar** va boshqa hududlardagi aholi ham shu tarzda yashash yeridagi davlatlar nomi bilan yuritiladigan bo'lgan.

Markaziy Osiyoda mahalliy hududlariga I ming yillikning o'rtalarida ketma-ket ko'chib kela boshlagan xunlar, xionitlar, eftalit va boshqa turkiy elatlarning ko'plab kelishi, azaldan yarim turg'un holda(tub mahalliy aholi sifatida) yashab kelayotgan turkiy qabilalar bilan aralashib ketishi natijasida turkiy tilning mavqeyi yanada oshgan, ko'pgina qabilalar-elatlar turklashgan. Bu holatning yuzaga kelishida Orol bo'yi hamda ikki daryo (Amu va Sir) mintaqasida azaldan tub aholi sifatida yashab kelayotgan turkiy tilli elatlarning ham ta'siri bo'lgan. Chunonchi, Movarounnahr hududlarida aborigen (tub) aholi orasida apasiak, atasiy, augasiy nomli qadimiy turk elatlari bo'lgan. Bu elatlarning yuqorida qayd etilgan qabilalar orasida ko'chmanchi urug'lari ham aralashgan, chunonchi, Strabonning yozishicha, massaget

va saklarning birlashmalariga atasiy va xorazmiylar ham kirgan¹. Rus solnomalarida ularni pechenek (pachanak-bajanak²) lar yoki ayrim tadqiqotchilar ishida qadimdan “o’g’uz” nomi bilan yuritilgan turklar deb qaralgan (I.Jabborov). Bu qabilaning tili keyinchalik o’zbek tilining shakllanishida asosiy tarkib (komponent) lardan biri bo’lgan.

Xullas, xorazmiylar keyinchalik o’z tillari bilan birlikda ana shu qardosh qabilalar tilidan foydalanganlar va asta-sekin bu tilni asosiy muomala tili sifatida qabul qilganlar. Shuning uchun eng qadimgi xorazmiylarning o’tmishi turkiy qabilalar bilan bog’liqligini ham inkor etib bo’lmaydi. Xorazmiylarning ahmoniylar bilan raqobati va turkiy elatlar bilan yaqinlashuvi milddan avvalgi IV asrlardan yanada kuchaya borgan. Bu asrdan boshlab Eron Ahmoniylar davlatining rasmiy qaramligidan to’liq qutilgan. To’g’ri, miloddan avvalgi VI asr o’rtalariga kelib, Ahmoniylar kuchayib ketishdi. Ular avval viloyatlardagi forsiyzabon qabilalar ustidan hukmronlikni qo’lga kiritishgach, Midiyani yengib, Eronda bo’tunlay hukmronlik qila boshlagan. Xuddi shu davrlarda Ahmoniylar bilan Xorazmiylar o’rtasida o’lkaning boy viloyatlari uchun kurash boshlanganligi tabiiy.

Ahmoniylar Sug’diyona, Parfiya, Ariya kabi podsholiklarga tegishli yerlarni zabt etishga kirishayotgan bir paytda Xorazm davlati bu hududlarda o’z ta’sirini saqlab qolish maqsadida ular uchun tobelik ulponini (300 talant soliqni) to’lashni aytib, rasman Eron davlatining ustunligini tan olgan. Shu tarzda ahmoniylarga (“Bcheston-Zagros qoyalaridagi yozuv ro’yxatiga ko’ra) Sug’diyona, Parfiya, Ariya kabi tobe mamlakatlar qatoridan joy olgan. Aslida Xorazm o’z mustaqilligini yo’qotmagan edi. Shuning uchun ham Doroning qabrtoshi bitiklarida qayd etilgan tobe mamlakatlar ro’yxatida Xorazmning nomi kiritilmagan³. Beruniyning yozishicha, forslar xorazm tiliga tushunishmagan va yozuvini ham o’qiy olmagan. Shuning uchun ular eroniy qabilalardan o’z fikrlarini maxfiy saqlashda yoki o’zaro yashirin fikr bildirishda bu yozuvni qo’llaganlar. Hatto, ular milodiy IX-XI asrlarda ham ko’hna xorazm yozuvi va tilidan foydalanganlar⁴.

Mintaqaga yunonlik Aleksandr Makedonskiy bostirib kelganda ham Xorazm o’z mustaqilligini saqlab qola olgan edi. Bunga

¹. Boynazarov F. Antik dunyo.-T.: Mehnat, 1989, 133-b. (Strabon. Geografiya . Kn.VII.-M.: Tipografiya Midinsovoy, 1879., -s.522.).

². Mahmud Koshg’ariy. Devonu lug’otit turk (Bajanak Runga yaqin turuvchi turkiy qabila).-T.: Fan,1963.1-tom, 450-b.

³. Azamat Ziyov. O’zbek davlatchiligi tarixi, 28-b.

⁴. Yusupov E.Yu., Bulgakov P.T. Geniy pereshagnuvshiy veka, -s.3.

Xorazmning o'sha davrlardagi donishmand va tadbirkor hukmdori Farazman tufayli erishilgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, vaziyatni to'g'ri baholay olgan tadbirkor hukmron Farazman katta sovg'alari bilan 1500 otliq askar qo'riqchiligida Aleksandr oldiga keladi. U Samarqandda Aleksandr bilan uchrashuvda o'zaro harbiy ittifoq tuzishga erishadi. Xorazm hukmdori Aleksandrqa Qora dengiz tomon yurish qilish rejasini taklif etadi, shu bilan uning ham harbiy rejasini (Spitamen qo'zg'olonini bostirish va kelgusi harbiy yurishi Hind zaminiga qaratilishini) bilib oladi. Xorazmning bu davrlardagi tarixi haqida taniqli o'zbek tarixnavisi Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixi" asarida maxsus fikr bildirilgan¹.

Tarixnavislarning fikricha, jumladan, Azamat Ziyoning yozishicha, Farazmanning Aleksandr bilan ittifoqi strategiya nuqtai nazardan amalga oshirilgan siyosiy qadam edi. Shu tariqa tadbirkor Farazman mintaqada yagona barqaror makon sifatida Xorazm dahlsizligini saqlab qoladi. Zero, Xorazm bu davrda janub va sharqdagi ta'sirini yo'qotgan bo'lsa-da, shimoliy-g'arbda Qora dengiz-Azov sohiligacha bo'lgan yerlarda o'z mavqeyini saqlab qoldi. Aleksandr vafotidan (mil.avv. 323) keyin Salavkiylar saltanati yuzaga kelganda ham Xorazm davlati o'z dahlsizligini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Taxminan miloddan avvalgi 170 yillar Sug'diyona va Shosh (Toshkent) ham Xorazm doirasiga tortilgan. Miloddan avvalgi II asrlarda o'lkamizda bo'lgan xitoylik sayyoh Chjan Syan Xorazm davlatining hukronligi chegarasi haqida aniq ma'lumotlarni qayd etgan. Chunonchi, sharqda Qang'a (Farg'ona), janubda Parfiya va Baqtrya bilan chegaradosh, g'arbiy sarhadlari esa Buxoro va Xorazm vohalarini o'z ichiga olgan. Miloddan avvalgi I asrda yashagan xitoylik tarixchilar Xorazmga Orol va Azov dengizlari oralig'idagi alanlar(hozirgi osetinlarning ajdodlari) va Uraloldi o'rmon qabilalari ma'lum darajada qaram bo'lganliklarini yozib qoldirgan. Umuman, miloddan avvalgi so'nggi asrlarda Xorazmdagi hukmron kuch Qora dengizdan Farg'onagacha bo'lgan ulkan hududda o'z siyosatlarini yurgizib kelgan qudrat egasi hisoblangan. Bu davrlarda Xorazm davlatida pul tizimi joriy qilingan, tanga pullar zarb etilgan, savdo-sotiq ishlari gurkirab rivojlangan, sun'iy sug'orish sohasidagi qadimiy tajribalar yanada rivojlantirilgan. Natijada dehqonchilik, hunarmandchilik sohalari yanada o'sgan, yangi shaharlar va qo'rg'on, qal'alar qad ko'tarilgan. Zamonasining katta va kuchli lashkariga ega bo'lgan. Xorazm lashkari 120 mingtacha bo'lganligi

¹ . Azamat Ziyon. O'zbek davlatchiligi tarixi (Xorazm), 27-33-bb.

haqida tarixiy faktlar bor. Ularning harbiy taktikasi va qurol-aslahalari, umuman, jang qilish mahorati mashhur bo'lgan, ayniqsa, og'ir otliq saflari bilan jang qilish mahoratidan Sharqiy Yevropa, Xitoy, Oltoy, Mo'g'uliston kabi mamlakatlar foydalanganlar¹. Bu kabi tarixiy tafsilotlar haqida grek-yunon manbalarining barchasida fikr bildirilgan.

Xullas, qadimgi xorazmiylar haqidagi muhim ma'lumotlarni grek-yunon, xitoy, fors, arab kabi bir qancha xorijiy mamlakatlar, jumladan, qadimgi turkiy yozma manbalarda ham ko'plab kuzatiladi. Afsuski, bu manbalarning o'rganilishi hali poyoniga yetgan emas. Hatto, "Avesto" va undagi ma'lumotlar ham to'liq o'rganilgan emas. Unda shunday dalillar borki, ularni sinchiklab, chuqurroq tahlil etilsa, ularning tarixi miloddan avvalgi X-IX asrlar davrlarini eslatadi². Shunga qaramay, qayd etilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, miloddan avval xorazmiylar va ularning davlatchilik tarixi mavjud bo'lgan. Bu tarix hozirgi Markaziy Osiyo, xususan, turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining ham ilk ajdodlarining tarixi sanaladi.

SHUMERLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)

Tarixiy manbalardan ma'lumki, miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda ajdodlarimiz qadimgi tarix sahifalarida salmoqli o'rin olgan Jazira (Mesopotamiya-Dajla va Fort daryolari oralig'i), Misr, Shumer (janubiy Mesopotamiya)³, Eron axmoniylari, Grek-yunon, Xitoy, Hindiston kabi mashhur davlatlar bilan aloqalari bo'lgan⁴. Hatto, miloddan avvalgi mashhur Midiya davlatining barpo bo'lishida avlodlarimizdan saklarning ham ma'lum darajada hissasi bo'lganligi aytiladi⁵.

I.D'yakonov va O'ljas Sulaymonovlarning shumer va turkiy tillarning qadimiy aloqasini qisman o'rganish jarayonida 400 ga yaqin so'zlarning har ikkala til leksikasida mushtarak holda mavjudligini qayd etganlar. Shu asosda har ikkala xalqning va ular tilining qadimiy

¹. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi, 31-32-b.; Vayberg B.I. Moneti drevnego Xorezma.T.:1977, -s. 12.; Tolstov S.P.Drevniy Xorezm, s.173-175.; Appian.Mitridatovi voyni. Siriyskiye dela.VDI.1946, № 4, s. 55.

². Boynazarov F.O'rta Osiyoning antik davri, 229-230-bb.; Kor-og'li. Uzbekskaia literatura. - M.: Izd-vo, "Visshaya shkola", 1973. s. 5-6.

³. Oppenxeym A. Drevnyaya Mesopotomiya.- M.:1990.Str.52.; Sulaymanov O. Az i Ya.-Alma-Ata.: "Jalim", 1990, 518-560-bb.

⁴. Abushiy X.A. Ko'rsatilgan asar, 49-b.;Azamat Ziyo.O'zbek davlatchiligi tarixi,26,48-56-bb.

⁵. Istoriya Uzbekistana v istochnikax..(Sostavitel B.V.Lunin), -T.: 1984.; Azamat Ziyo. Ko'rsatilgan asar, 26-b.

aloqasini yoritishga harakat qilganlar. Ularning fikricha, bu elatlar etnik jihatdan bir-biridan farq qilsalar-da, qadimdan ular tilida madaniy-ma'naviy jihatdan yaqin aloqalar bo'lgan. Hatto, shumer so'zini turkiy tilga xos deb qayd etadilar. Masalan, **“shumer” sub-yer yoki suv-yer, ya'ni suvli yer** degan ma'noni ifodalagan¹. Chunonchi, milodiy davrlardagi VII-IX asrlarga xos yozma yodgorliklari (O'rxun-Enasoy turkiy tildagi bitiklari)da **m, b, v** tovushlari almashinib qo'llanilish holati mavjud: **ban-man, buni-muni, su(p)b-suv** kabi holatlar uchraydi. Bunday fonetik xususiyatlar turkiy tillarda qadimdan mavjudligini XI asr olimi Mahmud Koshg'ariy ham “Devonu lug'otit turk” asarida ta'kidlagan.

Hatto, ba'zi manbalarda shumerlar turkiy xalqlar avlodlari sifatida talqin qilinadi. Tohir Qahhorning “Hur Turkiston uchun” kitobida yozilishicha, shumerlar asli Turkistonning yuksak Tangritog' vohasidandir. (Tanritog'da bir vodiy Shumar-Sumar nomi bilan ataladi)². Turkiyalik olim F.Bo'zqurt qadimiy shumer va akkad tillarini ham o'rol-oltoy tillar oilasiga kiritgan. Oltoy tillariga turkiy, mo'g'ul, manjur, tungus, jumladan, koreys va yapon tillari ham kiritilgan. Oltoy so'zi turk-mo'g'ulcha “oltin” ma'nosidagi so'z va “Sibir” esa “sabir”(boshi ochiq, poyonsiz) ma'nosidagi so'z bilan bog'liq deb qaraladi. Mojar turkshunosi Yu.Nemet sabirlarni turk deb hisoblagan³. A.Asqarovning yozishicha, Sibirdan topilgan arxeologik, antropologik komplekslar va ularning qadimgi xitoy yozma manbalari bilan qiyosiy tahlilidan ma'lum bo'lishicha, janubiy Sibir hududlari Rossiya ishbilarmonlari tomonidan o'zlashtira boshlaganiga qadar bu zamin turkiy etnosga tegishli ekanligi aniqlangan. Janubiy Sibir aholisi esa qadimgi va o'rta asrlar davrida turkiyda so'zlashganlar⁴.

S.P. Tolstov “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” nomli tadqiqotida “tangri, oy, tog', tosh, uch, o'n” kabi so'zlar shumer va turkiy tillarda fonetik (aytilishi va ma'no) tomondan farqlanmaganligini qayd etgan⁵. Demak, olib borilgan tadqiqotlardan seziladiki, shumerlar bilan turkiy elatlarning qadimiy aloqalari bo'lgan. Shuning uchun ular tilidagi ko'pgina tovushlar va leksemalar turkiy tilda deyarli o'zgarishsiz

¹. Sulaymanov O. Az i Ya, -s. 518-560.

². Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun.-T.: Cho'lpon, 1994, 72-b.

³. Bo'zqurt F. Turklarning tili.-Istambul.: 1992. (Bu asar haqida Abdusuhur Abdusazning “Turkiy xalqlar tillari va tarixi” maqolasida keng fikr bildirilgan. Qarang:-T.: “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 1993, 8 son, 19 fevral).

⁴. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 205-b.

⁵. Abdullayev O. Haqiqat ko'zgusi. -T.: “Jahon adabiyoti” jurnali, 1-son, 1999. 31-b.

parallel qo'llanganligi kuzatilgan¹. Bunday aloqalar boshqa xalqlar tillari bilan ham bo'lganligini kuzatish mumkin. Masalan, S.M.Musayev o'zining "Turkiy tillar leksikologiyasi" nomli asarida turkiy tillar bundan 4000 yil avval dravid tillari bilan o'zaro aloqasi borligini, bir-biriga ta'sir etganligini qiyoslash asosida ko'rsatib bergan². Bunday fikrlarni boshqa ishlarda ham uchratish mumkin.

Xullas, bu kabi ma'lumotlar turkiy xalqlarning ham miloddan avval turli nomlar bilan atalgan ajdodlari va ularning o'ziga xos tarixi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Xususan, qadimgi yunon, arab, xitoy va boshqa tarixiy manbalarida Markaziy Osiyo (qadimgi Turkiston) xalqlarning ilk ajdodlari har xil nomlar bilan atalgan. Jumladan, ajdodlarimizning bir qismi xorasmiylar nomi bilan atalgan bo'lsa, yana bir guruhi qadimgi shumer va sug'd qabilalari bilan bevosita aloqasi bo'lgan, ular aralash holda yashaganlar, shu bois ba'zi ajdodlarimiz xorasmiy, shumerlar yoki sug'dlar nomi bilan ham atalib kelinganlar.

SUG'DLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)

Tarixiy manbalarda yozilishicha sug'dlar O'rta Osiyoda istiqomat qiluvchi eng qadimgi elatlardan sanaladi. Hatto, eng qadimgi tarixiy manbalarda O'rta Osiyodagi katta hudud, garchi bu hududda juda qo'p nufuzli qabilalar yashagan bo'lsa-da, sug'dlar nomi bilan atalgan-So'g'diyona viloyati tilga olinadi. Akademik A.Asqarovning yozishicha, Sug'diyona O'rta Osiyoning Zarafshon va Qashqadaryo havzalarida tarkib topgan tarixiy-madaniy tamaddun (sivilizasiya) markazlaridan biri bo'lib, tarixiy manbalarda mil.avv. I ming yillikning birinchi yarimida tilga olinadi. Ilk temir davrida (miloddan avvalgi IX-IV asrlar davomida) Sug'diyona madaniy xo'jalik markazi tashkil topgan. Bu markazning uch o'chog'i mavjud bo'lib, ularning shakllanishi Sug'diyonaning barcha hududlarida bir vaqtda, bir xil rivojlanishda bo'lmagan. Bu jarayon janubiy Sug'dda mil.avv. IX-IV asrlarda yuz bergan bo'lsa, u markaz Sug'dda mil.avv. VII-IV asrlarda sodir bo'ldi. G'arbiy Sug'd, ya'ni Buxoro viloyatida esa bu madaniyat mil.avv. VI-IV asrlarda yuzaga keldi. Sug'diyona aholisi til va irqiy jihatdan har xildir. Sug'diyona qanchalik yuksakliklarga erishishiga qaramay, mamlakatda ilk o'rta asrlar davomida yagona podsholik (markaziy hokimiyat)

¹. Sulaymanov O. O. Az i Ya, 518-519, 542-544-bb. .

². Abdullayev O. Haqiqat ko'zgusi, 31-b.

bo'lmagan. Bu hududlarda mayda-mayda (mustaqil yoki qaram hokimliklar shaklidagi) podsholiklar mavjud edi. Shuning uchun ham Sug'diyona ko'p, xususan sharqiy qismlari miloddan avval Ahmoniyilar davlati, so'ng barcha hududi Grek-yunon saltanati qo'l ostida bo'lgan. VI asrda eftaliylar tarkibida, 563 yilda esa Turk hoqonligi qo'l ostiga o'tgan. VIII asrdan boshlab arab istilochilari hukmronligiga o'tdi.

Aslida qadimgi Sug'diyona hozirgi O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, uning hududida ilk o'rta asrlarda uchta mustaqil tarixan tarkib topgan yirik viloyat hokimliklari shakllangan edi. Panjikentdan to Karmanagacha (hozirgi Navoiy shahri yaqiniga) bo'lgan tumanlar Markaziy Sug'dni tashkil etgan. Uning bosh shahri-markazi Samarqand hisoblangan. Zarafshon vohasining Karmanadan g'arbda joylashgan tumanlari G'arbiy Sug'dni tashkil etib, bosh shahri Buxoro sanalgan. Qashqadaryo havzasida tarkib topgan tumanlar Janubiy Sug'd yerlarini tashkil etgan. Janubiy Sug'dning yuqori Qashqadaryo tumanlari-Kesh viloyati, quyi Qashqadaryo tumanlari esa Naxshab viloyati deb yuritilgan. Viloyat hokimliklarining hukmdori (podsholari) Buxoro zonasida xudodlar, Samarqand va Qashqadaryoda ixshidlar deb atalgan.

Umuman, Sug'diyona va sug'dlar haqida A.Asqarov, M.Isoqov, A.Otaxo'jayevlarning bergan ma'lumotlari xarakterlidir¹. Ularning yozishlaricha sug'dlar qadimiy Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand, Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi Panj (Panjikent) hududlarida keng tarqalishgan. Bu hududlarda yashovchi aholi orasida ularning mavqiyelari ancha yuqori turgan. Shuning uchun ular bilan yonma-yon yashagan qabila-urug'lar ham sug'dlar nomi bilan yuritilgan. Hatto bu o'lkalarda ularning miloddan avvalgi XII-XI asrlarda qabilalar uyushma (podsholik)lari ham bo'lgan. Bu birlashma zaminida o'sha davrlarda ulkan migrasiya jarayoni ro'y bergan. Bronza davrining so'nggi bosqichidagi o'lkamiz madaniyatining qorishiqqligini arxeologik yodgorliklarida kuzatish mumkin.

Sug'dlar va ularning qadimiy yashash yerlari haqida XI asr olimi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham muhim ma'lumotlar bor. Koshg'ariy devonida yozilishicha, sug'dlar qadimda Uyg'uristonda Balasog'un hududida ham yashaganlar. Ularning kelib

¹ . Isoqov M., Otaxo'jayev A. Sug'dlarning buddaviy falsafiy-axloqiy yozma meroslari (Qarang: Qadimgi yozma yodgorliklar.-T.: "Yozuvchi", 2000, 33-38-bb.); Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 30-34, 121, 130, 192, 219-bb.

chiqishi asli Samarqand va Buxoro o'rtasidagi sug'dlardan bo'lganlar. Bular so'nggi davrlarda turklashib ketgan qavmlardir¹.

Sug'dlarning xorazmiylar kabi o'zlariga xos mustaqil tili, yozuvi mavjud bo'lgan. Shu jihatdan eronzabon va turkiy tillardan farq qilgan. Bu elat xorazmiylar kabi milodiy X-XI asrlardayoq, turkiy va forsiy xalqlari tarkibiga singib ketishi natijasida o'zlarining milliy tillarini yo'qotganlar. Bu fikr Mahmud Koshg'ariy devonida ham o'z tasdig'ini topgan. Masalan, Koshg'ariy devonida yozilishicha, Balasog'un shahrida yashagan sug'dlar sug'dak nomi bilan atalib, ular ham turkcha, ham sug'dcha gaplashganlar. Keyinchalik ular turklashib ketganlar².

Qayd etish lozimki, sug'dlar Midiya va Ahmoniylar hukmronligi davrlarida nufuzli qabilalardan sanalgan. Ular o'zlarining mustaqil birlashmalariga ega bo'lishi bu fikrni tasdiqlaydi. Sug'dlar va ularning birlashmalari haqida miloddan avvalgi davrlardagi yozma manbalarda ham ma'lumotlar bor. Ularning shakllangan davrlari uzoq tarixga borib taqaladi. Chunonchi, qadimgi Eron-Ahmoniylar davlati hukmronligida miloddan avvalgi VI-V asrlarda "Bcheston" qoyalarda va xotira (hukmdorlardan Doro qabriga qo'yilgan qabr) toshlaridagi bitiklarda sug'dlar mamlakati ham alohida qayd etilgan.

Xususan, qadimgi grek-yunon muarrixlarining asarlarida sug'dlar va ularning birlashmalari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy yozma yodgorligi sanalgan "Avesto" kitobida Gava nomi bilan sug'dlar yashaydigan o'lka tilga olingan. Sug'dlar qadimiy Vatanimiz hududida yashagan elatlar qatorida Midiya, Ahmoniylar, Grek-yunon kabi davlatlarining bosqinchilik urushlariga qarshi turkiy qabilalar bilan birga bo'lganlar, mustaqillik uchun kurashlarda faol qatnashganlar. Ular Yunon-Baqtar, Kushon, Qang kabi davlatlari va Turk hoqonliklari davrida ham siyosiy hayotda o'z mavqelarini saqlab kelganlar. Sug'dlar siyosiy hayotda bir qator hokimliklarga o'z ta'sirini o'tkaza olishgan mashhur qabilalardan sanalgan. Ayniqsa, keyingi davrlarda (V-VIII asrlarda) ham Kesh(Qashqadaryo) va Samarqand markaziy hokimiyati atrofida o'z birlashmalari (hokimiyatlari) ni tuzganlar.

Manbalarda yozilishicha, Markaziy Osiyo orqali Xitoydan g'arbga o'tadigan savdo yo'lini bu davrlarda sug'dlar nazorat qilishgan. Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Oltoydan to Yenisey sohillariga qadar, Mo'g'uliston hududlarida hamda Shimoliy Xitoyning Shansi viloyati,

¹ . Mahmud Koshg'ariy .Devonu lug'otit turk. –T.: 1-tom. Fan, 1960, 1-tom, 437-b.

² . Mahmud Koshg'ariy , 437, 486-bb.

Dunxuan kabi qator joylarida ularning o'z karvonsaroylari va yashaydigan qishloqlari bo'lgan. Mo'g'ulistondan 1889 yilda arxeologik izlanishlar natijasi XI asrda (Mongoliyada hukmronlik qilgan uyg'ur hoqoni sharafiga qo'yilgan yodgorlikdagi) sug'd yozuvi bitigining topilishi shundan dalolat beradiki, sug'dlar bilan bu hudud hukmdori yaqin aloqada bo'lgan. Shu bois sug'd yozuvidan ham foydalanganlar. Jumladan, Xitoy bilan ham sug'dlarning madaniy va savdo aloqalari juda yaxshi tashkil etilgan. Birgina Dunxuan shahrining o'zida 3 ming Samarqandlik savdogarlari yashagan¹. Dunxuan hududida (III-IV asrlarda) ming xo'jalikdan iborat sug'd qishloqlari mavjud bo'lgan².

Sug'dlar o'lkamiz xalqlari qatori zardushtiylik, buddiy, moniy, nasroniy kabi qadimiy diniy e'tiqodda bo'lishgan va keyinchalik islom dinini ham qabul qilganlar. Bu ularning bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklaridan ham sezilib turadi.

Sug'dlarning bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarning miqdori ko'p. XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasida olib borilgan arxeologik va boshqa yo'nalishlardagi qidiruv va tadqiqot ishlari tufayli sug'd yozuv yodgorliklari topila boshladi. Ular metall buyumlarida, jumladan, tangalar va sopol parchalarda, xotira toshlari va qoyalarda, yog'och va charmlarda, to'qima matolar va qog'ozlarda bitilgan, hatto, kitob shaklidagi katta kichik yozuv matnlaridan iborat bo'lgan yozma yodgorliklardan iborat. Shu kabi ular orasida xo'jalik va yuridik, diplomatik hujjatlar, hokim va hukmdorlarning farmonlari, shaxsiy yozishmalari ham bor. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi bu yozma yodgorliklar sug'd tiliga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi.

Sug'd yozuvi miloddan avvalgi III-II asrlarda oromiy yozuvi asosida shakllangan. Alifbosi 22ta harf-belgidan iborat. Sug'd yozuvi yodgorligining **qadimiysi** sopol parchalarida va terrakota haykalchalarda uchraydi. Bu yodgorliklar **milodiy I-III asrlarga** tegishli bo'lib, qadimiy Afrosiyob shahrining xarobalaridan topilgan edi. Shu kabi sug'd yozuvi o'sha asrlarda zarb etilgan kumush tangalarda ham uchraydi. Tangalarning ilk namunasi milodiy II asrlarda yunon-baqtryanikiga o'xshatib (sug'dcha yozuvi va tilida) Sug'dda zarb etilgan. Bu tangalar milodiy V-VI asrlarda Sug'd konfederativ davlati(poytaxti Kesh) tashkil etilgan davrlargacha qo'llangan. Milodiy VII asr o'rtalarida Sug'd konfederasiyasining poytaxti Samarqandga

¹. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 192-b.

². Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-k., 95-6.

ko'chgach, bu yozuvning yanada takomillashganligini kuzatish mumkin. Bu yozuv Movarounnahr hududlarida ancha keng tarqalgan. Sug'diyona hududlaridan tashqari savdogarlar, diplomatik munosabatlar, umuman, madaniy-iqtisodiy aloqalar tufayli Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi, Yettisuvda va hozirgi Tojikiston, Afg'oniston hududlarida, hatto Xitoy, Mo'g'uliston yerlarida ham tarqalgan. Bunga yuqorida keltirilgan dalillar misol bo'la oladi.

Chunonchi, 1904 yilda Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("Osori boqiya...") asaridagi sug'd kalendaridagi atamaları qayd etilgan topilmalar til matnlari bilan bir xil ekanligi aniqlandi. Natijada bizgacha yetib kelgan ushbu topilmalar sug'dlarga tegishli ekanligi aniqlangan. Sug'd yozma yodgorliklarning aksariyati horijiy mamlakatlar (London, Berlin, Parij, Peterburg kabi markaziy shaharlar) dagi muzey va kutubxonalarda saqlanmoqda¹. Afsuski, bu kabi qadimiy ajdodlarimiz tarixi va ular qoldirgan yozma manbalarni haligacha mukammal o'rganilgan deb bo'lmaydi.

Xullas, sug'dlar Markaziy Osiyodagi eng qadimiy elatlardan biri bo'lib, xorazmiylar kabi ancha madaniylashgan ajdodlarimiz dandir. Ular Zarafshon vohasidagi turkiy tilli elatlar bilan hamisha aralash holda yashab, tashqi dushmanga qarshi birgalikda yognma-yon turib kurashib kelganlar. Hatto, ular arablar istilosi davrida ham qadimiy Turon (Turkiston o'lkasi) zaminida yashab kelgan ajdodlarimiz bilan birgalikda ozodlik, mustaqillik uchun kurashganlar, turkiy-forsiy hamyurtlari bilan bir ma'naviy dunyoqarashda bo'lganlar, o'lkaning ma'naviy, siyosiy hayotiga hamfikir bo'lib barcha sohada munosib hissa qo'shganlar. Masalan, milodiy VI asrning 80 yillarida hoqon Muqan hukmronligi davrida valiahdlikdan mahrum bo'lib yurgan alamzoda (kanizakdan tug'ilgan) turk shahzodasi Abo G'arbiy Sug'dda mahalliy (sug'd va boshqa) aholining mulkdor zodagonlardan norozi bo'lib yurgan qismi bilan qo'zg'olon ko'tarib, kichik bir turk lashkari bilan Poykent (hozirgi Buxoro yaqinida bo'lgan shahar)ni egallab, o'z davlatini o'rnatadi². Bu qo'zg'olonga turkiy va so'g'diy aholi birlikda harakat qilishgan.

Shu kabi ikkinchi bir dalilga murojaat etaylik: 1933 yilda hozirgi Tojikistonning Panjikent hududidagi Xayrobod qishlog'i yaqinida

¹ . Isoqov M., Otaxo'jayev A. Sug'dlarning buddaviy falsafiy-axloqiy yozma meroslari, 34-b.

² .Yakubovskiy A.Yu. O'zbek xalqining yuzaga kelishi haqida (K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda).-T.: Fan,1941., 6-b.; Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 232-b.

Mug'qal'a qasri xarobalaridan milodiy VIII asrning ikkinchi o'n yilligi(712-722 yy.)ga xos 89ta hujjat topilgan edi. Bu hujjatlardan 74tasi sug'd tilida yozilgan. O'sha davrlarda bu qasr Sug'd podshosiga tobe bo'lgan Panj (Panjikent) hokimi Devashtichga qarashli bo'lgan. Panj hokimi arab istilochilariga qarshi Sug'd-Choch-Farg'ona-Turk harbiy ittifoqini tuzish maqsadida, bu o'lka va mamlakat boshliqlari bilan diplomatik yozishmalar olib borgan. Arab istilochilariga qadar sug'd va unga yaqin viloyatlardagi mahalliy mulkdorlar turk xonlariga qarindosh-urug'lashib, g'arbiy turk yabg'usi xonadonlari bilan quda-anda bo'lishib ketgan edilar.710 yilda arab bosqinchilariga qarshi qat'iyatsizlik qilib, o'z joniga qasd etgan Samarqand podshosi Tarxun nomining turkcha "tarxon" unvoni bilan bog'liq ekanligiga shubha yo'q. Shu paytlarda Samarqand podshosi Tarxuning qat'iyatsizlik qilganligi uchun Devashtich o'zini Samarqand taxtining vorisi deb e'lon qiladi va ittifoqchilaridan oldinroq arab bosqinchilariga qarshilik ko'rsatishni boshlab yuboradi. Ammo arablarning qo'li baland kelib, Devashtich tog' tomonidagi o'zining Mug'qal'asiga chekinadi. Shunda o'zi bilan Panj saroyidagi barcha hujjatlarini Mug'qal'aga olib ketgan edi... Ittifoqchilardan Turk hoqoni ham 737 yilda Yetisuvda qaqshatqich zarbaga uchrab, sug'dlarga yordam bera olmaydi¹.

Ushbu ma'lumotdan ham seziladiki, sug'diy-turkiy elatlar tashqi dushmanga qarshi kurashda bir ittifoqda bo'lishgan. Yuqorida qayd etilgan sug'diy yozuvi hujjatlari va hali o'rganilishi lozim bo'lgan juda ko'p sug'd yodgorliklari tojik va o'zbek xalqlarining o'tmish tarixini yoritishda muhim o'rin egallaydi. Shu bois Sug'dlarning o'tmish tarixi va ularning yozma yodgorliklarini hozirgi turkiy va eronzabon, xususan, o'zbek va tojik xalqlariga ham tegishli deb qarash mumkin.

SAKLAR VA ULARNING BIRLASHMALARI (DAVLATLARI)

Sak qavmlari haqida grek-yunon manbalarida skiflarning tarkibiy qismlari sifatida ancha keng ma'lumotlar berilgan. Ular Makidoniya Iskandar istilosigacha Sirdaryoning quyi oqimlarida masagetlar bilan qo'shni holda yashaganlar. Keyinchalik ular Karki, Kalif, shimoliy Afg'oniston hududlariga ko'chishgan. Qadimgi xitoy manbalarida saklar Amudaryoning janubida yashagan "daxa" nomli qabila sifatida ham qayd

¹ . Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi,193, 234-bb; Muxammedov X. Iz istorii drevnix oboronitelnix sten vokrug oazisov Uzbekistana. «Stena kanpirak» drevnebuxar skogo oazisa. AKD.-T.: 1961, -s.13-37

etiladi. Yunon manbalarida ham shu tarzda uchraydi. Masalan, Strabon ularni “dax(day/dov)” nomi bilan atagan¹. Strabonning yozishicha, saklarning Yaksart(Sirdaryo) orti urug'-aymoqlarini sug'dlardan shu daryo ajratib turgan. Sak birlashmasiga asianlar, pasianlar, toxarlar, sakaravakalar ham kirgan. Demodamning yozishicha (miloddan avvalgi III asr) saklar Yaksartning chap sohilida, forslarga yaqin hududlarda yashaganlar².

“Avesto”da Qanxa, Ptolemeyda“qandar”(qang'ar), “Shohnoma”da “turlar” deb nomlangan qabila aslida saklar edi, deb yozadi A.Asqarov. Axeologlar tomonidan Turon podsholarining bosh shahri Qang'diz-hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida joylashgan Qanqa shahar xarobasi deb belgilangan. Saklarning davlatlaridan biri miloddan avvalgi II-I asrlarga oid Xitoy tarixiy manbalarida Qang' (Qanguy) deb ham atalgan³.

Tarixshunoslarning yozishicha, qadimgi Midiya yoki Ahmoniylar davlatining barpo bo'lishida saklarning ma'lum darajada hissasi bo'lgan⁴. Bu davrlarda saklarning ushbu davlatlar doirasida o'ziga xos mavqiyelari bo'lgan. Doro I davrida yozilgan “Naqshi Rustam” bitigidagi ma'lumotdan ham buni anglash mumkin. Masalan, “Naqshi Rustam” bitigida“...mening qonunimga asoslanib rivojlanayotgan: Midiya, Elam, Ar'ya, Baqtrya, Sug'diyona Xorazm,...Saka Xaumavarka, Saka Tigraxauda ...dengizdan narigi yerdagi Saklar” kabi Doroning so'zlari o'qiysiz. Ahmoniylar saklardan ma'lum darajada o'zlarining harbiy yurishlarida foydalanganlar. Lekin saklar bu davlatlar bilan ko'pincha raqobatda bo'lishgan.

Midiya-Eron davlati kuchayib, ularning mintaqasiga tahdid solayotgan paytlarda, saklar birlashmasi bosqinchilarga qarshi chiqib, ular hujumini bir necha bor qaytara olgan. Gerodotning yozishicha, Saklar birlashmalari Misr, Bobil, Baqtriya podsholiklari darajasida turgan.Chunonchi, uning ma'lumotiga ko'ra, Kir II ning harbiy yurishlarida “Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar to'siq bo'lib turgan”⁵.Tarixiy manbalarda, chunonchi, “Gerodotning zamondoshi Ktesiy (vafoti mil.avv. IV asr) keltirgan ma'lumotda Sak birlashmasining podshosi Amorg' va uning xotini Sparetra ahmoniylar

¹. Karimov Sh. , Shamsutdinov R.Vatan tarixi, 1-k., 37-b.

² . Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 38-b.

³ . Asqarov A. Ko'satilgan asar, 38-39, 166-bb.

⁴ . Istoriya Uzbekistana v istochnikax,-s. 49.

⁵ . Geradot. Istoriya v devyati knigax. Kniga VII.-Jl. :1972, -s. 333 (Asqarov A. Ko'satilgan asar, 139-b.).

davlatining mashhur boshlig'i Kurush bilan jang qilgan va uni mag'lub etgan. Yunon tarixchisi Poliyenning yozishicha, saklar (podshosi Amorg') qo'shni qabilalar bilan, ya'ni xorazmiylar (podshosi Saksafar) va massagetlar (podshosi Tomaris) bilan birlashgan holda Doroga qarshi kurashganlar. Bunday to'qnashuvlardan yana biri haqida Diodor (miloddan avvalgi I asr) quyidagicha yozadi: "Artin podsholigi davrida parfiyaliklar midiyaliklardan ajralib chiqib, o'z yerlarini saklarga topshirdilar. Shunda saklar va midiyaliklar o'rtasida urush boshlandi... o'zaro sulh tuzidi. Sak podsholari midiyalik asirlarni Tanaidu (ya'ni Sirdaryo) tomon ko'chirib ketdilar"¹.

Gerodotning yozishicha, saklar skiflarning o'zginasi bo'lib, "forslar barcha skiflarni saklar deb" ataganlar. Chunonchi, ko'pgina hozirgi zamon tarixnavislari xitoy, grek-yunon, eron va boshqa tarixiy manbalardagi ma'lumotlarni talqin etib, saklar va ularning qadimiy uyushmalari (davlatlari), ayniqsa saklarning etnik xususiyatlarini yoritishga harakat qilganlar. Jumladan, etnograf I.Jabborovning yozishicha, milodiy asrimizning boshlarda ham sak qabilalari skif olamining bir qismi hisoblanib, o'zining antropologik tuzilishi, tili va madaniyati bilan Sharqiy Yevropa, Sibir va Qozog'iston dashtlari, Kaspiy dengizi janubi-sharqida ko'chib yurgan skiflarga juda yaqin turgan.

Shuni qayd etish lozimki, mintaqamizga muhim etnik qatlam bo'lib kirgan saklar, Tyanshan va boshqa tog'li hududlarda yashaydigan aholi bilan ham aralashib ketgan. Ular chorvachilik bilan, Farg'ona vodiysi va Sirdaryo bo'yi saklari dehqonchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Sak qabilalarining ba'zilar Issiqko'lning g'arbiy va janubiy-g'arbiy hududlarida mahalliy aborigen aholi sifatida yashaganlar². Skif va saklar tarkibidagi qadimgi Sug'd, Baqtriya, Xorazm va Parkana yerlarida, umuman, antik davrlardayoq mintaqamizda yashagan turli qavmlarning ko'p qismi (ular orasida turkiy tilning ta'siri kuchli bo'lganligi sababli) turkiy tilda gaplashganlar yoki "turklashgan" va o'troqlashib aborigen (mahalliy tub) turklar tarkibiga singib ketgan³ edilar.

Saklarning nomi va ular tilining etnik jihatlari haqida manbalarda turlicha fikrlar mavjud. Ba'zi manbalarda yozilishicha, turkiy qabila-

¹ . Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi, 29, 58-b.

² . Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi, 58-b.

³ . Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi, 60-63-bb.; Karimov Sh. , Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-k., 37-b.

urug'lardan birining nomi **"Bo'z qurt"**(turkiycha-**Bo'ri urug'i**) deb atalgan. Bu so'zning mo'g'ulcha atalishi **"Turk-utu"**yoki xitoylar tilida **"tuk-yu"**(**tukeyu**) shaklda bo'lgan. X.A.Abushiy ularni sof turkiy va uyg'urlar kabi ancha madaniylashgan urug'lardan deydi.¹. **Sak** so'zining asliy ma'nosidan biri **bo'rini** ifodalagan. "Sak" so'zi forschadir. Har holda, saklar urug'ining turkiy nomi **Bo'zqurt-Bo'ri** totemi bilan bog'li bo'lgan urug'larga borib taqaladi, deyish mumkin.

Bo'zqurt(Bo'ri urug'i) nomi turkiy elatlar orasida totem –e'tiqod qilish asosida yuzaga kelgan. Bu boshqa xalqlarda ham bor. Arab qabilalarining birini **"Banu qalb"**(**It o'g'ullari**) deb atashgan. Insonlar qadimdan o'ziga himoya vositasi sifatida ma'lum bir jonzodni yoki narsa-predmetni ilohiylashtirib, unga topinishgan (sig'inganlar), e'tiqod qilganlar. Bu ibtidoiy davrdan davom etib kelingan ilk diniy e'tiqodlardan bir ko'rinishdir. Arxeologik topilmalar mazkur qabilalarning yuksak madaniyat yaratgan etnoslar ekanligidan dalolat beradi. Saklar O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklarning ham shakllanishida eng qadimgi etnik qatlamdan biri sifatida qaraladi.

Jumladan, ba'zi manbalarda O'rta Osiyo saklari ishonch bilan turkiylar deb qaralib, ular **sak-turklar** nomi bilan atalgan. Shunisi xarakterliki, tarixiy manbalarda miloddan avvalgi va milodiy davrlarda etnik xususiyati har xil yoki yaqin bo'lgan bir guruh qabilalarning, masalan, skif, sak, massaget, xunn kabi qabilalarning turli mintaqalarda tulicha nom bilan atalgan birlashmalari bo'lgan. Chunonchi, saklarning yoki sak-turklarning bir davrlarda turli mintaqalarda o'ziga xos bir necha birlashmalar(davlatlar)i mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Masalan, manbashunos olim Nasimxon Rahmonning "Turk hoqonligi" nomli kitobida Alp Er To'nga, Ershak (Arshakiylar), Kengaras-Kenagas kabi miloddan avvalgi VII asrlar davrida yuzaga kelgan sak-iskitlarga tegishli davlatlar haqida hikoya qilingan. Bu hukmronliklar ham tarixiy manbalarda sak-sikitlar davlati sifatida qayd etilgan. Ularda sak-turklarning mavqiyelari ancha yuqori darajada bo'lganligi aytilgan hamda bu birlashmalar turklar tarixidagi ilk davlatlardan sanalgan.

Bo'zqir (Alp Er To'nga) davlati. Taniqli olim Nasimxon Rahmonning yozishicha, bu davrlarda sak turklari hukmroni Alp Er To'nga (Afrosiyob) ancha mashhur va qudratli davlatni tuzgan. Bu davlat qo'shin tarkibining asosiy qismini turklar tashkil etishgan. Birlashmaning tarkibida sak turklari yetakchiligida qarluq, g'uz,

¹. Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi.-T.Cho'lpon, 1995. 138-b.

qipchoq, bajanok, sug'dak (turklashgan yoki ikki tilda so'zlashuvchi sug'd) kabi juda ko'p turkiy urug'lar ham bo'lgan. Afrosiyob asos solgan birlashma negizida yuzaga kelgan Bo'zqir davlati va sak-turklar (yuqorida atalgan **iskut-iskit-iskif, skif**, ya'ni "**eski turk**"lar) faoliyati kundan-kun kengayadi, qo'shni mintaqalardagi hududlarda ta'sir doirasi kuchayadi. Bu hol Midiya shohi Kayxusravni dovdiratib qo'ygan edi.

Bo'zqir saltanati Kayxusrav davlatiga raqobatlikda tenglashadigan darajada qudratli davlatga aylangan edi. Kayxusrav bu kuchli raqibni ochiq jangda yengishga botinmaydi va makkorlik yo'li bilan Alp Er To'ngani yo'q qilish, uning qudratli davlatini inqirozga uchratish yo'lini topadi. Alp Er To'ngani do'stlik viziti bilan o'z huzuriga taklif etadi va zahar ichkizib (miloddan avvalgi 626 yilda) o'ldiradi.

Bu davlat miloddan avvalgi VII asr - milodiy II yuz yilliklarigacha yashagan. Olim saklar avlodlari haqida quyidagicha mulohazalarini aytgan: Sak turklarining ba'zi urug'lari zamonlar o'ta borgan sari boshqa halqlarga chatishib ketdi. Masalan, pomirliklarni bugungi kunda eroniy tilda so'zlashuvchi tojiklarning bir tarmog'i, deymiz. Aslida Qoshg'arda va Tyan-Shanda yashagan Pomir xalqi kelib chiqishiga ko'ra, iskitlardir. Eronijlar skif turklarini saklar deb nom berishgan. Turkiycha Tangri-Bo'ri so'zining xitoycha atalishi Tyan-Shan bo'lgan. Shan so'zini ba'zilar Xon deb izohlaydilar. Bu noto'g'ri. Tyan-Tangri, Shan-bo'ri degani. Turkiylarning bir toifasi Tyan-Shan Tangri bo'riga e'tiqod qilganlar... Demak, bu bilan sak nomi turklarga tegishli ekan. Umuman, olim o'z asarida "Bo'zqir" birlashmasi Sak-turk imperiyasi nomi bilan mashhur bo'la olgan ilk milliy davlatlardan biri sifatida qaralgan. Alp Er To'nga faoliyati va Bo'zqur davlatining tarixi chuqur o'rganilib, keng yoritilmaganligi to'g'ri qayd etilgan¹.

Sak (bo'ri) atamasining ildizlari, ifodalagan ma'nolari haqida manbalarda yana ancha qiziqari fikrlar bor, ayniqsa, Baxtiyor Isabekning "Shanyuy unvoni haqida" (Turk shajarasi) nomli maqolasida ancha keng fikr bildirilgan². Baxtiyor Isabekning ta'rificha, "shan" kalimasi xitoy iyeroglifining yozilishida ikki xil aks etgan va ma'nosi ham farqlangan. Bunda u xitoy olimi Du Yu (735-812) fikriga qo'shiladi. Chunonchi, birinchisi "shan" shaklda bo'lib, leksik ma'no ifoda etmagan, **u faqat syunnu** (turkiy qabilalardan biri) **tiliga xos hurmat ma'nosini**

¹. Nasimxon Raxmon. Turk hoqonligi. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nariyoti, 1993., 7-b.

². Qarang: Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -T.: O'zbekiston, 1997.; Baxtiyor Isabek. "Shanyuy unvoni haqida" (Turk shajarasi). -T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1993. 16 aprel).

ifodalovchi so'zdir. Bu so'z **shanyuy** shaklda **hurmatli uy** ma'nosini anglatgan. Ikkinchi shakli yumshatish belgisi bilan berilgan. Ya'ni **shan** shaklda qo'llanilib, **ezgu, yaxshi kabi** ma'noni bildirgan. **Shanyuy** shaklda **ezgu uy, yaxshi uy** ma'nosini anglatgan. Olim bu fikrni shanyuy so'zining (unvonining) dastlabki, asl turkiy mazmunini ochishda kalit vazifasini o'tashi mumkin deb biladi. Lekin ushbu maqolaning asosiy mazmunida ham **shan** so'zining etimologiyasi, tarixiy ma'nosi turkiy va mo'g'ul tillaridagi muqaddas rivoyatlarda ifodalangan **bo'ri** totemiga (qadimiy diniy e'tiqodlardan biriga) bog'lanadi va bu e'tiqod asosda **shanyuy** shakli yuksak unvon ma'nosida tariflanadi.

Qadimgi Xitoy tarixiy manbalarida turkiy va mo'g'ul aralash qavmlariga xos bo'lgan qo'pgina urug'-qabilalar birlashmalari (xunn, xu, jun, syun-sunnu, shan-shak(sak), di yue, dunxu, uxuan, syanbi, juanju va boshqalar) ning hukmdorlari shanyuy deb nomlangan. Shanyuylar o'sha paytlarda (miloddan avvalgi IV asrdan to milodiy IV asrgacha) "Osmon ostidagi yagona hukmdor" hisoblangan Xitoy imperatoridan o'zlarini aslo kam hisoblamaganlar. Shuning uchun ham Xitoy imperatori xunlarning buyuk shanyuysini tan olgan holda ularga o'z maktubini yo'llab turgan. Unga javoban shanyuylar ham o'z maktublarini yo'llashgan¹. Umuman, Xitoy mandalarida turli nomlar bilan atalgan turkiy qabila va urug'lar Yunon mandalarida skiflar tarkibida skif nomi bilan atalgan. Sak so'zi xitoy manbalarida bo'ri (shan-shan), forslarda shak-sak tarzda qo'llagan. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki skif va saklar uyushmalari tarkibida faqat turkiylar bo'lmagan, balki turli xil qavmlar, jumladan, eronzabon qabilalar ham bo'ri ramzi (bayrog'i) ostida birlashganlar va ular umumiy nom bilan saklar (bo'rilar) deb atalganlar.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, qadimgi davrlarda Gugu va Magug urug'lari ham turk qavmlaridan sanalgan. Ular "Bibliya"da, xususan, Musoning "Ibtido" kitobida Gog va Mogog nomi bilan eslatilgan. Ular (Ya'juj va Ma'juj nomi bilan ham atalgan) Nuh payg'ambarining avlodi sifatida qoraladi, aniqrog'i, turklar ajdodi Yofas urug'idandir². Gugu va Magug urug'lari turk qavmlari orasida katta mavqyega ega bo'lishgan va ancha jangovorlik xususiyatiga ega bo'lib,

¹ . Materiali po istorii derevnix kochevix narodov gruppi dunxu.-M.: 1984, s. 305 (Qarang : Baxtiyor Isabek.Shanyuy unvoni haqida).

² . Bibliya. -M.: 1968, s. 9.; Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy. Qissai Rabg'uziy.-T.: 1-kitob, 15-b.

boshqa urug'larga o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Ular boshchiligida sak turklari eramizgacha 665 yilda Kavkaz, Butun Midiya va Eronni, Anatoliya, Suriyani egallab, Misr chegaralarigacha yetib borishgan. Keyingi davrlarda ular turli yerlarda tarqalishib, xristianlashib ketganlar. Bunday holat boshqa turkiy qavmlar hayotida ham yuz bergan. Chunonchi, qadimgi bajanak, qipchoq, g'uz, bulg'or, avar kabi turk urug'lariga tegishli qavmlar shular jumlasidandir. Ular Rossiya, Kavkaz, Xazar o'lkasi, Bolqon va boshqa yerlarda qolib ketib butunlay xristianlashib ketganlar¹, hatto, tillari ham o'zgargan.

Arshak davlati. Sak turklarining yirik birlashmalaridan biri tarixda Arshak nomi bilan atalgan. Nasimxon Rahmonning yozishicha, Arshak Kaspiy dengizining janubi-sharqida tarqalgan **day** qabilasining boshlig'i bo'lgan. Uning nomi aslida turkcha bo'lib, **ar** (ya'ni "er"-mard, jasur, bahodir ma'nolarida) va **shak** (sak-bo'ri) so'zlarining birikivudan tashkil topgan. Yevropada ular kimmeriylar, deb yuritilgan. Arshakiylar 7 ta turk urug'ining birlashuvidan yuzaga kelgan. Bular: **day, imi, imak, bayandir, qipchoq, xidxaz va island** urug'laridir. Saklar Arshakiylar davlatida o'rnashib, Yuqori Disla, Aras, Churux va Qur daryolari sohilida yashaganlar. Keyin Arshakiylar bilan birlikda (milodgacha 452-429 yillarda) **Kichik arshakiylar** davlatiga asos solganlar. Umuman, milodgacha ikkinchi ming yillikdan milodiy beshinchi yuz yilliklari orasida Arshakiylar davlati gullab-yashnagan. Bu davlat hozirgi Eronning Sharqiy qismini, Turkmanistonni, Anatoliya (Turkiya) hududlarini qamrab olgan. Shu tariqa Arshakiylar saltanati o'sha davrlarda sak-iskit davlati nomi bilan dunyodagi eng qudratli davlatlardan biriga aylangan².

Tarixnavis Azamat Ziyoning ham bu davlatning yuzaga kelishi haqidagi fikr-mulohazalari ancha diqqatga molikdir. Chunonchi, miloddan avvalgi IV asrning so'nggi o'n yilligidan boshlab salavkiylar ta'sirida bo'lgan parfiyaliklar miloddan avvalgi III asr o'rtalarida mustaqil faoliyat ko'rsatadi. Bu davrdagi ma'lumotlar qadimgi yunon va arman mabalarida aks etgan. Bu mustaqillik asli kelib chiqishi **saklarning day** qabilasidan bo'lmish, Tajan daryosi bo'ylarida yashovchi **Parna urug'i** sardori Arshak boshchiligida qo'lga kiritiladi.

Arshak salavkiylarning Parfiyadagi noyibini ag'darib hokimiyatni qo'lga oladi va Arshakiylar siyosiy sulolasiga asos solgan. Arshakdan

¹ . Nasimxon Rahmon. Ko'rsatilgan asar, 8-9-bb.

² . Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi, 10-6.; Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. 43-b.

so'ng uning ukasi Tridat arshakiylar davlatini kengaytirishga kirishadi va qo'shni Girkaniya hamda Eronning bir qismini o'z ta'sir doirasiga tortishga erishadi. Tridat vafotidan so'ng(miloddan avvalgi 221 yil) taxtni uning ukasi Artaban II egallaydi. Bu davrlarda arshakiylarga raqobatda bo'lgan salavkiylarning qudrati hali kuchli bo'lgan.Shu davrda salavkiylar hukmdori Antiox yirik qo'shin (Pompey Trogning yozishicha, 100 ming piyoda, 20 ming otliq askar)bilan sak-arshakiylarga qarshi yurish qiladi va g'olib kelsa-da, raqibni to'liq bo'ysundirishga ko'zi yetmay o'zaro ittifoq tuzishga majbur bo'ladi. Arshakiylar saltanati kuchli davlatlar qatoridan o'rin egallagach, salavkiylar hukmdorining vafotidan so'ng, arshakiylarning novbatdagi hukmdori Mitridat I (mil.avv.171-138 yy.) Eron, Jazirani ham o'z tobeligiga qaratadi.

Ayniqsa, Mitridat II hukmronligi davri (mil.avv.123-87 yy.)da arshakiylar davlatining nufuzi, kuch-qudrati oshgan.Bu davrda hatto,ular salavkiylar hukmdori Dmitriy III ni qo'lga tushirishgan. Natijada, sak-arshakiylar salavkiylarning siyosiy faoliyatiga chek qo'yib, to'g'ridan-to'g'ri qudratli Rim saltanati bilan raqobatlashishga qodir bo'ldilar. Chunonchi, arshakiy Orod II davri(mil.avv.55-38 yy.)da rimliklarning harbiy yurishi barbod etilgan. Ular o'rtasidagi to'qnashuv miloddan avvalgi 53 yilda Jazira shimolidagi Karr shahri yaqinida sodir bo'lgan. Shunda sak-arshakiylar qadimiy sak-xorazmiylar urush uslubidan foydalanib, rimliklarga qattiq zarba berishgan. Rimliklarni mag'lub etib, tashabbusni qo'lga olishgan Arshakiylar davlati birin-ketin Suriya, Kichik Osiyo, Falastin kabi qator mamlakatlarni zabt etganlar. Bu davrlarda arshakiylar saltanati, haqiqattan ham qudratli kuchga ega bo'lgan.

Umuman, saklar O'rta Osiyodagi qadimgi va qudratli qabilalardan biri bo'lib, o'zlari yuzaga keltirgan keng hududdan tashkil topgan mashhur davlatlarning barcha yerlarida yashashgan. Ular qadimda Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, O'zbekiston, umuman, Kaspiy va Orol bo'ylari, Amu va Sirdaryo vohalaridan to Janubiy Sibir yerlarigacha tarqalishgan.Ularning o'troq qismlari Sug'd, Baqtriya va Parkana aholisi bilan aralashib singib ketishgan. Ular hozirgi O'zbekiston hududlarida ham yashashganligi aniq. Yuqorida qayd etilgan Alp Er Tunga davlatidagi saklarning mavqeyi buni to'liq tasdiqlaydi.

Yana Aleksandr Makedonskiyning saklar yerida Nautak qal'asi uchun olib borgan jang voqyeasi bunga dalil bo'ladi. Hozirgi paytda arxeologik topilmalar buni to'liq tasdiqlagan, ya'ni Nautaka qal'asi

Qarshi shahri yaqinida ekanligi aniqlangan. Kvint Kursiy Ruf bu qal'ani Nautak deb qayd etgan bo'lsa, Kvint Filaviy Arrian Xoriyen nomi bilan bog'laydi va uni Sug'diyonada joylashganini aytishgan¹. Sak-Arshakiylar Turkiston doirasidan chiqib, siyosiy yuksalishda saltanat darajasiga erishgan birinchi sulolalardan hisoblanadi. Ular Yaqin Sharq va Janubiy Yevropa davlatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri G'arbning o'zida munosabat yuritgan turkistonlik ilk siyosiy kuch ham sanalgan.

Ammo shunday qudratli kuchga ega bo'lishga qaramay, bu davlat mintaqadagi o'ziga yaqin bo'lgan qardosh qabilalar birlashmalari-davlatlarni, ya'ni Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona, Parikana (Farg'ona) kabi mamlakatlarni bir siyosiy markaz ostiga bo'ysundirish vazifasini uddasidan chiqa olmagan. Shuning uchun ham bu saltanat III asrlarning 20 yillarida tarqala boshlaydi va 224 yili Erondagi sosoniylar sulolasidan Ardashir I arshakiylarning so'nggi hukmdori Artaban V ni mag'lub etib, uning sulolasiga chek qo'ygan. "Agarda arshakiylar siyosiy tarixiga xulosa qiladigan bo'lsak,-deb yozadi Azamat Ziyo,-fikrimizcha, yunonlik Pompey Trogning quyidagi so'zlarini keltirsak kifoya bo'ladi: "Arshakiylar shon-sharafi qachonlardir dong'i ketgan Osuriya, Midiya, Fors va ming shaharlar o'lkasi Baqtriya orasida yuksaklikka ko'tarilishlari bilan belgilanadi"². Demak, saklar hayotiga doir tarixiy manbalar va so'nggi davr arxeologik topilmalar mazkur qabilalarning yuksak siyosiy-madaniyat yaratgan etnoslardan biri ekanligidan dalolat beradi. Xususan, ularning o'ziga xos davlat boshqaruvi sohasidagi tizimi va yozuv madaniyatiga ega bo'lganligi bu fikrni tasdiqlaydi. Chunonchi, Sak-Arshakiylar davlatida (parfiyaliklar) oromiy xatidan foydalanganlar. Ammo yozuvda gap va so'z tuzilishining o'zlariga xos tartibini joriy etganlar. Davlat boshqaruvida oliy hukmdor(podsho) bilan birga qabila zodagonlari va qohinlar kengashlarining roli katta bo'lgan. Bu ikki kengash orqali Oliy hukmdor (garchi taxt vorisi sulola qarindoshchiligi asosida davom etsada)saylangan yoki belgilangan. Topilma hujjatlarga ko'ra, hatto bu ikki kengash oliy hukmdorni taxtdan chetlatishi ham mumkin bo'lgan.

Ularning ijtimoiy madaniyatida yunonliklarning ta'siri sezilarli bo'lgan. Chunki bir necha asr arshakiylar davlatining hududi yunonlar tobeligi, ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun arshakiylar davlatining hududlari boshqaruv tizimida yunonlardek satraplar orqali boshqarilgan,

¹. Boynazarov F.O'rta Osiyoning antik davri, 396-b.

². Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi, 42-48-bb.; Istoriya Uzbekistana v istochnikax, s. 158,161, 183.

chunonchi yarim mustaqil mulk sifatida Girkoniya, Seyiston kabi yerlar satraplar sanalgan. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot(turli sohalari, chunonchi, ish yuritish-dehqonchilik xo'jaligi, tashqi va ichki savdo munosabatlari, quruvchilik-me'morchilik kabi sohalar) qat'iy tartib asosida olib borilgan. Bu sohalardagi ma'lumotlar yozma hujjatlar asosida tashkil etilganligi arxeologik topilmalarda va olimlarning tadqiqotlarida aks etgan¹. Savdo-sotik munosabatlar quruqlik va suv(dengiz) yo'llari orqali olib borilgan. Xususan, yozma manbalarda miloddan avvalgi davrlarda Xitoy bilan juda ham yaxshi savdo munosabatlar bo'lganligi qayd etilgan.

Shu kabi X-VIII asrlarda yaratilgan hindlarning epik dostoni "Mahabxarata" asarida o'sha davrlarda Hindiston bilan ham savdo aloqalari mavjudligi quyidagi lavhada aks etgan: "Uning (hind hukmdorining) qabulida boshqa halqlar qatori saklar, toharlar va qanqaliklar ham novbat kutib turardilar"².

Kengaras (Kenagas) davlati. Ba'zi manbalarda saklar birlashmalari tarkibida bo'lgan **Kenagas** urug'lari ma'lum bir davrlarda kuchayib, ancha yuqori mavqyega ega bo'lishgan. Shunda ular ko'pgina turkiy urug'larni birlashtirganlar va milodgacha VII-V asrlarda yirik qabila birlashmasi(davlati)ni tuzganlar. Natijada **Kengaras** (Kenagas) nomi bilan mashhur bo'lgan davlat yuzaga kelgan. Nasimxon Rahmonovning yozishicha, bu davlat sak-iskitlar bilan teng davrlarda (miloddan avvalgi VII asrlarda)yuzaga kelgan bo'lib, uning tarkibiga kenagas, qangli, qipchoq, bajanoq va qisman o'g'uz, qarluqlar kabi bir qancha urug'-qabilalar ham kirgan. Davlatni kenagaslar boshqarishgan, ammo davlat ishlarida qarluq, o'g'uzlarning, xususan, aslida arshakiylar urug'idan sanalgan qipchoqlarning ham ishtiroki sezilarli bo'lgan, hatto ba'zan ularning mavqyei ustun ham turgan.

Kengaras davlati milodiy V asrgacha yashab, Samarqand, Kesh, Kushon, Toshkent, Buxoro va Xorazmni o'z ichiga olgan. Davlat aholisi ko'k tangriga sig'inib, turkiy yozuvdan foydalanishgan. Bu qavmlarning (kenagas, qarluq, o'g'uz-qipchoqlar) birligini VIII-IX asrlardagi manbalarda ham tilga olinadi³.

¹.Qarang: Azamat Ziyov. Ko'rsatilgan asar, 45-48 bb.; VDI, 1960, №2, s. 16-20; Peredneaziatskiy sbornik, 2, 1962, s. 134-136.; Bichurin N.Ya. Sobraniye svideniye o narodax, obitavshix v Sredney v drevniye vremena. 1-3.-M.-L.: 1950-1953, 2, s.151, 160.

².Azamat Ziyov. Ko'rsatilgan asar, 48 b; Ahmedov B.A.O'zbekiston tarixi manbalari.-T.: O'qituvchi,1991,53-b.; Jabborov I. Ko'rsatilgan asar, 66-b.

³. Klyashtorniy S.G. Drevnetyurkskiye runicheskiye pamyatniki kak istochnik po istorii Sredney Azii.-M.: 1964.; Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi, 11-b.

Xullas, bu kabi dalillarning barchasi qadimiy Turkiston mintaqasida ilk ajdodlarimizdan biri sak-turklarning ham yuksak darajadagi saltanati bo'lganligini tasdiqlaydi.

MASSAGETLAR VA ULARNING BIRLASHMALARI (DAVLATLARI)

Tarixiy manbalarda yozilishicha, miloddan avvalgi davrlardagi ajdodlarimizning turmush tarzi har xil kechgan. Ma'lum bir hududdagi qabilalar tarkibida yashagan urug'lar boshqa yerlardagi qabilalar birlashmalarida ham mavjud bo'lgan. Yunon sayyohi Gerodotning (miloddan avvalgi V asr) ma'lumoticha, massagetlar Kaspiy dengizidan sharqdagi tekislik (Qoraqum)da, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida yashaganlar. Miloddan avvalgi Eron ahmoniylar sulolasi davrida (VII-VI asrlarda) massagetlarning ko'p sonli ko'chmanchi turkiy va boshqa tilli urug'-qabilalardan tuzilgan qudratli podsholigi bo'lgan. Miloddan avvalgi 530 yillarda bu podsholikning hukmdori vafot etib, davlatni malika To'maris boshqarayotgan davrlarda Eron ahmoniylari hukmdori Kurush (Kir II) juda katta qo'shin (2 yuz mingli lashkar) bilan bostirib keladi. Massagetlar ularga qarshi shiddatli jang qilib, Kirni mag'lubiyatga uchratganlar.

Gerodot To'maris boshchiligidagi massagetlar qo'shinlarining Kir lashkarlari bilan to'qnashuvini eng dahshatli jang deb baholagan. Bosqinchilik urushining natijasi Kurushning mag'lubiyati, ya'ni jangda o'ldirilishi bilan tugagan¹. Aslida bu jang tafsilotini va yurtimizning qadimgi elatlari hamda Ahmoniylar imperiyasi o'lkalari va ularga qaram bo'lgan mamlakatlar ro'yxati umuman, sak-massagetlar va boshqa elatlar haqida ham miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashab ijod etgan yunon tarixchisi miletlik Gekatey asarlarida ilk bor ma'lumotlar berilgan. Gerodot va Ktesiylar esa bu ma'lumotlardan o'z asarlarida ijodiy foydalanganlar. Jumladan, xorazmiylar va ularning Amudaryo quyi havzalariga ko'chishi haqidagi va sak-massagetlar bilan bog'lik ma'lumotlar esa kariyalik Skilakning (miloddan avvalgi VI asr) "Sayohatnoma"sida aks etgan. Ammo bu asarlar yetib kelmagan.

¹ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi, 1.28-29-bb; Istoriya Uzbekistana v istochnikax.

Str.50.; Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi. 58-b.; Karimov Sh., Shamsutdinov R. O'zbekiston tarixi. 1-q., 44-45-bb.; O'zbekiston tarixi va madaniyati.-T. O'qituvchi, 1992, 21-b.

¹ .Karimov Sh., .Shamsutdinov R. Ko'rsatilgan asar, 37, 57-bb.; Tolstoy S.P. Drevniy Xorazm.-M.:1948, s.221; Azamat Ziyo. Ko'rsatilgan asar, 33-b.; Asqarov A. O'zbek xalqining enogenezi va etnik tarixi, 9,119-b.

Ularning asarlaridagi ma'lumotlar Geradotdan boshlab, keyingi grek-yunon muarrixlari ijodlarida aks etgan.

Qayd etilganidek, massaget urug'lari qadimda ancha keng hududlarga tarqalgan bo'lgan. Ularning bir qismi qadimgi xorasimiylarning ilk davlati hududida ham yonma-yon yashashgan. Shu bois Strabon (milloddan avvalgi 63, milodiy 24 y.) sak-massagetlarni attasiy va xorazmiylar bilan bir qabila sifatida qaragan. Qadimda xorazmiylargacha ularning hozirgi yerlarida, asosan, massaget qabilalari yashashgan. Strabon "Xorazmiylarning ajdodlari massagetlarga borib taqaladi, deganida haqli edi. Chunonchi, so'nggi davr tadqiqotchilari (Tarn, Altxaym, Xenning¹, Pyankov va boshqalar) ham Gerodot va boshqa yunon tarixnavislarining ma'lumotlarni sinchkovlik bilan o'rganish va tahlil etish natijasida va "Avesto"da qayd etilgan dalillarga asoslanib, xorazmliklar dastlab Aryadan sharqda, Hinduqushning Xilmend vodiysida, aniqrog'i Marv-Hirot atrofida, Xoroyeva (Xorasmiya) hududlarida yashaganlar. Keyinchalik Ahmoniylar siquvi tufayli hozirgi joylariga ko'chib kelgan bo'lsalar kerak, degan fikrni aytganlar.

Hatto, ba'zi olimlar (masalan, V.A.Livshis) xorazm tili "Avesto" tiliga yaqin, degan xulosaga kelishgan. Shunday fikrdagi olimlardan V.V.Struve, I.M. Dyakonov, V.G.Lukonin, M.Meri Boys, S.P. Tolstov, M.Isoqov va boshqalar "Avesto"ning eng kuhna qismlari, ya'ni "Gota" gimnlari Xorazmda yaratilgan, deyilar. Shu asosda A.Asqarov "Gota" gimnlari Xoroyeva(Xorasimiya)da yaratilib, ehtimol, xorasimiylar uni o'zlari bilan (miloddan avval VI asrning oxirgi choragida) Amudaryo quyi havzalariga olib kelgan, deyish to'g'riroqdir deb qaraydi va xorazmiylarning asl vatanini Xilmend (Hirot) vodiysi bilan bog'laydi². Ushbu ma'lumotlardan seziladiki, xorazmiylar massagetlar yurtiga migrasiya tufayli kelib qolgan. Natijada xorazimiylar va ularning tili bu yerdagi mahalliy qabilalar bilan qorishib ketishgan. Shuning uchun tarixiy manbalarda ular tilini sak, massagetlar tiliga o'xshatiladi.

Massaget qabilalari totemlarida ot kulti markaziy o'rinda turadi. Shuning uchun ham Xorazm tangalarida bu totemning aks etgani bejiz emas. Arxeologik materiallarga ko'ra, Xorazm tarixining massagetlarga (ya'ni migrasiyagacha-U.S.) davrida bu zaminda

¹ . Karimov Sh., .Shamsutdinov R. Ko'rsatilgan asar, 37, 57-bb.; Tolstoy S.P. Drevniy Xorazm.-M.:1948, s.221; Azamat Ziyo. Ko'rsatilgan asar, 33-b.; Asqarov A. O'zbek xalqining enogenezi va etnik tarixi, 9,119-b.

² . Asqarov A. Ko'satigan asar, 138-b.; shu muallif-Qadimgi Xorazm tarixiga doir ba'zi bir masalalar. "O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar". -T. 2004 81-b.

Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatlari simbiozida tarkib topgan qovunchi qabilalari yashar edilar. (Ikki tillda so'zlvchi aholi, ya'ni turkiy va sug'diy qabilalar qorishuvidan tashkil topgan etnomadaniy hosila, arxeologik adabiyotlarda qovunchi madaniyati nomini olgan). Ularning avlodlari Turon turlari-saklarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirgi choragida qadimgi Xorazm aholisining asosini massaget nomi ostida yuritilgan ko'chmanchi qabilalar tashkil etgan¹.

Massaget qabilalarining turmush tarzi va xulq-atvori qadimda sug'diylar va baqtriyaliklarniki bilan ham o'xshash bo'lgan. Ularning kiyinishi, qurol-aslahalari ham farqlanmagan, vohadagi aholi deyarli bir tilda (skiflar yoki saklar tilida) gaplashgan². Gerodotning yozishicha, qadimda turonliklar, xususan, massagetlar Kuyoshga, Yerga sajda qilishgan. Ular o'z Vatanlarini quyosh kabi muqaddas deb bilishgan³. Yunon tarixchilari asarlarida massagetlar toharlar ajdodlari sifatida ham qaralgan⁴.

Xitoy manbalarida esa yuyechjilar, aniqrog'i, Sharqda yashovchi massagetlar "Katta yuechji" qavmi deb atalgan. Ular miloddan avvalgi IV asr oxirlarida Sharqiy Turkiston hududidan to Mo'g'uliston chegeralarigacha tarqalganlar. Yuyechji nomi bilan atalgan massagetlar asosiy qismi Sharqiy Turkistonda yashaganlar, shimoli-sharqdan xunnlarga qo'shni bo'lganlar. Taxminan mil.avv. 160 yillarda yuechji qabilalari xunnlr va usunlar bilan to'qnashib, ularning tazyiqi tufayli O'rta Osiyo tomon, aniqrog'i mil.avv. 130 yilda Sug'diyona hududiga siljiganlar. Ular bu migrasiya asosida, dastavval Farg'ona (xitoylarda Dayyuan-Davan deb nomlangan) g'arbidagi hudlarida yashayotgan qardoshlari sak(shak)larni mag'lub etib, ular bilan birlashib, Amudaryo bo'ylarini egallaydilar. Xuddi shu davrda Orol bo'yidan to Ko'kko'lgacha bo'lgan ulkan hududda mavjud bo'lgan va ko'p jihatdan bir-biriga yaqin qabilalarning mintaqada saqlanib kelinayotgan yunonliklarga xos so'nggi "siyosiy sarqiti"ni yo'qotish harakati kuchaygan edi. Ana shu jarayonda Xitoy tilida yuechjilar nomi bilan

¹ . Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 109, 119-bb.

Azamat Ziyoy. Ko'rsatilgan asar, 60-b.

¹ . Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 84-85-bb.; Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchilik tarixi, 57-60-bb.

² . Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-k. 37-b.; Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -T.: Fan, 1991, 91-92-bb.; Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. -T.: O'qituvchi, 1994, 60-b

³ . Karimov Sh., Shamsutdinov R. Ko'rsatilgan asar, 47-b.

⁴ . Azamat Ziyoy. Ko'rsatilgan asar, 60-b.

yuritilgan (tohar yoki massaget) qabilalarning ta'siri kuchaygan edi. Ular Baqtriya hayotida katta siyosiy mavqiyega ega bo'lishgan. Natijada bu qabilalarning siquvida miloddan avvalgi 130-yilda yunonliklar ta'siriga uzil-kesil chek qo'yilgan¹.

Gerodotning O'rta Osiyoning qadimgi xalqlariga doir hikoyalarida massagetlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Uning yozishicha, massagetlar jasur va behisob (yirik)qabiladir. Ba'zilar ularni skiflarga xos qabilalardan, deb hisoblaydilar. Massagetlarning kiyim-kechagi skiflarnikiga o'xshaydi, turmush tarzi ham mos keladi. Ular dushmanga qarshi otda va piyoda jang qilishadi. Jang qurollari kamon, nayza va oybolta. Bu qurollarining metall(sanchiq)qismi misdan(bronzadan-A.A.), boshqa anjomlari oltin va misdan, jumladan, jang liboslari va otlarning egar-jabduqlari ham oltin bilan bezatilgan. Temir va kumushdan yasalgan buyumlar qo'llanmagan. Chunki bu metallar ularning yerlarida umuman uchramaydi, oltin va mis esa juda ko'p...Massagetlar sharqda, quyosh chiqish yo'nalishida, Araks (Amu) daryosining narigi tomonida issedonlarga ro'para joylashganlar.

Ba'zilar Araksni Istradan katta deb qarashsa, ayrimlar, aksincha, kichik hisoblashgan. Araks daryosida orollar ko'p...Bu orollarda yashovchi odamlar yozda mevali daraxt hosilini yig'ib, qish uchun quritadilar ...Araksning bir o'zani... Kaspiy dengiziga quyiladi. ...Araksda baliq haddan ziyod. Ular baliqchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadilar, bug'doy ekmaydilar².

Xitoy manbalarida ko'p mingli massagetlarning og'ir qurol-aslahalari bilan qurollangan otliq qo'shinlari o'sha davrlarda qo'shni mamlakatlarga havf tug'dirib turganligi haqida ma'lumotlar berishgan. Ushbu qurol-aslahaning mavjudligini Ko'kcha dengizi madaniyatiga oid Chirikrabort qo'rg'onlarining biridan topilgan apasiak jangchisining metaldan yasalgan sovuti ham tasdiqlaydi. Qadimiy xorazmiy, jumladan, sak-massaget birlashmasida o'ziga xos harbiy usul va qurol-aslahalar bo'lgan. Ular harbiy yurishlarida otlari ham, o'zlari ham og'ir sovutlarga chulg'anib, yelkama-yelka qatoriga tizilib, kamon o'qlari, nayza va uzun qilich bilan qurollanganlar. Ushbu qurollangan chavandozlar dushmanni o'zlariga yaqinlashtirmasdan avval kamon

¹ . Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 84-85-bb.; Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi, 57-60-bb.

² . Geradot.Tarix. 1-tom, 201-202, 215-216-bb.; Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi,140-141-bb.

o'qlari bilan hamla qilganlar so'ng uzun nayzalari yordamida raqiblarining yon-atrofini o'rab olib, ularni qirib tashlaganlar.

Tadqiqotchilarning fikricha, dastavval qadimgi Xorazm davlatida paydo bo'lgan (massagetlar shu birlashma tarkibida edi) metal sovutli otliq qo'shinlar bilan jang qilish taktikasi sarmat-alanlar orqali Sharqiy Yevropa, undan Rimga, sharqda esa Oltoy-xunlariga, Xitoy va Mo'g'ulistonga o'tgan....Baland, baquvvat, chidamli otlarning asl zoti o'sha davrlarda massagetlar o'lkasidan Mo'g'uliston, Xitoy va Janubiy Sibirga ham tarqalgan¹.

Miloddan avvalgi davrlarda massagetlar juda ko'p qabila va urug'larni o'z ta'siriga qarata olgan nufuzli turkiy va eronzabon elatlar ajdodlaridan biri sanalgan. Tarixiy manbalarda ularning birlashmalari Tohariston nomi bilan ham atalgan. Bu birlashma miloddan avvalgi 1-ming yillikning so'nggi II-I asrlariga kelib Baqtriya viloyatida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va tashqi munosabatlar majmuini boshqargan kuch siftida yuzaga kelgan. Zero bu vaqtlarda Baqtriyani boshqargan asosiy siyosiy kuch tohar(yuyechji yoki massagetlar) hisoblangan². Bu qudratli birlashmaning jangovorligini qadimgi Midiya, Ahmoniylar sulolasi, Aleksandr Makadonskiy saltanati, Xitoy davlatlari ham tan olishgan. Shuning uchun bu mamlakatlarning tarixiy yozma manbalarida ular haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Chunonchi, Yunon tarixnavislari Spitamen qo'shinlari safida Aleksandrqa qarshi jang qilgan massagetlarning jasorati haqida qiziqarli fikrlarni yozishgan. Jumladan, Kursiy Rufning asarida quyidagicha ma'lumotlar berilgan: "Massagetlar 800 nafar otliq askarlarini qishloq yaqinidagi o'rmonga yashirib qo'ygan edi. Attin boshchiligidagi Aleksandr qo'shinlari qishloqqa yaqinlashayotganda, (ataylab) bir necha kishi o'rmonga o'z podasini bemalol haydab ketayotgan edi. Buni ko'rgan Attin o'zining 300 kishilik otliq jangchisi bilan hyech shubhalanmasdan ularni taqib ostiga olib o'rmonga kirdi. Shunda massagetlar o'z jang uslubiga ko'ra, Attin qo'shiniga qo'qisdan hujum qilib, ularning hammasini qirib tashladi"³.

Massagetlar birlashmasi tarkibida haqiqatan ham juda ko'p qabila va urug' vakillari mavjud bo'lgan. Jumladan, etnograf I.Jabborovning yozishicha, massaget qabilalari birlashmasiga bir qancha yirik kabilalar

¹. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi, 67-68, 79-bb; Abushiy X.A. Ko'rsatilgan asar, 57-58-bb.

². Azamat Ziyo. Ko'rsatilgan asar, 57-63-bb.

³. Boynazarov F. O'rta Osiyoning antik davri, 57-b. (Attin Aleksandrning ishonchli kishisi, Baqtriya hokimi ham bo'lgan.).

kirgan. Chunonchi, bu birlashmaga Sirdaryo havzasida, Amudaryoning sharqiy o'zanlari bo'yida va Qoraqumda yashovchi apasiaklar; Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan daxatuxarlar; taxminan Zarafshonning quyi qismi va Amudaryoning o'rta oqimida yashagan derbiklar; Nurota tog'larida o'rnashgan sakaravaklar; Sirdaryoning o'rta oqimidan Tyanshangacha cho'zilgan joylardagi usunlar ham, etnik davrda **xorazmliklar** ham massagetlarga kirgan. Sak-massaget qabilalari til jihatdan bir etnik jarayon bilan bog'liq bo'lgan. Miloddan avvalgi II-I asrlarda bu qabilalar yeriga turkiy qabilalardan xunlarning kelishi va ularning ta'sirida turkiylashish kuchaygan. Ayniqsa, sak-massaget, xorazm yerlaridagi qabilalarning asosiy qismi milodiy asrlarga kelib turkiylashgan¹.

Massagetlar ko'pgina tarixiy manbalarda turkiy xalqlarning tarkibida, ularning ilk shakllanishiga qatnashgan qabilalardan biri sifatida qaraladi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan tatar tarixnavisi Xasan Ato Abushiyning yozishicha, massagetlar turkiy qavmlardan bo'lib, ular hozirgi Semirechinskiy viloyatida, Issiqko'l sohillarida yashaganlar. Keyinroq massagetlar Orol va Hazar dengizlari shimolida va Qirg'iz sahrolaridan boshlab, Don, Volga, Qora dengizi sohillari, Kavkaz, Turkiya yerlarigacha tarqalishgan. Ular turli nomlar bilan yuritilgan. Chunonchi, tarixiy manbalarda "masog'i, masojat, g'yet, jet", "Osiyo skiflari" nomlari bilan atalgan. Jumladan, xitoylar ularni "yuyji" yoki "yuyti", "o-lo-niy(oloniy) nomlari bilan atashgan. Shuningdek, "yosa"(hozirgi osetin) va "qosug'"(hozirgi cherkas) kabi qavmlar ham massagetlardan bo'lgan. Oloniy qabilalarning asl yeri Qora dengizi bilan Hazar dengizlar orasi sanalgan. Lekin ular Ozoq dengizi, Osiyo sahrolarida, Midiya (Ozarbayjon, Iroq-Ajam yerlarida), Rumo, Makedoniya, Ispaniya va Portugaliya mamlakatlarida ham vatan qilishgan va o'sha yerli xalqlar bilan aralashib, turkiy tillari ham o'zgargan. Ularning bir qismi(oriylar) fors qavmi bilan yaqin aloqada bo'lib, aralashib, hatto, qiyofa jihatdan forsiylashib ketdilar. Ovrasi va seroq sho'balari esa Kavkaz, Don, Volga, qisman Qrim atroflarida tarqalishgan. Yosa va qosug' sho'balari Kavkaz tog'lari orasida, Dog'iston, Volga vohalarida tarqalganlar. Qosug'lar hozirgi cherkaslardir. Rosiya janubida, Kiyev yerlarida yashab qolgan turk-massagetlar, o'g'uz qavmlari kabi barchasi cherkaslar nomi bilan atalganlar².

¹. Jabborov I. Ko'rsatilgan asar, 55-56-bb.

². Abushi X. A. Ko'rsatilgan asar, 57-62- bb.

Xullas, qadimgi ajdodlarimizdan biri sanalgan massagetlar o'tmishi va yashash tarzi o'ziga xos jimjimador tarixga ega bo'lgan.

Manbalarda massaget qabilalari birlashmasi, umuman, ko'chmanchi chorvador qabilalar tarkibidan siyosiy maydonga chiqqan **oriylar haqida** ba'zi bir manbalarda ancha qiziqarli va mulohazali fikrlar bildirilgan. Chunonchi, miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida Markaziy Osiyoning cho'l va dasht mintaqalarida chorvador qabilalar hayotida tub ijtimoiy-iqtsodiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Chorvadorlar jamiyatida zodagonlar tabaqasi, ozod va erkin mulk egalari paydo bo'ldi va davr taqozosiga ko'ra, ular safidan otliq harbiy qo'riqchilar tashkil topdi. Bu harbiy otryadlardan shaxsiy mulkni qo'riqlash bilan birlikda yangi yaylovlarni o'zlashtirish uchun ichki va qabilaviy kurashlarda ham foydalanilgan. Shu tarzda chorvadorlar jamoalarida jangovar suvoriylar, ya'ni erkin, ozod harbiylar tabaqasi paydo bo'lgan. Ular "Avesto" kitobida "turlar", "oriylar" deb atalganlar, ular mulkdor chorvador orasidan chiqqan zodagonlar edilar¹.

Ushbu o'rinda massaget qabilalari bilan bog'liq bo'lgan "oriy" va "tur" atamalarining asl mazmuni va qaysi etnoslarga tegishli ekanligini ta'kidlash ko'pchilikni qiziqtiradi, albatta. Bu masalada akademik A.Asqarovning "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" kitobida tarixiy manbalardagi ma'lumotlar asosida keltirilgan fikr-mulohazalari ancha qiziqarli va diqqatga molikdir. Chunonchi, olimning yozishicha, "Avesto"dagi "arya"(tur, aslzoda oriy) so'zi, turkiyda "tur"- "hur"(xitoycha talaffuzda "xu, xulu". Xitoyning shimoliy sulolalar tarixida yozilishicha, miloddan avvalgi III-VI asrlarda "turo" nomli turkiy qabila bo'lgan. Bu qabila Attila davrida 44ta turkiy qabilalarga bosh bo'lib "Turo" o'z birlashmasini tuzgan². "Turo" ham "tur" etnonimi bilan bog'liq bo'lsa kerak-U.S.), ozod, erkin ma'nosini anglatgan va jamoaning ijtimoiy hayotida yuzaga kelgan mulkdorlar tabaqasiga mansub bo'lgan etnos sanaladi.

To'g'rirog'i, oriylar bronza va ilk temir davri ijtimoiy tabaqasi va o'sha davrlarda shakllanib borayotgan sinfiy jamiyatiga xos mulkdorlar vakilining bir tabaqasi bo'lgan. Ularning asl vatani Amudaryoning quyi oqimidagi qadimgi massagetlarning hududi-"Aryam Vaychah" vohasida bo'lgan. Bu vohada xorasmiy etnik qatlamining kelib qo'shilishidan oldin ham mashhur chorvador massagetlar uyushmasidagi qabilalar yashagan. Ular asosan turkiyda gaplashgan. Shuning uchun ham "Aryam

¹ .Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 161-162-bb.

² .Lyuuy Simyan. XXR xalqlari tarixi.-Shanxay.:1987.87-b., Asqarov A.Ko'rsatilgan asar, 203-b.

Vaychah” vohasi ba’zi tarixiy manbalarda Buyuk turk cho’li nomi bilan (hozirgi tarixiy manbalarda turkiy tilli elatlarning vatanini Yevroosiyo cho’llari deb) ham yuritiladi.

Zero, O’rta Osiyo saklari (“Avesto”dagi turlar, ularning aslzodalari-oriylar) migrasiya tufayli Buyuk Turk cho’lining markaziy va sharqiy Qozog’iston, Tog’li Oltoy, O’rol, Yenisey va O’rxun daryolari havzalarigacha kirib borganlar. Ular barchasi bu hududlarning turkiy tillik hukmronligi ta’sirida tamoman turklashgan. Bronza davridan boshlab O’rta Osiyoning Amudaryogacha bo’lgan hududlarida ham turkiy qabilalar mavqeyi oshib, Turonzaminning tubjoy aholisiga aylanib ketgan edi. Jumladan, tubjoy aholining fors-sug’diy tillarining o’zaro ta’siri, qardoshligi natijasida ikki tillilik ham mavjud bo’lgan¹.

Darhaqiqat, antik davrlarda qabilalar uyushmalarida turli tilda gaplashuvchi qavmlar ham birlashgan edi. Ular bir-biriga yaqin lahjalarda hamda bir qismi ikki tilda so’zlashgan. Umuman, ular bir-birini tushunganligi sababli bir uyushmada birlashgan edilar. Ana shu chorvadorlar orasida ham ilk bor xususiy mulkchilik vujudga kelgan².

Oriylar (“Aveato”da turlar) aslida chorvador sak qabilalari orasidan chiqqan harbiylashgan jangovari tabaqalardir. Zarafshon va Qashqadaryo havzalarida o’troqlashgan bu saklar “Aveato”da “Gova Sug’ida, ya’ni sug’diylar nomini olishgan³ Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Siyovushning o’g’li Kava Xusrav Turon oriylarini birlashtirib, Xorazmda Siyovushlar sulolasiga bosh bo’lgan, ya’ni mil.avv.XIII asrda massagetlar yurtiga Siyovush kelib, Xorazm davlatiga asos solgan. Siyovush Kaykovuaning (“Aveato”da Kava Usa-Xusravning) o’g’li bo’lgan⁴.

Zardushtiylik dinidagi ezgulik xudosi Axuramazda olamni yaratganda, birinchi bo’lib keng yaylovlardagi mashhur chorvador massagettlarning muqaddas hududi Aryanam Vaychahni yaratib, unga oriylarni joylashtirgan. Aryanam Vaychah oriylarning ilk Vatani sanalgan. (Bu Vatan qayerda joylashganligi haqidagi mulohazalar yuqorida bayon etildi.) Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi davomida oriylar butun O’rta Osiyo mintaqasida tarqalishgan va bu davrning oxirgi choragida, hatto, ularning bir qismi mahalliy aholining shahar va qishloqlariga ham, chunonchi, “Avesto” kitobi

¹ .Asqarov A.O’zbek xalqining ethogenezi va etnik tarixi, 7.

² . Asqarov A.Ko’rsatilgan asar, 28-b.

³ . Asqarov A.O’zbek xalqining ethogenezi va etnik tarixi, 106-b.

⁴ . Asqarov A. Ko’rsatilgan asar, 28-b. 107-9-bb (Tolstov S.P.Po sledam drevnexorezmskoy sivilizatsii.-M.:1948., s.85-86.).

ma'lumotiga ko'ra, Eron va Shimoliy Hindiston o'lkasigacha kirib borishgan. "Avesto"-Rigvedaga ko'ra, dastlab oriylar Eron va Hindistonga kirib kelganda ularning nomi bu zamin aholisi uchun "begona, kelgindi, bosqinchi" mazmunini anglatgan. Keyinchalik esa "xujayin, aslzoda" ma'nolarini kasb etgan.

Chorvador oriylarning migrasiya tufayli shimoliy mintaqalardan kelib Eron adirlarida o'rnatilib qolgan joylar "Avesto"da "Ariana" nomini olgan. Eron-Arian(a)ning yangi shaklidir. Aslida, qadimgi tarixda Ariana atamasi nafaqat Eron hududi, balki qadimgi eroniy tillar tarqalgan geografik kenglik ma'nosida ham tushunilgan. Shu bois, fanda oriylarning Eron hududida qolib ketganlari eroniy oriylari, Hindistondagilar esa hindu oriylari, Turk hoqonliklarida turkiy oriylari va boshqa yerlardagilar ham o'rnatilgan joy nomi bilan atalgan.

Lingivistik tarixga ko'ra oriylarning Eron mintaqasiga kelgunga qadar, bu zaminda babil, oromey, sug'd, hurrit, elam va boshqa tillarda so'zlashuvchi podsholiklar bo'lgani kabi, qadimgi fors-dariy tilli hokimlik ham mavjud edi. U Eronning janubi va janubiy-g'arbidagi forsiy aholining ona tili sanalgan. Chorvador oriylar Eron zaminiga kirib kelganda, dastlab, shu dariylar yurtida makon topdilar va mahalliy fors jamoalari ustidan o'z siyosiy hokimiyatini o'rnatganlar.

A.Asqarovning yozishicha, miloddan avvalgi VIII asrning oxiri va VII asrning boshlarida **oriylarning nufuzli sardorlaridan biri Ahamen (Ahmon)** Eronda o'z sulolasiga asos solgan. Uning o'g'li Chishpish mil.avv.VII asrda fors qabilalarining ittifoqini tuzgan. Miloddan avvalgi 640 yilda Kir I Erondagi mahalliy podsholiklarni birlashtirib yagona davlat tuzgan. Miloddan avvalgi 559-550 yillarda Kir II Yaqin Sharqdagi Midiya, Elam, Vaviloniya, Lidiya kabi qator mamlakatlarni o'z hukmronligiga oladi. Miloddan avvalgi 545-540 yillarda Baqtriya, Parfiya, Marg'iyona, Sug'diyona viloyatlarini bosib oladi. Miloddan avvalgi 530 yilda Orol bo'yi sak-massaget podsholiklari (To'maris) tomon qilgan yurishlari muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan (To'maris boshchiligidagi sak-massaget podsholigidan mag'lub bo'lgan Kir II bu jangda halok bo'lgan) edi. Lekin miloddan avvalgi 518 yilda Doro I tomonidan bu o'lkalar ham istilo qilinadi. Umuman, Doro I davrida (miloddan avvalgi 522-486 yy.) ahmoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta yer dengiziga qadar hududlarda o'z hukmronligini o'rnatgan. Ahmoniylar davlati keyinchalik, ayniqsa, Kir II va Doro I davrlarida imperiya darajasiga ko'tarildi. Bu davrlarda asli ko'chmanchi turkiy tilli chorvador massagetlardan bo'lgan oriylar forsiy tilni qabul qilib, forsiy

til muhiti va madaniy-xo'jalik ta'sirida tamoman forslashib-eronlashib ketishdi.

Ahmoniylar davrida Eronda forsiy til davlat tili mavqyeiga ega bo'lib, uning doirasi kengaydi. Taniqli manbashunos olim M.Isoqov ahmoniylar sulolasi davrida zabt etilgan qadimgi Turon malakatidagi holat haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "bu o'lkada ahmoniylarning siyosiy hukmronligi o'rnatilib, uning tarkibiga kirgan eroniy va turkiy xalqlarning barchasiga buyuk Eron davlati fuqarosi sifatida qarash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xalqlarning tillaridan qat'i nazar, umumeron til-qonuniy til qilib qo'yildi. Natijada davlat mahkamachiligi doirasida Turonning turkiy til mavqyei sun'iy ravishda bekor qilindi"¹. Turon hududlari aholisining etnik tarkibi asosan turkiy xalqlardan tashkil topganligi uchun ham keyingi davrlar manbalarida Turkistonga aylangan bo'lsa-da, bu zaminda ikki tillilik an'anasi davom etdi.

Ta'kidlash lozimki, ahmoniy podshohlari o'zlarni oriy avlodidan ekanligini unutmaganlar. Chunonchi, Kir II va Doro I qoyatoshlarga bitilgan kitobalarida o'zlarini "haqiqiy oriylar" ekanliklarini alohida ko'rsatganlar. Nafaqat ular, hatto Kushon podshohlarining yodgorliklari ("Rabatak" bitigi)da asli zotlari oriy, ya'ni turkiy ekanligiga ishora qilingan. Umuman, Pars podshohlari kelib chiqishi bayonida o'zlarini ahmoniylar urug'laridan Pars qabilasi(yoki qabila ittifoqi)dan ekanligi hamda oriylar (massagetlar)ga ham borib taqalishini alohida qayd etishgan².

Akademik A. Asqarov oriylar masalasida yuqorida qayd etgan mulohazalari asosida quyidagi xulosaga kelgan: Birinchidan, ular(oriylar-U.S.) Yevroosiyo cho'l va dasht mintaqalari chorvador qabilalarining iqtisodiy yuksalishidagi ko'chmanchi hayot bosqichining ijtmoy mahsuli, tug'ilib kelayotgan dastlabki sinfiy jamiyatning aslzodalar tabaqasidir, jumladan, massaget qabilalarining ajdodlaridandir.

Ikkinchidan, ilmiy tarixiy tilshunoslik va arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, ular ilk kelib chiqishi jihatdan eroniy til sohibi bo'lmay, balki turkiyda so'zlashganlar. Buni qadimgi Xitoy kichik podsholiklari "shi"larning yilnomalari tahlili ham tasdiqlaydi.

¹. Isoqov M. Geografiya rasprostraneniya drevnetyurkskix pismennix pamyatnikov i voprosi etnogeneza tyurkskix narodov. –M.: "Turkologiya", jurnal № 1, 2003, s.12.

². Asqarov A. Asqarov A. O'zbek xalqining ethnogenezi va etnik tarixi, 210-b.

Uchinchidan, aytish joizki, Eronga eroniy til tashqaridan kirib kelmagan, aksincha o'zga yurtlarning istilochilari (jumladan, oriylar) tili mahalliy eron tiliga singib, forslashib ketgan-assimilyasiga uchragan.

To'rtinchidan, oriylarning O'rta Osiyo mintaqalariga ommaviy ravishda tarqalishi va doimiy o'rnashib qolgan hududlarida (janubiy Turonda) ilk o'rta asrlarga kelib turk-sug'diy ijtimoiy etnomadaniy maydon doirasida o'zbek va tojik xalqlari shakllandi.

Bu kabi tarixiy dalillar shundan dalolad beradiki, o'zbek va tojik xalqlarining yaqinligi, qon-qarindoshligi juda qadim davrlardan boshlangan. Bu ikki xalqning avlod-ajdodi ajratib bo'lmas darajada qorishib ketgan. Qadimgi oriyning vujudiga pors(fors)ning qoni aralashib ketganidek, porsning ham butun tanasiga oriyning qoni singib ketgan. Xuddi shunday, keyingi davrlarda o'zbek va tojik avlodlari vujudiga bunday aralashish yoki qorishib ketish holatni kuzatish mumkin. To'g'ri, etnogenez (kelib chiqishi) jihatidan ularning biri turkiy, ikkinchisi esa dariy (pors-fors) tillar guruhiga mansub deb qaraladi. Lekin, ularda azal-azaldan bir-biri bilan quda-andalik (qiz berib, qiz olish) an'anasi davom etib kelmoqda.

Hozirgi paytda Tojikistonning, Dushanba, Panjakent, Xo'jand kabi ko'pgina tumanlarida, O'zbekistonning juda ko'p hududlarida har bir mahallasida, ayniqsa, qadimiy Buxoro va Samarqand, Farg'ona va boshqa viloyatlarida o'nlab oilalar borki, birining kelini tojik, ikkinchisining kuyovi o'zbek va aksincha, birining kelini o'zbek, ikkinchisining kuyovi tojik. Bunday holat milloddan avvalgi davrlardan boshlanganligiga shubhalanmasa ham bo'ladi. Til jihatdan ham bir-birini tushungan, har ikki tilda muomala qila olgan. Bunday qon-qardoshlik xususiyatlari va ikki tillilik, hatto miloddan oldingi ibtidoiy jamoa tizimi davridagi qabilalariga xos oilalar, birlashmalar, davlatlar o'rtasida bo'lgan. Tarixga murojaat etilsa, bunga yanada ishonch hosil qilasan kishi....Agar biz taniqli olimlarimiz A.Asqarov, B.Ahmedov, K. Shoniyozevlar tomonidan talqin etilgan qadimiy tariximizga oid fikrlarga nazar tashlasak, o'zbek va tojik xalqlarining o'tmish ajdodlarining qorishuvi miloddan oldingi davrlar bilan bog'langanligini yaqqol ko'zatamiz. Tarixiy manbalarda bu ikki xalqning etnogenetik bog'lanishi, ayniqsa, Ahmoniyalar saltanati (aslida undan ham avvalgi) davrlar bilan o'lchanishi qayd etilgan. Shuning uchun ba'zi olimlar o'zbekning shakllanishida asosiy koponentlardan biri sifatida ikki tilda so'zlovchi qabilalar qatnashgan degan fikrni ham aytishgan (A.A.)

Demak, hozirgi o'zbek va tojiklar birgina quda-andichilik tomondangina emas, balki qadimiy ajdodlar qorishuvi jihatdan ham qardosh bo'lishgan. Shuning uchun ham skif-sak, massaget (oriy), tur(turk), sarmat(sart), sug'd, xorazm va boshqa ajdodlarni qorishib ketganligidan tarixiy manbalarda ular ba'zan turkiy til, ba'zan esa eronzabon ajdodlari sifatida talqin etilishi bejiz emas...

Xullas, qadimiy tarixiy manbalar miloddan avvalgi o'tmish ajdodlar hozirgi O'rta Osiyoda, hatto o'zga mintaqalarda yashayotgan xalqlarga ham tegishlidir. Buni qadimiy tarixiy manbalar to'liq tasdiqlaysdi.

SARMATLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)

Sarmatlar ham Markaziy Osiyoda yashab o'tgan qadimgi qabilalardan biri bo'lgan. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra, ular qadim davrlarda Don daryosi bilan Azov dengizi oralig'ida yashab kelishgan va skif qabilalari bilan urug'dosh bo'lganlar. Sarmatlarning qadimdan shakllangan o'z tillari bo'lishi bilan birlikda, urf-odatlar skiflarnikidan birmuncha farqlangan lekin skif tilida gaplashganlar. Sarmatlarning qalin o'rmon bilan o'ralgan shimol tomonidagi o'lkasida asosiy qismi ko'chmanchilik bilan hayot kechiradigan malla sochli, ko'k ko'zli budunlar va gelonlar yashagan. Ularning qadimiy Gelion-Saratov deb atalgan shahri bo'lgan (ehtimol Saratov sarmat nomidan olingandir-U.S). Budunlardan keyin keng Sharqiy Sibir dashtlari bo'ylab, ovchilik bilan shug'ullanuvchi tissagetlar va zirklar yashagan. Ularning asl manzili O'rol va Komega yerlari hisoblangan. O'rol tog'lari orasida yuzlari yapaloq, sersoqqol argoppiylar yashagan. Bu qabilalarning ham skiflar-sarmatlar bilan aloqasi bo'lgan. Sarmatlar o'lkasidan to'rtta daryo oqib o'tgan. Bular Tanans (Don), Oar(Volga), Lik(O'rol), Sergis nomlari bilan atalgan.¹

Hasan Ato Abushiyning "Turkiy qavmlar tarixi" nomli asarida yozilishicha, sarmatlar (asarda sormat shaklida nomlangan) turkiy qavmlardan bo'lib, Don daryosining sharqida, hozirgi Astraxon sahrolarida yashaganlar, asli ular tabiiyki, Turkiston sahrolaridan chiqib Kafkazning shimolida, Don va Volga oralig'ida tirikchilik qilishgan. Sisiyalik yunon tarixchisi Diodorning(miloddan avvalgi 90-21 yy.) "Tarixiy kutubxona" asarida yozilishicha, sarmat(sormat)lar skiflar bilan birga Midiyadan (hozirgi Ozarboyjon va Iroq, Ajam yerlaridan) Don sohillariga kelganlar. Massagetlar yeridagi sarmatlar siquv ostida Don

¹ . Boynazarov F.O'rta Osiyoning antik davri, 32-b.

va Dunay sohillariga ko'chganlar. Skiflar zaiflashgan davrda sarmatlar ular bilan birlashib, hukmronlikni qo'lga kiritishgan. Natijada ular Midiya yerlaridan, Don va Volga sohillarigacha, Azovdan Dunayga qadar yerlarda o'z ta'sirini o'tkazib, hukmronlikni o'rnatishga muvaffaq bo'lishgan. Boltiq dengizi sohillarida o'z ta'sirini kuchaytirib, hatto bu dengizni "Sarmat(sormat)" nomi bilan atashgan¹. Ba'zi tarixiy manbalarda ularni turkiy skiflar nomi bilan ham atashgan. Sarmatlarning jasoratligi, jangovorligi rimliklarning e'tiborini o'ziga jalb etgan. Hatto, ulardan harbiy yurishlarida foydalanishgan (yollashgan)².

Zamondosh olimlarimiz asarlarida tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga tayangan holda sarmatlar ham skif, sak, massaget va xunn avlodlari qatorida sanab o'tilganligini guvohi bo'lamiz. Ular miloddan avvalgi III–II asrlarda Qozog'iston hududlarida ham yashagan va ancha yuqori mavqeyga ega bo'lgan qabilalar sifatida ta'kidlangan³. Jumladan, Xontepa, Dorintepa, Qizilqir kabi manzilgohlardan qo'lga kiritilgan arxeologik topilmalar guvohligi asosida miloddan avvalgi II asrlarda sak-sarmatlar avlodlari O'rta Osiyoning o'troq qabilalariga kelib qo'shilishgan degan xulosaga kelingan. Ular janubiy-g'arbiy tomondan hozirgi Krasnovodsk yarim oroligacha va janubdan Qizilqum va Markaziy Sug'd orqali qadimgi Buxoro vohasi hamda Shimoliy Baqtriya gacha tarqalishgan⁴.

Ushbu o'rinda qayd etish lozimki, yuqorida aytilgan fikrlar asosida **"sarmatlar"** va **"sartlar"** ning etnogenetik jihatdan bir-biriga aloqasi bormikin degan mulhazani davom ettirish mumkin. Zero, bular nomining lug'aviy ma'nosi ham umumiylikka ega (bu nomlar manbalarda sormot va sort shakllarda ham qo'llangan⁵). "Sarmat" ning lug'aviy ma'nosi forscha-"sar omad"- bosh keldi⁶, ya'ni boshlovchi keldi; "sart" ning lug'aviy ma'nosi esa hind va forscha-"sartavan" yoki "sorbon(sarbon)" so'zlaridan aniqrog'i "sar"-bosh yoki "sor"-tuya; sorbon/sarbon-tuya karvon boshi, tuyayetaklovchi (umuman tuyayetaklovchi karvonning boshida bo'lib, uni yetaklovchi ma'nolarini ifodalagan)⁷. Shuningdek, manbalarda har ikkala ko'rinishdagi nom bilan atalgan

¹ . Abushiy X.A. Ko'rsatilgan asar, 53-55-bb.

² . Gumilev L.N. Tisyacheletiyevokrug Kaspiya. –Baku.: Azerb..Gos.izd.,1991, - s.16.

³ . Gumilev L.N. Tisyacheletiyevokrug Kaspiya, - s.16.

⁴ . Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi, 63-b.

⁵ . Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi, 53-55-bb.

⁶ . Abushiy.X.A. Ko'rsatilgan asar, 53-b.

⁷ . Navoiy asarlarining lug'ati.-T.: G'afur G'ulom, 1972, 546, 569-bb.

aholi dastlab sharqda ko'chmanchi qabilalar qatori dasht va sahrolarda ham yashaganligi qayd etiladi¹. Demak, ularning dastlabki turmush tarzi ham o'xshash bo'lgan. Ular til jihatdan ham ikki tilli turkiy-o'zbek va forsiyzabon tojik avlodlari bo'lganlar.

Xususan, Sh.Karimov, R.Shamsutdinovlarning "Yaqin o'tmishlarga qadar dasht va sahrolarda yashovchi xalqning maishiy turmushiga ko'ra ularga nisbatan "sahrat"(sahroyi-U.S.), "sartlar" kabi nomlar qo'llangan"², degan fikri diqqatga molikdir. Bu fikr sarmatlarning turmush tarziga ham mos keladi. Chunki sarmatlar asosan ko'chmanchi qabilalardan bo'lib, dasht va sahrolarda hayot kechirgan, keyinchalik ularning bir qismi o'troqlashgan ham. Chunonchi, etnograf I.Jabborov sarmatlarni II asr o'rtalarida O'rta Osiyoga o'troq aholi orasiga ko'chib kelib chatishib ketgan etnik qatlam sifatida tariflaydi. A.Asqarovning "O'zbek xalkining etnogenezi va etnik tarixi" nomli kitobida yozishicha "so'nggi o'rta asrlarda Xorazm aholisining asosini sartlar tashkil etgan. Shu kabi kelib chiqishi turkiy bo'lib, allaqachonlar o'troqlashgan muqim, turg'un turklar hamda Movarounnahrning "sart" nomi ostida yuritilgan turkiy tilli o'troq jamoasi Temuriylar davrida hozirgi O'zbekiston hududlari aholisi etnik tarkibining asosini tashkil etgan"³. Ushbu fikrlar bu ikki nomning etnik qatlami (ildizi) bir bo'lganligini taxmin qilish mumkin.

Sarmatlar nomi bilan atalgan qavmlar haqida tarixiy manbalarda aniq va yetarli ma'lumotlar bor. Ammo sartlar nomi bilan atalgan qavmlar haqida aniq bir ma'lumot yetarli emas, bor ma'lumotlar ham xar xillikka ega. Masalan, akademik A.Asqarovning bu masaladagi aytgan fikrlarida ham birlik yo'q. Chunonchi, uning yuqorida qayd etilgan fikrida "sart" nomi ostida yuritilgan **turkiy tilli o'troq jamoa**" desa, boshqa bir o'rinda "u (sart-U.S.) kelib chiqishi jihatidan turkiylashgan sug'diylar bo'lib, tojik va o'zbeklarga tegishli **savdo-sotiq va hunarmand ahlining yig'indisi**"ni ifodalovchi nom deb qaraydi. Shuningdek, "**sart etnik nom emas**",⁴ degan fikrni ham aytgan. Sart atamasi qachon va qanday paydo bo'lgan, qaysi elatlarga tegishli? kabi savollar ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiydir. Bu haqda manbalarda har xil tarzda bo'lsa-da, anchagina fikrlar bor.

¹ . Qarang: Qayd etilgan grek-yunon mabalari , jumladan, Gumilev L.N.Ko'rsatilgan asar,16-b., Jabborov I. Ko'rsatilgan asar, 63-b.; Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-k. 35-b.; Asqarov A. O'zbek xalqining enogenezi va etnik tarixi. 272-b. va boshqalar.

² . Karimov Sh., Shamsutdinov R. Ko'rsatilgan asar, 35-b.

³ . Jabborov I. Ko'rsatilgan asar, 62-b.; Asqarov A. Ko'rsatilgan asar, 258, 272-bb.

⁴ ..Asqarov A.Ko'rsatilgan asar, 258-b.

Shuni ta'kidlash lozimki, "sart" atamasi bo'yicha o'tmish manbalarida ham ba'zi ma'lumotlar mavjud. Ammo ularda ham "sart" etnik xususiyati har xil talqin etilgan. Masalan, Miloddan oldin II asrda yashab o'tgan grek muarrix Polien o'zining "Harbiy hiylalar" nomli asarida O'rta Osiyo mintaqasi haqida to'xtalib, Eron shohi Kirning bosqinchilik yurishlarida **sartlarning** jasorati haqida ham hikoya qiladi. E'tibor bering Polien **sarmatlarni sartlar** nomi bilan **midiyaliklar deb atagan**. (Balki o'sha davrlarda Midiya hududlarida sarmatlar sartlar nomi bilan ham atalgandir, ular nufuzli qabilalardan bo'lib, hukmronlik doirasida turishgan. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yashagan tatar olimi X.A.Abushiyning sarmatlar haqidagi fikrlari ham bu mulohazani tasdiqlashi mumkin.) Chunonchi, Polien hikoyasida Kir sartlar bilan Midiyadagi Midan shahri uchun jang qilgan. Midanga uch marta hujum qilinganda **sartlar** shaharni yuksak jasorat ko'rsatib, mardonavor himoya qilishgan. Kir Midanga to'rtinchi martaba hujum qilib, sartlar qarshiligini bir muncha sindirsa-da, shaharni to'liq qo'lga kiritmaydi. Shunda Kir hiyla ishlatib, sulh tuzadi va sartlarni mag'lub etishga erishadi¹. Demak, ushbu ma'lumotlarda "sart" etnik xususiyatga ega bo'lganligi seziladi.

XI asrning tilshunos va elatshunos olimi Mahmud Koshg'ariy esa "Devonu lug'otit turk" asarida esa sartlarni qabila yoki urug' sifatida tariflanmagan, balki savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan kishilar toifasiga nisbatan, ya'ni "savdogar" ma'nosida qo'llagan². Shunga ko'ra, so'nggi davr olimlarimizdan ba'zilar "sart" etnik nom emas deb qarashadi. Tilshunos olim sifatida

Alisher Navoiy esa "sart" atamasini etnik nom sifatida qaragan. U o'zining "Muhokamat-ul lug'atayn" (Ikki til muhokamasi) asarida o'zbek va tojik tillari lug'at boyligini qiyoslash jarayonida "sart" atamasini tojiklarga nisbatan qo'llaganligini kuzatamiz. Hatto, Alisher Navoiy sortlarning siyosiy saltanatlari ham bo'lganiga shama qilgan. Masalan, "To mulk arab va **sort salotinidin** turk xonlariga intiqol topdi...Turk tili bila shuaro paydo bo'ldilar" kabi³. Shunga ko'ra V.V.Bartold ham "sart" atamasini "tojik" ma'nosini beradi, deb qaragan⁴.

¹ . Poliyen. Strategemi Poliyena.-SPb.: 1842 (Boynazaro F. Ko'rsatilgan asar,126-b.)

² . Mahmud Koshg'ariy.Devonu lug'otit turk". -T.: Fan, 1963, 1-t, 328-b.

³ . Alisher Navoiy. Muhokamat-ul lug'atayn. -T.: Fan,1967, 14-tom, 107-108-bb.

⁴ . Bartold V.V. "Sart".Soch.. Tom 2, chast 2,-M.: Izd. Vost.Lit. 1963, str.527-529.

“Sart” va “tojik” atamasi bo’yicha A.Asqarovning quyidagi fikr-mulohazalari ancha qiziqarli va diqqatga molikdir. Olim ushbu masalada qayd etilgan kitobining bir necha sahifasida yozma manbalar asosida fikr-mulohazalarini bildirgan. Xususan, kitobning 296-300-sahifalarda bayon etilgan mulohazalar xarakterlidir. Unda O’rta Osiyo mintaqasida XX asrgacha yetib kelgan etnik holatni tahlil etib, o’lkadagi aholini uch toifaga bo’lgan. Shundan birinchisi, Turkistonning “sart” atamasi bilan ataluvchi o’troq aholisi; ikkinchisi qadimdan shu zaminda o’troq hayot kechirib kelayotgan muqim turklar; uchinchisi, Dashti qipchoq o’zbeklaridir. Bulardan ikkitasi, ya’ni **sartlar va muqim turklar-shahar va qishloqlarda turg’un holda yashovchi aholi hisoblangan.** Shu kabi olim **“sart”atamasidagi turkiy** tilli etnik qatlamning kelib chiqish **ildizlarini tahlil etadi.**

Jumladan, olimning fikricha **“sart”ning ildizlari** ilk o’rta asrlarga borib taqaladi, ya’ni arablar bosqini davrida O’rta Osiyoga istilochi arab qo’shni bilan yana ikki **toifa** arablar kirib kelishgan.Ularning birinchisi payg’ambar avlodlari-**saidlar** bo’lsa (bular, asosan, aholi orasida islom dinini targ’ib-tashviq qilish bilan shug’ullanishgan), ikkinchisi-**tazik** nomi bilan kirib kelgan arab savdogarlari **toifasi** bo’lgan. O’sha kezlarda va ungacha ham tubjoy sug’d aholisi savdo-sotiqda jahonga ma’lum edilar”, degan fikrni aytib, Mahmud Koshgariyning “Devonu lug’otit turk” asaridagi **“savdogar”** tushunchasiga bog’langan, ya’ni **“sart** atamasi dastlab arab va sug’d savdogarlariga nisbatan ishlatilsa, X-XI asrlardan boshlab, umuman, savdo bilan shug’ullanuvchi aholi qatlamiga nisbatan ishlatilgan. Umuman, olim “o’sha kezlarda, ya’ni o’rta asrlarda savdo bilan shug’ullanuvchi **toifanining** etnik kelib chiqishidan qat’i nazar, “taziklar” deb atalgan”, degan mulohazani aytadi.

Shu kabi u “sart” atamasi XIII asr yozma manbalarida ham “sartak, sartaul, sartaktoy” so’zlari tarkibida uchrashini qayd etadi: “Masalan, Rashididdinning (XIII asr) yozishicha, mo’g’ullarga tobe bo’lgan qarluqlar hukmdori Arslonxonni (musulmon) Ching’izxon “sartaktoy”... musulmon davlatlaridan birining vaziri Abu Bakri Xubilayxon (XIII asr) “sartavail odami” deb atalgan. Shuningdek, olimning yozishicha, O’rta Osiyo Mo’g’uliston tomoniga kelgan musulmonlarning tili, etnik kelib chiqishidan qa’iy nazar “sartak”, “sartaktay”, “sartaul” deb qaralgan. Umuman, bu so’zlarning asosini “sart” atamasi tashkil etib, musulmon yozma manbalarida dastlab bu so’z ostida fors tilida so’zlovchi taziklar (tojiklar)tushunilgan. Chunonchi, u Navoiy “sart” atamasini fors-

tojiklarga nisbatan qo'llagan bo'lsa, Bobur sart bilan tojikni til jihatdan ajratgan, shuningdek, Indiana universitetning professori Yu.Bregel fikrini, ya'ni Abulg'ozi Bahodirxon tomonidan "Shajarai turk" asarida XVII asrlar oxirlarida Xorazm sartlarini alohida etnik guruh sifatida o'zbek va turkmanlar qatorida eslab o'tilganligini ta'kidlaydi.

Ushbu aytilganlardan kelib chiqib, olim "sart" atamasi masalasida hozirgi fanda ikki xil qarash mavjudligini ta'kidlaydi. Birinchi qarash tarafdorlari **"sart" bu etnos, forsiyzabon tojiklardir**", deyishgan (ilk bor G.Vamberi, V.Radlov, N.Ostroumovlar shunday fikrlar bilan chiqqanlar). V.V.Bartold ushbu birinchi qarash tarafdorlarga qo'shilib, "sart" forsiyzabon etnik birlik-tojikdir, desa-da, zamon o'tishi bilan uning mazmun va mohiyati o'zgarib borgan, uni na o'zbek, na tojiklar bilan aralashtirib bo'lmaydi, deydi. Shu kabi u, **dastlab sartlar til jihatdan eroniy bo'lib, keyinchalik ular turklashib ketganligini** ta'kidlaydi. Xuddi shu "turklashgan" so'ziga asosan Yu.Bregel, N. Ne'matov, Yu.Yakubov, R.Masovlar (Tojikiston FAsining akademiklari) esa **"sartlar turklashgan sug'diylar edi"**, degan fikrni olg'a suradilar.

Ikkinchi qarash tarafdorlari "sart"ning alohida etnik birlik, etnos ekanligini inkor etadilar (bunday g'oya Sherali Lapin, M. Behbudiy, I. Magidovich kabilar fikrlarida aks etgan). Ayniqsa, Sh.Lapin 1894 yilda matbuotda V.V.Bartold bilan bu masalada qattiq bahslashgan. Uningcha, "sart" etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, O'rta Osiyoning tubjoy aholisi hamda alohida "sart" tili bo'lmaganidek, **"sart" degan alohida etnos ham, maxsus xalq ham yo'q...**Demak, "sart" aniq bir etnos, elat yoki xalq bo'lmay, Turkistonning mahalliy turkiy va eroniy etnik qatlamlari qorishuvidan tarixan tarkib topgan turkiy tilli **yirik ijtimoiy toifadir**.

Xullas, aytilgan mulohazalar tahliliydan kelib chiqib, akademik A.Asqarov quyidagicha yakuniy fikrga kelgan: Birinchidan, **"sart" va "tazik"** atamalari sinonim so'zlar bo'lib, har ikkalasi ham dastlab **savdogar** ma'nosini anglatgan (ammo, yuqorida qayd etilgan, dastlab istilochi arablar bilan O'rta Osiyoga kirib kelgan **tazik** nomli **arab toifasidagi** savdogarlarini eslang-U.S.). Ikkinchidan, VIII-IX asrlarda **sug'dlar savdogarlarni "tazik" deb atashgan** va keyinchalik sug'dlarning o'zini ham tevarak-atrof aholisi shu nom bilan atashgan. Uchinchidan, IX-X asrlardan boshlab **sug'dcha "tazik" forscha "tajik"ka aylangan**. "Sart" atamasi esa ("tazik"ning sinonimi tarzida) til jihatdan **turkiylashgan sug'diylar** bo'lib, dastlab har ikkala tilning,

ya'ni sug'diy-tojik va turkiy-o'zbek sohiblari sifatida, keyinchalik (XVII asr oxirlarida) faqat **eski o'zbek tilida so'zlashuvchi o'troq aholining etnik qatlami** bo'lib qolgan.

Bizningcha, umuman, ushbu xulosaga qo'shilsa bo'ladi. Ammo bunda ba'zi izoh talab o'rinlar bor. Chunonchi, "tojik" etnonimini "tazik" atamasiga bog'lash mumkin. Lekin ulardagi etnik xususiyat bilan "savdogar" ma'nosi unchalik to'g'ri kelmaydi. Balki taziklar arablar dunyosidagi savdo-sotik va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi qadimgi **qabila(toifa)lardan birining** nomi bo'lib, **keyinchalik** uzoq davrlar tarixi taqozosiga ko'ra, ular **sug'dlashib yoki forslashib ketishgandir**. Yoinki, qadimgi **so'g'd qabilalariga tegishli urug'lardan birining** nomi bo'lishi ham mumkin. Bu urug'ning nomi etnogenez jarayonning ma'lum taraqqiyotida etnik nomga aylangandir.

Eslatish o'rinliki, Mahmud Koshg'ariy devonida "sart", atamasi bilan birlikda "təjik" (tajik-tojik) atamasi ham uchraydi. Shu kabi ba'zan fors-tojiklarga nisbatan "tot"(tat) atamasi ham qo'llanganligi qayd etilgan. Ba'zan "tot" atamasi ikki tilli aholi(turklashgan forslar)ga va uyg'urlarga nisbatan ham qo'llanganligi ta'kidlangan¹. Keyingi davrdagi O'rta Osiyo aholisi haqida so'z yuritilgan manbalarda bu atamalar, xususan, qadimdan sug'd va turk yoki o'zbek va tojik elatiga tegishli bo'lganligi uchun, ayniqsa, "sart"so'zi savdo-sotiq, kosib va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan tubjoy tojik va o'zbeklarga (asosan, aborigen o'zbek va tojik elatiga) nisbatan qo'llangan, ya'ni etnik xususiyatga ega bo'lgan nom deb ham qaralgan.

Xullas, aniq qilib aytganimizda "tazik" ham, "sart" ham, qadimgi ajdodlarimiz nomini ifodalagan. Akademik A.Asqarov fikr-mulohazalaridan kelib chiqqan holda, "tazik"lar miloddan avvalgi arabiy-forsiy va sug'diy qabilalar avlodlaridan bo'lib, qadimgi etnogenez tip jarayon bilan bog'liq holda etnik tarixning ma'lum davrida hozirgi tojik xalqi va millatining shakllanishi va nomlanishiga muhim ildiz(komponent)lardan biriga aylangan, deb qarash mumkin. "Sart"lar esa qadimgi turk-sug'd qabilalaridan sanalgan"sarmat"lar avlodidan bo'lib, etnogenez tip jarayonning so'nggi bosqichida, etnik tarix davrida o'zbek va tojik xalqlari tarkibiga singib ketishgan. Bunda o'tmishda ajdodlarimiz deb qaralgan qabilalar turli nomlar bilan atalib kelinganligini va ularning barchasining hamda ular tarkibida bo'lgan

¹. Qarang: Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-tom, 328, 368, 423, 490-bb. ; Devonu lug'otit turk. Indeks. 256, 259-bb.

urug'larning nomini hozirgi bitta xalqqa tegishli deb qaramay, umumiylik xarakterga egaligini aslo unutmasligimiz lozim bo'ladi.

Har holda, sarmat va sartrlarning shu kabi tazik-tojik va sart atamalarining bir-biri bilan etnik aloqasi hali to'lig'inch, batafsil aniqlanmaganligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Umuman, mavzuda tahlil etilgan qadimiy ajdodlardan biri- sarmat-sart qabilalari va ularning saltanati Kafkaz va Sharqiy Yevroosiyo, xususan, Markaziy Osiyo xalqlariga, jumladan (sak, massaget, xorazmiy va boshqa etnoslardek) o'zbek va tojik xalqlariga ham tegishlidir.

XUNNLAR VA ULARNING BIRLASHMALARI (DAVLATLARI)

Tarixiy manbalarda xunn(xun) nomi* bilan atalgan qabilalar haqida anchagina ma'lumotlar mavjud¹. Xasan Ato Abushiyning (XIX-XX asr boshi) yozishicha, "Xunlar miloddan avvalgi davrlarda Oltoy tog'laridan boshlab Tibet, Chin xududlarining shimoliy g'arb sahrolarigacha hamda Torim nahri va Lubnur(Lubnor) ko'llarigacha, hozirgi Mo'g'uliston sahrolaridan Turkistonu, Qirg'iziston sahrolariyu, O'rol tog'lariga qadar keng yaylovlarga tarqalishgan. Xunlar haqida Xitoy manbalarida qariib 3 ming yil avvalgi davrlardan ma'lumotlar uchraydi. Xitoyliklar ularni "Xyun-yu, Xyun-nu" keyinchalik "Xun" ba'zan "Xen"deb ataganlar. Xunlar Buxoro va Qirg'iz sahrolarini birga qo'shib, avval bir yirik va quvvatli hukmronlik tashkil etganlar. Lekin zamonlar o'tishi bilan ular 3 toifaga bo'linib, "janub xunlari yoki oq xunlar", "g'arb xunlar", "shimol xunlar"deb yuritildilar va ular tub joy qabilalar bilan aralashib boshqa nomlar bilan ham atalganlar"².

Turkshunos olim Nasimxon Rahmon ma'lumotiga ko'ra, Sak-iskit turklaridan so'ng Markaziy va O'rta Osiyo mintaqasida Xunlar hukmronlik qilishgan. Bu birlashma yoki davlat tarixda Buyuk Osiyo-Xun imperiyasi nomi bilan miloddan avvalgi VII asrdan milodiy 48-

*. "Xun" manbalarda "xunn" shaklda ham yozilgan.

¹. Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi.-T.: Cho'lpon, 1993, 62-68-bb.; Gumilev N. Xunnu.-M.:1960.; Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi.-T. Abdulla Qodiriy, 1993,12-14-bb.; Mahmudov Q. Turkiy xoqonliklar. -T. : "To'ron tarixi", to'plam, 1992. 30-b.; Hidoyatov G. A. Mening jonajon tarixim. -T.: O'qituvchi, 1992.12-14-bb.; Xo'jayev A. Qadimgi Xitoy manbalaridagi turkiy xalqlarga oid ayrim etnonimlar. "O'zbekiston o'rta asrlarda: tarix va madaniyat".-T.: 2003.; Karimov Sh. Shamsutdinov R. Vatan tarixi. 1-kitob.-T.: O'qituvchi, 1997.118-124-bb. Asqarov A. O'zbek xalqining enogenezi va etnik tarixi. -T. Universitet, 2007, 198-205-bb.va boshqalar.

² . Abushiy X.A. Ko'rsatilgan asar, 62-66-bb.

yilgacha mavjud bo'lgan. Bu saltanatning asoschisi Motun(Mochun) hoqon bo'lgan. Bu imperiya keyinchalik ikkiga, ya'ni Shimoliy va Janubiy Xun tarmoqlariga bo'lingan. Shimoliy tarmog'i tarkibiga O'rxun, Talas vohalari va Turkiston hududlari kiritilib, bu hududlarda xunlar miloddan avvalgi 482 yildan 156 yilgacha hukmronlik qilishgan. Shu kabi Chin hududi va Orol dengizi bo'yi, Amudaryo sohillari, Sibir cho'llari, Tangri tog'i va Tibet pasttekisligi kabi hududlar Sharqiy Xun davlatiga qarashli bo'lib, bu saltanat hukmronligi 48-yildan 216-yilgacha yashagan. Ayrim olimlarning yozishlaricha, xitoy solnomalarida eng qadimgi turkiyzabon xalqlar 1756 yildan boshlab "Xun", "Xunlar" nomi bilan uchraydi. Ular Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi bo'ylari hamda Shimoliy Kavkaz va G'arbiy Yevropa yerlarigacha cho'zilgan hududlarda yashaganlar. Ular ba'zi manbalarda miloddan avvalgi 207 yildan, milodiy 216 yilgacha (423 yil) hukmronlik qilishgan (Q.Mahmudov, Sh.Karimov, R. Shamsutdinovlar). Keyingi davrlarda ular Sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'lingan holda siyosat yurgizganlar. Bu birlashmalar tarkibida juda qo'p va turli nomlar bilan atalgan qabilalar kirgan. Yozma manbalarda Sharqiy va G'arbiy hoqonlik tarkibida bo'lgan quyidagi turkiy urug' va qabilalar nomlari tilga olingan: *Ashin, Arg'u, Az, Qirq az, Basmil, Duba(tuba), Dulu, Nushib, Izgil, Kurdanta, Kiton, Sir, Tatabi(tung'uzlar), Tolis, Tordush, Turk, Turgan, Tupuri, To'qri (toharlar), Uyg'ur, O'n uyg'ur, To'qqiz o'g'uz, Uch o'g'uz, O'g'uz, O'tuz tatar, Qarluq, Qimchoq, Quriqan*¹ kabilar shular jumlasidandir. Jumladan, G'arbiy-Ulug' Xun saltanati (374-469 milodiygacha) asoschisi Badamir (374-400 yy.) bo'lib, keyinroq bu tarixda Attila (434-453 yy.) hunlari nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu saltanat doirasiga Sharqiy Rus, Ruminiya, sobiq Yugoslaviyaning shimoli, Mojariston (Vengriya), Avstriya, Chexoslovakiya, Sharqiy va O'rta Germaniya kabi mamlakat xududlari tortilgan.

Ikkinchisi, Sharqiy-Oq Xun saltanati nomi bilan atalib, asoschisi Kun xon bo'lgan. Xunlarning ushbu tarmoqlari 386-557 yillarda hukm surgan va shu kabi tarixda Tavg'ach nomi bilan iz qoldirgan qabilalar birlashmasi (davlati) ham bo'lgan. Tavg'ach davlatning asoschisining nomi Shamo xon deb atalgan. Oq Xun va Tavg'achlar haqida keyinroq maxsus fikr bildiramiz.

L. N. Gumilevning asarlaridagi ma'lumotlarga ko'ra ham xunlar miloddan avvalgi III asrda 24 qardosh qabila birligidan tashkil topgan buyuk davlatni yuzaga keltirishgan. U "xunu" etnosi haqida ham fikr

¹.Mahmudov Q. Turkiy hoqonliklar. "To'ron tarii" tshplami. -T. 1992.32-b.

bildirib, xunlarning yuzaga kelishi Mo'g'ulistonning janubidagi, aniqrog'i, janubiy va shimoliy Gobi hududlaridagi aborigen (tub aholisi) Xyanyun va Xunyuy qabilalarning aralashuvi bilan bog'liq deb qaragan¹.

Tarixiy manbalarda Xitoy imperiyasi bilan Xun davlati o'rtasidagi siyosiy munosabatlar har xil tarzda bo'lganligi qayd etiladi. Asosan, Xitoy imperiyasi Xunlarning kuchayib ketishi tarafdori emas edi. Ular bilan imkoniyat darajasida ma'lum davrlarda siyosiy-madaniy aloqalar o'rnatgan, ammo hamisha raqobatda bo'lishgan. L.N. Gumilevning yozishicha, miloddan avvalgi 200 yilda Mode xon boshchiligidagi Xunlar Lyu Ban boshliq xitoyliklarni yengib, ulardan har yili o'lpon olib turishgan². Shuning uchun ham Xitoy imperiyasi Osiyo-Xunlari davrida ham, undan so'nggi davrlarda ham turkiy tilli qabilalar bilan aloqa-munosabatlarini olib borishda o'z foydasini ko'zlashgan. Ayniqsa, Xunlarning kuchayib ketishidan hayiqib, turkiy qabilalar o'rtasida o'zaro ziddiyatlar keltirib chiqarishga harakat qilishgan. Shu yo'l bilan ularni Xitoy imperiyasiga tobe yoki ittifoqdosh bo'lishga uringanlar.

Umuman, Xitoy imperiyasi Xunlar va ularga qardosh bo'lgan boshqa turkiylarni harbiy jihatdan zaiflashtirish va birlashgan qabilalarning qudratli davlatini parchalab yuborib, ular o'lkasidagi moddiy-iqtisodiy boylikdan manfaatdor bo'lishga harakat qilib kelishgan. Jumladan, Xan sulolasi davrida Xitoy imperiyasi bilan Hunlar o'rtasida munosabatlar yomonlashadi. Shunda Xan hukmdori Udi (milloddan avval 140-87 yy.) xunlarga qarshi harbiy ittifoqchi qidirib, Orol bo'ylaridan Sharqiy Turkiston(massaget qabilalari)tomoniga borgan, ammo o'z maqsadiga erisha olmagan³.

Xuddi shunday holat miloddan avvalgi I asr o'rtalarida to'ng'ich Xan sulolasiga mansub Xitoy imperatorlari Buyuk ipak yo'lini o'z nazoratiga olish maqsadida bir-biri bilan ittifoq bo'lgan Xun, Usun, Qang'ar kabi qudratli kuchga ega bo'lgan turk qabilalarini o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ladi. Shu kezlarda xunlar bilan usunlar va qang'arlar o'rtasidagi do'stlik ittifoqida o'zaro kelishmovchilik yuzaga kelgan edi. Chunonchi, Xunlarning parfiyaliklar bilan do'stlik ittifoqini tuzishi qang'arlarga ma'qul kelmagan edi. Chunki o'sha davrlarda qang'arlar bilan parfiyaliklar o'rtasida adovat bor edi. Natijada qang'arlar bilan xunlarning do'stlik aloqasiga zil ketadi. Xitoyliklar

¹. Gumilev N.L. Tisyacheletiyе vokrug kaspiya.-Baku.: Azer.Gos. Izd. 1991, str.16, 73-74.

². Gumilov N.L.Ko'rsatilgan asar, 75-b.

³. Asqarov A.Ko'rsatilgan asar,63-64-bb.

fursatdan foydalanib qang'arlar bilan do'stlik ittifoqini tuzishga kirishdi¹. Oqibatda xitoy qo'shinlari milodan avvalgi 59 yili Tyanshan orqali o'tgan shimoliy savdo yo'lining Yortkentgacha bo'lgan qismini egallaydi. Xitoy usunlarni ham o'ziga ittifoq qilib oladi.

Xunlarga qarshi ana shunday tazyiqlar natijasida qudratli Xun davlati inqirozga uchrab, ular birlashmalaridagi qabilalar asta-sekin turli hududlarga ko'chib keta boshlagan. Lekin migrasiya (ko'chish) natijasida borgan yerlarida ular aborigen (tub joy) qabilalari bilan yana yangi-yangi qudratli, jangovar birlashmalarini (davlatlarini) tuza olganlar. Ular tuzgan yangi davlatlar yuqorida qayd etilganidek, manbalarda turli nomlar bilan atalgan. Xitoy va boshqa manbalarda bu kabi juda ko'p ma'lumotlar uchraydi.

Akademik A.Asqarovning qator asarlarida, jumladan, "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" kitobida turkiy xalqlarning qadimgi tarixi bo'yicha xitoy manbalaridagi ma'lumotlar, jumladan, N.Gumilev, S.V. Kiselov, A.Xo'jayev va boshqa olimlarning fikr va mulohazalarida ham xunlar o'tmishi ishonchli talqin etilgan. Undagi xunlar va ularning nomi haqidagi muhim fikr-mulohazalar asosli dalillar bilan yoritilgan. Bu ma'lumotlardan muhimlarini alohida qayd etish mumkin.

Chunonchi, L.N.Gumilevning "Xunnu" asarida yozishicha, eng qadimgi turkiy tilli qabilalar haqidagi ma'lumotlar xitoy tarixiy manbalarida miloddan avvalgi 1764 yildan boshlab uchraydi. So'ng miloddan avvalgi 822 va 304 yillardagi manbalarida ham muhim ma'lumotlar borligi qayd etilgan².

Xitoy tarixiy manbalarida, jumladan, Sima Syanning "Tarixiy xotiralari"ga asoslanib yozilgan "Xitoy tili katta iyerogliflar lug'ati"da shimoliy Xitoy "Shya" hokimligining shimoliy g'arbiy chegaralarida "xu" yoki "xulu" nomli chorvador qabilalar yashardi, degan ma'lumot berilgan. Xuddi shunday ma'lumot Si Yuanning "So'zlar etimologiyasi" lug'atida ham mavjud. Xan sulolasi tarixi "Xunlar tazkirasi"ning ikkinchi qismida "janubda buyuk Xan, uning shimolida esa kuchli "xu" mavjud deb xunlarga ishora qilgan. Sharqiy Xan tarixchisi Chjeng Shyuan "xu" hozirgi "syunnu", ya'ni hunn, deb yozgan³. Xitoyshunos olim A.Xo'jayevning yozishicha, manbalarda qo'llangan "xu" va "xulu"

¹ . Asqarov A. Ko'rsatilgan asar, 169-181-bb.

² . Gumilov N.L. Ko'rsatilgan asar, 23-b.

³ . Asqarov A. Ko'rsatilgan asar, 202-b. (Xitoy tili katta iyerogliflar lug'ati. 3-jild, 2057 bet.; Si Yuan. So'zlar etimologiyasi. 1218 bet.).

turkiycha “hur” atamasining xitoycha talaffuzidir. Xitoy tilida “r”undoshi talaffuz etilmasligi sababli iyeroglif bilan ifodalashda “hur” atamasi “hu”shaklda yozilgan¹.

(Biz oldingi mavzularimizda “hur” atamasining lug’aviy ma’nosini bir yerda bog’lanib, turg’un turmaydigan, o’ziga-o’zi bek-erkin, ozod holda ko’chib yashaydigan qadimgi turkiy tilli qabilalarga xosligini ta’kidlab, “Avesto” tildagi arya (ariya, oriy)ga mazmunan mos kelishini ham aytgan edik. Oriylardagi jangovorlik ruhiyat, chapdast suvoriylik xususiyati, xuddi shu “xur”, ya’ni xunlarga ham xos bo’lgan. Ular G.A.Hidoyatov aytganidek go’yo harbiylashgan qabilalar sanalgan)

Ushbu aytilganlardan kelib chiqib, akademik A. Asqarov quyidagicha xulosaga kelgan: “Shunday qilib, yuqorida nomlari keltirilgan qadimgi xitoy yozma manbalariga ko’ra, shimoliy Xitoy kichik podsholiklarining shimoliy, shimoli-sharqiy va shimoli-g’arbiy chegaralarida mil.avv. III-II ming yilliklar davomida “xu”, “dingling(tingling)”, “tele(chele/chile)”, “di”, “hunn” nomlari ostida chorvador qabilalar jamoalari yashashgan. Bular aslida “hu”avlodlaridir (A.Xo’jayev)².

Milodiy III-IV asrlarda ular “turo” nomi bilan yuritilgan. “Tele” va “turo” aslida bitta nom emas, balki turkiy tilli qabilalarning turli urug’idir. “Di”lar xitoy yozma manbalarida “dingling”, “guyfang” lar, keyinchalik bu qabilalar Lyuy Simyanning yozishicha, “chile, tele” nomi bilan atalsa, g’arb mamlakatlarida ularni turk deb atashgan, aslida turk va uyg’ur dinglinglar tarkibidadir... Chilelarni xitoylar “Gavche”(qangli) deb ham atashgan. Bu qabilalar turlicha atalsa-da, ularning kelib chiqishi birdir.

Manbalarining guvohlik berishicha, dastlab turkiy qabilalarning siyosiy uyushmasiga “Hu”lar, keyin “Di”lar, so’ng esa “Xunn”lar nomi bilan yuritilgan turklar yetakchilik qilishgan. Manbalarda yozilishicha, Hunlar hokimiyati inqirozidan keyin, Atilla (Attila) bilan G’arbga ketmay, o’z joylarida qolib ketgan turkiy qabilalarga “Turo”qabilasi bosh bo’lib, o’z tarkibiga 44 ta qabilani birlashtirgan. Ularning nomi shimoliy sulolalar tarixida keltirilgan. Ular Xitoy iyerogliflarida davriga qarab, turlicha talaffuz etilgan bo’lsa-da, ularning turkiy etnosga tegishli ekanligi ma’lum bo’ldi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari aynan mana shu hududlarda bronza davrida Andronov madaniyati sohiblari yashaganligini tasdiqlaydi. Andronov madaniyati yodgorliklari Janubiy

¹ . Xo’jayev A. Ko’rsatilgan asar, 178-184-bb.

² . Asqarov A. O’zbek xalqining enogenezi va etnik tarixi, 203-b.

Sibirning g'arbidan O'rol tog' tizmalarining janubiy-sharqiy mintaqalarigacha yoyilgan. S.V. Kiselyov mil.avv. XVIII asrda Minusinsk past-tekisligi va Yeniseygacha yoyilgan Andronov madaniyati yodgorliklari quyi Volga, Don va Dones cho'llarining Srub madaniyati bilan ko'p jihatdan yaqinligini alohida ta'kidlab o'tadi. Ularning keng tarqalgan yerlari quyi Volgadan to Mongoliyagacha, janubiy-sharqiy O'roldan to O'rta Osiyogacha cho'zilgan cho'l mintaqalari edi (M.P.Gryaznov, Ye.Ye.Kuzmin, N.A. Avanesova). Demak, qadimgi xitoy yozma manbalarida tilga olingan "xu", "di", "guyfang", "tufang", "rung", "hunn" va boshqa azim sahro sohiblari qadimgi turkiyda so'zlashuvchi Andronov madaniyati egalari xos bo'lishgan¹.

Demak, ana shunday ko'hna tarixga ega bo'lgan xunlar turkiyzabon qabilalardan hisoblanadi. Ular o'zlarining ilk, ya'ni miloddan avvalgi davrlardagi tarixiy jarayonlarda qudratli va jangovar davlatlariga ega bo'lgan bo'lsalar, keyingi davrlarda, milodiy davrlarda ham bu xususiyat ularda saqlanib qolgan. Ularning avlodlari tomonidan milodiy davrlarda ma'lum mintaqalarda yana qudratli turkiy davlatlarni tuzganlar. Lekin ular turli qabila nomlari bilan atalgan.

Xunlarning va boshqa qardosh turkiy qabilalar ittifoqlarini, xususan, ahilligini, jangovarlik kuch-qudratini sindirib, o'ziga tabe etish yo'lida Xitoy imperatorlari turli yo'llardan foydalanganlaridek, milodiy davrlarda ham bunday tazyiqlar ularning avlodlari tuzgan yangi davlatlarga nisbatan ham davom etgan. Masalan, manbalarda Oq Xunlar yoki Eftalitlar davlati nomi bilan atalgan qudratli saltanatini Eron davlati zaiflashtirishga va inqirozga uchrashiga sabab bo'lgan.

Eron o'sha davrlarda O'rxun-Enasoy vohasida shakllangan qudratli Turk hoqonligi bilan kelishib, Oq-Xun yoki Eftalitlar davlatiga zarba berishni rejalashtirgan. Chunki, Eron ahmoniylari bu davlatning kuchayib ketishidan hadiksiragan. Shu kabi xitoyliklar qudratli Davan, Qang va boshqa turk qabila-urug'lari birlashmalarini zaiflashtirish uchun tazyiq o'tkazishgan...

Xullas, qayd etilgan tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, Xunlar ma'lum davrlarda ancha yuqori mavqyega ega bo'lgan qudratli Buyuk Xun(Xunn) imperiyasini tuzganlar. Buyuk imperiya inqirozidan so'ng bu ittifoq tarkibidagi ba'zi qabilalar o'z nomlari bilan yangi siyosiy uyushmalar-hokimlik tipidagi davlatlarini tuzganlar. Yuqorida qayd etganimizdek, Oq Xun yoki Eftalitlar va Tavg'ach, Davan, Qang'

¹. Asqarov A. Ko'rsatilgan asar, 202-b.

(qang'ar) kabi davlatlar shular jumlasidandir. Bu davlatlarning nomlari asosan birlashmaga asos solgan qabilalar nomi bilan atalgan. Ular dastlab bir necha yirik urug'lar va kichik qabilalar birlashuvidan hokimlik tipidagi mustaqil siyosiy uyushmalar tarzida yuzaga kelib, keyinchalik davlat tipidagi yirik qabilalar birlashmalarga aylanganlar va ancha keng hududlarni o'z ta'sirlariga qaratganlar. Bu holat Xunlarning migrasiyasi tufayli ham ancha oldingi davrlardan boshlangan. Umuman, xunlar ilk turkiyzabon qabilalardan biri bo'lib, Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalardagi ba'zi xalqlarining, jumladan, o'zbeklarning ham eng qadimgi ildizi-ajdodlari sanaladi.

EFTALITLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)

Tarixiy manbalarda Buyuk Xun imperiyasi tanazzulga uchragan davrlardan boshlab, Kun xon boshchiligidagi turkiy qabilalarning Oq Xunlar nomli davlati yuzaga kelgan. Bu davlat Nasimxon Rahmoning yozishicha, O'rta Sharqiy-Xun-Eftaliy saltanati nomi bilan ham atalgan. Chin manbalariga oid "Kao-chu" nomli asarda yozilishicha, eftalitlar(oq xunlar) bir qancha qavmlaru urug'larni birlashtirgan turkiy sulolalardan biri bo'lgan. U qavmlar Kushon urug'iga mansub kidaritlar, turgash, tavg'ach, xuon urug'lari qardosh sanalgan. Eftalit qabilasi uyushmasi tarkibida eng qudratlisi xuonlar bo'lgan. Kushonlar Hindistonning eng katta qismiga hamda Afg'oniston va Movarounnahrda hukmronlik qilganda bu qabilalar (eftalitlar ham) o'z mavqeiga ega bo'lgan. Keyinchalik bu hududlar Eftalit nomi bilan mashhur bo'lib, tarix sahifasidan o'rin olgan. Bu davlat tasarrufiga Hindistonning yarimi, Afg'oniston va Turkistonning katta qismi kirgan. Oq Xun saltanati 367 yildan 560 yilgacha yashagan. Bu davrlarda Movarounnahr va Eron hamda shimoliy Hindistonda turk urug'larining o'rni mustahkamlana borgan¹.

Eftalitlarning avlodlari turkiy xalqlarning ildizlariga borib taqaladi. Tarixchi Sh. Karimov va R. Shamsutdinovlar eftalitlar haqida ma'lumot berganda, "aksariyat ko'pchilik olimlar eftaliylarni milodimizdan avvalgi I asr bilan milodiy IV asr o'rtalarida Yettisuvdan va yanada sharqroqdagi mintaqalardan Orol dengizi bo'ylariga kelib qolgan xunlar bilan aralashib ketgan holda Xun qabilalaridan turkiy tilini qabul qilgan Orol bo'yi sak-masaget qabilalari avlodlaridandirlar,

¹. Nasimxon Rahmon. Ko'rsatilgan asar, 12-16-bb.; Mahmudov Q. Ko'rsatilgan asar, 30-b.; Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-kitob, 118-119-bb.

degan g'oyani ilgari suradilar"¹, deb yozishgan. Ba'zi manbalarda V asrning o'rtalarida O'rta Osiyo, Afg'oniston, Shimoliy - Sharqiy Hindiston, Sharqiy Turkistonning bir qismi va Tohariston hududlari Eftalitlar davlati hukmronligida bo'lgan, degan ma'lumotlar berilgan. Eftalitlarning tarkib topgan yerlari asosan (S. P. Tolstovning fikricha Orol bo'ylaridan) Sirdaryo va Amudaryoning yuqori havzasidir². Eftaliylar davlatining siyosiy markazi-poytaxti qayerda bo'lganligi haqida qat'iy ma'lumot yo'q. Taxminiy fikrlarga ko'ra uning poytaxti Poykand (qadimiy Buxoro shahriga yaqin) yoki Balx hududi bo'lgan³(Sh.Karimov, R. Shamsutdinov). Eftaliylarning sug'dlar bilan qadimiy aloqadorligi haqida ham ma'lumotlar bor. Sh. Karimov, R. Shamsutdinovlarning yozishicha, Eftaliylar podsholigida sug'd tili ham qo'llangan. Ularning davlatida sug'd yozuvidan tashqari, sug'd yozuviga o'xshash-buxor yozuvi, xorazmiy va eftal yozuvlari keng tarqalgan.

Xitoy manbalari ma'lumotiga ko'ra, eftaliylar cho'qmorlar bilan jang qilganlar, ular nihoyatda bahodir, jangovar va mard qabilalardan bo'lganlar. IV-V asrlar ular davlatining gullab yashnagan davri bo'lgan. Ular bu davrlarda Markaziy Osiyodagi nufuzli va qudratli davlat sanalgan Eron saltanati bilan siyosiy kurashda raqobatda bo'ladigan, teng keladigan darajadagi mavkega ega edilar. Shuning uchun Eron davlati eftalitlarning kuchayishiga qarshi har xil tadbirlar belgilab, uning ta'sirida bo'lgan hududlarga bosqinchilik xurujlarini amalga oshirib kelgan. Lekin ma'lum davrlarda Eftalitlar Eron davlatidan ustun kelishgan. Masalan, Sh.Karimov, R. Shamsutdinovlarning yozishicha, 457 yilda Eftaliy podshosi Eron davlati ta'sirida bo'lgan Vaxshunvor Chog'oniyon, Tohariston va Badaxshon hududlari hokimliklarini o'ziga bo'ysundiradi. Eftalitlarning kuchayib ketayotganidan tashvishlangan Eron sosoniylar sulolasining shohi Peroz(Peruz) Eftalit davlatiga qarshi yurish qiladi. Ammo Peroz qo'shinlari yengilib, shoh asirga tushadi va Vizantiyaga murojaat qiladi. Shunda sosoniylar tomonidan ilgari bosib olingan Taliqon shahrini qaytarib berish hamda Varaxran V davrida belgilangan chegaradan nariga o'tmaslik majburiyatini olish va katta tovon(pul) evaziga Eftalit hukmdori Vaxshunvor Eron shohi Perozni asirlikdan ozod etadi. Ammo Peroz o'z va'dasini bajarmaydi va kuch to'plab, eftaliylarga qarshi ikkinchi martaba hujum qiladi. Lekin Peroz yana mag'lubiyatga uchrab asir tushadi.

¹. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Ko'rsatilgan asar, 112-b.

². O'zbekiston tarixi va madaniyati, 41-b.

³. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Ko'rsatilgan asar, 116-b.

Suriya manbalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, ikkinchi martaba Perozni asirlikdan ozod etish uchun kumush dirhamlar bilan to'ldirilgan qoplar ortilgan 30 ta xachir berish majburiyati yuklatiladi. Ammo bu majburiyatni u faqat uchdan ikki qismini bajara olishini ma'lum qiladi va majburiyatni qolgan qismi uchun go'dak o'g'li Kovad(Qubarni garovga qoldirish hamda ikki yil davomida eftaliylarga katta xiroj to'lab turish majburiyatini oladi. Peroz keyinroq Vizantiya yordamda uchinchi martaba eftaliylarga hujum uyushtiradi. Bu so'nggi huruj natijasi Perozning mag'lubiyati va o'limi bilan tugaydi. Shundan so'ng eftaliylar Marvni ham egallaydilar va ular Eron davlatiga juda katta o'lpon soliqlarini soladilar. Sal oldinroq So'g'dni egallagan Eftalit davlati Qobul, Panjob vodiysini va Qarashar, Kuchu(Kucha), Qoshg'ar, Xuton (Xo'tan) hududlarini ham zabt etgan...

Eftaliylar o'tmish davrlari tarixiga oid ba'zi bir madaniy yodgorliklar hozirgi O'zbekiston hududlarida ham saqlanib qolgan. Bular Xorazm viloyati hududidagi Firqal'a (Qiyot-Beruniy yaqinida), Buxoro viloyati Poykand va boshqalardir. Arxeologik ashyolar Poykand Eftaliylar davrida shuhrat topgan yirik shaharlardan bo'lganligidan guvohlik beradi. Tarixnavis Narshahiy Baykend (Poykand)ni "Buxoro shahridan qadimiyroq" deb hisoblagan¹. Demak, manbalarda qayd etilganidek, ma'lum bir davrlarda Poykand Eftalit davlatining poytaxti bo'lgan deyish mumkin.

Tarixiy manbalarda eftalitlarning nomlari turlicha atamalar bilan berilgan. Chunonchi, Xitoy manbalarida «ida, yeda, idan», Suriya va Lotin manbalrida "eptal, abdal", arman manbalarida esa "idal, tetal, xeptal", arab va forslarda esa "haytal, yaftal, hyetal", hindlarda "huna"² kabilar shular jumlasidandir. Tarixchi Azamat Ziyoning yozishicha. xitoy manbalarida eftalitlarni turkiy tilli elatlar (tukyu) bilan bog'liq ravishda qaralib, "yuechji" yoki uyg'ur qabilalariga tegishlidir. Vizantiyalik tarixchi Prokopiy (IV asr), esa eftaliylarni xunlar avlodiga tegishli deb qarab, oq tanli qabilalarga kiritadi.

Azamat Ziyo bu masaladagi mulohazalarida "ko'rilgan manbalarining birortasida ham eftaliylarning eroniy xalqlar jumlasiga kiritilgani yoki bo'lmasa shunga biron ishorani uchratganimiz yo'q", deb yozadi. Olim o'z fikrining davomida hindlarning «Bahman-Yasht»idagi "eftaliylar eroniy emas," degan fikrni ham keltiradi. Shu

¹. Karimov Sh, Shamsutdinov R. Ko'rsatilgan asar, 17-18-bb.; Narshaxiy. Buxoro tarixi. -T.: Kamalak, 1991, 100-b.

². Azamat Ziyo. O'sha asar 72-73-bb.

kabi Xitoy manbalaridagi “idan” (eftaliylar) sulolasi xitoyliklarning Xan sulolasi davridan ma’lum bo’lgan “Katta yuechji” avlodidan. Daxiya (Baqtriya) bu Tuxola (Toxariston) demakdir, xukmdorining nomi Yede Eftal, (Eftalan, Eftalit) bo’lgan. Ana shu nom bilan keyinchalik ,uning avlodlari va davlati atalib kelingan. Urf-odatlarini tukyularnikiday,”¹ degan ma’lumotlarni bergan. Qayd etilgan o’zbek olimlarining tarixiy manbalardan keltirgan dalillari o’rinli, ularni inkor etish qiyin.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo, xususan, Mavoraunnahr hududlarida bu davrlarda turkiy qabilalarning mavqeyi yuqori bo’lgan. Ayniqsa, Turk Hoqonligi nomi bilan mashhur bo’lgan turkiy Ashin urug’i qabilalarning VI asrning 60 yillarida zaiflashib qolgan Eftaliylar davlatiga o’z ta’sirini singdirib, bu hududda ham o’zining hukmronligini o’rnatishi natijada aborigen turkiy tilli qabilalarning mavqeyi yanada oshdi. Chunonchi, Hoqonlik tarkibidagi qabilalar bilan kelgan qarluq, turkesh, o’g’uz (va ular takibida bo’lgan az, us, o’z nomli urug’lar), kadan, qirg’iz, tele(chile), chik boshqa turkiy urug’-qabilalar² avlodlari Eftalitlar davlatida ham ancha oldindan mavjud bo’lib, allaqachon aborigen(tub aholi) holatiga kelgan edi. O’sha davrlarda Markaziy Osiyoda, xususan, Movarounnahr hududlarida har xil dialekt-shevalarda so’zlashuvchi qabilalarning yaqinlashuvi, birikuvidan qabilalararo tushunadigan qadimgi umumturkiy tilning ildizi shakllangan edi. Chunonchi, eftaliylar tilining bir qatlamli qadimgi “ж (dz)” dialekti bilan aloqador bo’lsa, ma’lum bir guruhi esa “y” lashgan dialekt vakillari bo’lgan: adzaq-azaq-ayaq(oyoq), kedzin-kezin-keyin kabi. (Bunday xususiyatlarni hozir ham o’zbek shevalarida uchratish mumkin. Masalan, hozir ham Jizzaxda shevasida “kezin” shakli “ketin” (keyin) tarzida qo’llanadi.)

Turk Hoqonligi uyushmasi tarkibidagi urug’-qabilalarning aksariyati ham, asosan, shu til (dialekt)lar vakillari bo’lishgan³. Lekin turkiy tilning mavqye qanchalik yuqori bo’lgan bo’lsa-da, ularning Buxoro va Samarqand vohasidagi sug’dlar bilan munosabatini ham unutmaslik kerak. Ular tilida ikki til, ya’ni turkiy-sug’diy tildagi xususiyatlarning mavjud bo’lishi, tabiiy edi. Zero, arxeologik materiallar

¹. Azamat Ziyo. O’sha asar 73-b.

². Shoniyozov K. Qarluq davlati va qarluqlar. –T.: Sharq, 1999. 167-176-bb., shu muallif- K. etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda, str.43.; Kononov A.N. Grammatika yazika tyurkskix runicheskix pamyatnikov «VII-IX vv.»-L.: Nauka, 1880. Str.46.; Abduraxmonov G’. O’zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida 69-b.

³. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Ko’rsatilgan asar, 129-b.

va yuqorida aytilgan tarixiy manbalar ma'lumotlari bu fikrni tasdiqlashi mumkin. Ushbu xududlardan arxeolog olimlarimiz, xususan, M.Isoqov A.Otaxo'jayevlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar¹ asosida topilgan ashyoviy dalillar, yozma yodgorliklar bu masalada muhim o'rin egallaydi. Umuman, eftalitlar qadimgi Turkiston elatlarining avlodlaridan biridir. Bu qabilalarning mavjud bo'lganligi juda qadimiy bo'lsa-da, ular davlatining shakllanishi va siyosiy maydonga chiqishi IV-V asrlardan boshlangan edi. Ayniqsa, eftaliylar va ularning tili qadimgi turkiy, jumladan, turkiy-sug'diy bo'lgan. Shuning uchun eftalitlar hozirgi Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek va tojiklarning avlodlaridan biri sanaladilar

TAVG'ACHLAR VA XUNG-NULAR HAMDA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)

Tavg'achlar ham xun imperiyasi tarkibidagi turkiy urug'lardan biri bo'lgan. Bu urug'lar ham xunlar davlati inqirozga uchragan davrlarda kuchayib o'z birlashmasini tuzgan. Zero, shu davrlarda Shin-si, Kan-si, Yan-si daryosiga qadar cho'zilgan sohillar va Markaziy Osiyodagi Qashg'ar, Turfon hududlari hamda Urxun vodiysidagi juhan davlati sharqidagi ba'zi joylarda hukmronlik qilgan Tavg'ach nomli davlat ham yuzaga kelgan edi. Tavg'ach davlatning asoschisining nomi Shamo xon deb atalgan. Ushbu saltanat tarkibiga xung-nu, eftalit, o'g'uz guruhi, avar, to'ba(tabg'ach) kabi urug'lar kirgan. Xung-nular oliy nasab sanalgan. Davlatni asosan shu qabila boshqargan. Xung-nu turklari ilk buyuk Markaziy Osiyo davlatining tashkilotchilaridan sanalgan. O'sha davrda 24 qumondon yoki qabila oqsoqoli (qabilalar boshliqlari -U.S.) davlatni idora etgan va ularni Motun boshqarib turgan. Xung-nu turklari ana shu 24 urug'ga mansub bo'lgan. Ular miloddan avvalgi II asrda xakas va uyg'ur turklarini o'z qabila birlashmasiga qo'shib olgan. Xung-nularning eng ko'p sonli jamoasi Osiyo-Xun sulolasining tirgagi sanalgan. Bu qabilalarni xitoylar Giala va Ting-Ming deyishgan. Xung-nular birlashmasi tarkibidagi ba'zi qabilalar (uyg'ur, o'g'uz, eftaliy guruhidagi qavmlar)ning ma'lum bir qismi Movarounnahrda tubjoy aholi bilan aralashgan bo'lgan (Tabg'ach va Hung-nular va ularning birlashmasi haqida Nasimxon Rahmonning "Turk hoqonligi" kitobida anchagina ma'lumotlar berilgan)².

¹. Qarang: Isoqov M., Otaxo'jayev A. Qadimgi yozma yodgorliklar. -T.: "Yozuvchi", 2000.

². Nasimxon Rahmon. Ko'rsatilgan asar, 14-15-bb.

Xullas, xung-nu, eftalit, o'g'uz guruhi kabi qabilalar ham O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining shakllanishi jarayonidagi ilk ildizlar sanaladi. Ular tuzgan davlatlar esa o'zbek va tojik xalqlari davlatchiligining ilk bosqichlari hisoblanadi.

TURKLAR VA ULARNING BIRLASHMALARI (DAVLATLARI)

Deyarli barcha manbalarda turkiy tilda so'zlashuvchi qadimiy va yirik qabilalardan biri **turk** nomi bilan qayd etiladi (ba'zi adabiyotlarda turklar miloddan avvalgi davrlardan mashhur bo'lgan xunlarning avlodlaridan biri sifatida talqin qilingan¹). Turkshunos Hasan Ato Abushiyning yozishicha, turkiy urug'-qabila Turoniyaning, ya'ni qadimgi Turkistonning qabilaboshi, juda eski va ulug' sho'basidir. Uning o'ziga xos bir qancha shaxobchalari (shajarasi) bo'lgan. Hasan Ato Abushiyning qayd etishicha, "nemis olimi Fridrix Muller Turoniya qavmining 52 tasini sanagan. Eng eski Xitoy, Yunon, Turkiya, Eron, Ovrupa, Rus tarixiy manbalarida 80 tadan ortiq turkiy tilli urug'-qabilalarning nomi zikr etilgan. Bu qabilalar dastavval Skiflar so'ngroq esa Xunlar ittifoqiga kirganlar."² Xunlar nomi bilan umumlashgan turkiy qabilalar miloddan avvalgi 207-yildan to milodiy 216-yilgacha Sharqiy va G'arbiy qismga bo'lingan holda Ulug' Xun saltanatini tuzganlar.³

Q. Mahmudovning ma'lumotlariga ko'ra, eng qadimgi turkiy tilli elatlar xitoy yozma manbalarida miloddan avvalgi 1776-1775 yildan boshlab, Xun nomi bilan qayd etilgan. "Turk" tarzida esa milodiy V asrdan boshlab uchraydi. Xun nomi bilan atalgan turkiy urug'-qabilalar ham o'troq va ko'chmanchi tarzda yashaganlar. Ular Markaziy Osiyo, Kaspiy bo'ylari, Shimoliy Kavkaz va Sharqiy Yevropa hududlarida tarqalishgan. Sharqiy va G'arbiy Turk hoqonliklarini tashkil etishda turkiy urug' qabilalaridan *Ashin, Arg'u, Az, Basmil, Izgil, O'g'uz, To'qqiz, Uch o'g'iz, O'n uyg'ur, O'g'iz tatar, Qarluk, Qurdanta, Qimchoq/qipchoq/, Kiton, Qirqaz, Tordush, Tatabu, /tungizlar/, Dulu, Nushub(Nushibi), Tuqri/toxarlar/, Tolis, Turgan,*

¹. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, 1-k., 118-b; Hidoyatov T.A. Mening jonajon tarixim.-T.: 1992., 13-b.

². Abushiy. X.A. Turkiy qavmlar tarixi., 121-b.

³. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Ko'rsatilgan asar, 118, 119-b.

Tupuri, Turk, Uyg'ur, Sir, Qurqon, Duba /tuba kabi qabilalar qatnashgan.¹

Xullas, bu qabilalarning birlashuvi, turkiy elatlar etnogenezidagi ilk davri sanaladi. Ta'kidlash joizki, "Turk (turkiy,turkona) shakldagi etnonimining asl lug'aviy ma'nosi adabiyotlarda har xil izohlangan. Ba'zi tadqiqotchilar "turk" so'zini "Shohnoma"dagi To'ron, Tur, atamalari, ba'zilari esa urug'-qabila yoki ularning birlashmalari, ya'ni ittifoqlarning umumlashgan nomini ifodalaydi, deyishsa, ayrimlari "tur", yuqori, baland, cho'qqi, xudoga yaqin kabi ma'nolarini anglatadi", deb ta'kidlaydilar.² Gerodotda "Tarkita", hindlarda "Turuxa", xitoy manbalarida "Tukuya" tarzida uchraydi³. Navoiy asarlarining lug'atida "turk" so'zi etnik nom("Turk") va majoziy 1) go'zal, 2) quyosh ma'nolarida izohlangan⁴.

Turk atamasi yozma manbalarda, tor ma'noda urug' yoki qabila nomini ifodalagan, keng ma'noda esa barcha turkiyzabon urug'-qabila elatlarning umumlashgan nomi sifatida qo'llanilgan. Jumladan, Xuroson, Movarounnaxr yerlarida, ko'pincha turg'un holda yashovchi turkiy tilli (jumladan,qarluq-chigil) urug'-qabilalari "turk", "turkiy", "turkiy o'zbeklar(o'zbek)" nomi bilan atalganlar.

Manbalarda yozilishicha, milloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida Markaziy Osiyoning cho'l va dasht mintaqalarida, ayniqsa, Janubiy Sibir, Tog'li Oltoy, janubiy-sharqiy O'rolorti mintaqalarida, Qozog'iston dashtlarida chorvador qabilalar hayotida tub ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy o'zgarishlar yuz bergan. Mulkiy tabaqalanish natijasida jamiyatda zodagonlar tabaqasi, ozod va erkin mulk egalari yuzaga kelib, ular mulkining quriqchilari ham tashkil etildi. Natijada harbiy chorvadorlar tabaqasi ham vujudga keldi. Bu jangovar suvoriy otryadlar, umuman mulkdor chorvadorlar "Avesto"da **turlar** va **oriylar** nomi bilan atalgan⁵.

III-IV asrlarda turkiy tilli qabilalardan biri **Turo** nomi bilan atalgan. Oldingi mavzularda qayd etilganidek, xunlar saltanati inqirozga uchagan davrlarda **Turo** qabilasi boshchiligida turkiy birlashma

¹ . Mahmudov K.Turkiy hoqonliklar."To'ron tarixi".To'p. -T.: 1992.32-b.; Abushiy. X.A. Turkiy qavmlar tarixi, 121-b.; Karimov Sh., Shamsutdinov R. Ko'rsatilgan asar.116-b.

² . Jabborov I.Ko'rsatilgan asar., 72,73-b.

³ . Chavad hej'et.Turklarni tarix ve medenijetine bir baxish.Azarbajchan Davlat neshirijjni.-Baki.: 1993, 9-b.

⁴ . Navoiy asarlarining lug'ati.-T.1972.,617-b.

.Abduraxmonov G'.Ko'rsatilgan asar, 21-b.

⁵ . Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi,162-b.

tuzilgan. Bu birlashma tarkibiga 44 ta qabila birlashgan bo'lib, bu haqda shimoliy sulolalar tarixida ma'lumot berilgan¹. Aytish joizki, Turkiy tilli qabilalarning O'rta Osiyoga ilk bor kelib joylashishi bronza davriga borib tarqaladi, shu kabi bu o'lkaga keng tarqalishi Da-yuyechji qabilalari va xunnlarning kirib kelishi bilan yanada kuchaygan². Keyinchalik Oltoy o'lkasi hududlarida 552 yilda (VI asrda) turkiy qabilalarining birlashuvidan yuzaga kelgan Turk hoqonligi Markaziy Osiyo, jumladan, Movarounnahr turkiy qabilalarning taraqqiyotida ham o'ziga xos o'rni bo'lgan. Bu hoqonlik birlashmasi qarluq, turkesh (turgash), qirg'iz, turkman, qipchoq, kadan, tele, chik, az/o'z va boshqa urug' qabilalardan tashkil topgan edi³.

G'.Abdurahmonovning yozishicha ushbu xoqonlikda ashin/ashid urug'i asosiy mavkega ega bo'lgan va bu urug' qipchoqlarga emas, balki o'g'uzlarga mansubdir. A.N. Kononovning yozishicha, bu urug' o'g'uz tillari kabi so'z boshida "m" o'rniga "b" undoshini (m<b) qo'llaydilar, chunonchi, kishilik olmoshlari "ben/bin, bengü" shaklda, chiqish kelshigi "-dan/tan,-din/tin", sonning ikki shakli "ukugun"-ikigun va kelasi zamon fe'liga xos qo'shimchalardan "-taki" kabi shakllari qo'llanilgan⁴.

Bu hoqonlik, qayd etilgan urug'-qabilalar ishtirokida, 563-567 yillarda zaiflashib qolgan turkiy eftalitlar davlati xududiga o'z ta'sirini kuchaytirib, hukmronligini o'rnatadi. Asta-sekin Oltoy o'lkasi, butun Markaziy Osiyo, Shimoliy Hindiston, Mo'g'uliston, Sharqiy Turkiston, Kaspiy dengizi-Sharqiy Erongacha bo'lgan xududlarni o'ziga tobe etib, bu hududlardagi urug'-qabilalarni birlashtiradi va qudratli Turk xoqonligi uyushmasi (davlati)ni vujudga keltirdi. Bu uyushmada asosan turkiy qabilalar(ayniqsa, qarluq, qipchoq, o'g'uz kabi qabilalar) yetakchi edi. Shuning uchun bu uyushmani manbalarda qadimgi turkiy uyushma deb atashgan. Ushbu xoqonlik uyushmasining o'ziga xos muhim tarixiy xususiyati shundaki, bu xoqonlik hukmronligi davrida

¹. Ko'hna Tang sulolasi tarixi.2-qism.199 bob,15393 b.(Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 203-b.)

². Asqarov A. Mustaqillik yillarida tarix, arxiologiya va etnologiya.-T. "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnali, №6,1996.71-b., shu muallif, O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 245-b.

³. Shaniyazov K.Sh..K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda.- T.: 1974.,str.43.; Kononov A.N. Grammatika yazika tyurkskix runicheskix pamyatnikov «UP-1X vv. -L.: 1980.,str.46.; Abdurahmonov G'.O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida.-T.: 1999.(Turk xoqonligi ba'zi adabiyotlarda-dastlabki turk xoqonligi (551-633-), ikkinchi turk xoqonligi (687-774-) va janubiy xoqonlik (603-766-) davrlarga bo'lingan) 69-b.

⁴. Abdurahmonov G'. Ko'rsatilgan asar, 20-b.; A.N.Kononov. Ko'rsatilgan asar, 4.; Hidoyatov T.A. Mening jonajon tarixim, 13-b.

yuksak madaniylik belgisi-yozuv va yozma yodgorliklarning mavjud bo'lgan. Bu yozuv xoqonlik hukmronligida bo'lgan hududlarda keng qo'llanilgan. Shuning uchun Turk xoqonligi davrida yaratilgan yozma yodgorliklar turli hududlarda yaratilganligiga qaramay (hozirgi davrgacha yetib kelgan ularning yozma namunalari), lisoniy xususiyatlari jihatida deyarli bir xil yoki o'xshashdir. Ana shu umumiylik xususiyatlariga ko'ra ular umumturkiy bitiklar va tili ham umumturkiy til deb nomlangan¹.

Til va yozuv birligi natijasida Turk hoqonligi tarkibidagi qabilalar o'rtasida yagona ittifoq yuzaga keldi. O'sha davrda Markaziy Osiyoda, jumladan, Movarounnahrda umumiy dialekt-shevalarda so'zlashgan qabilalarning yaqinlashuvi, birikuvidan qabilalararo tushunadigan umumturkiy tilning ildizi vujudga kela boshlagan. Masalan, ta'kidlaganimizdek, eftalitlar tilining dialektal asosi "J"(qadimgi "δ") til guruhiga kirgan. Jumladan, Turk hoqonligi uyushmasi tarkibidagi urug'-qabilalarning ham bir qismi "j" (qadimgi"δ") dialektida so'zlashganlar. Eftalitlar tarkibidagi ba'zi urug'lar tilida"y"lashish ham mavjud bo'lgan. Natijada shu davrlardan (VII asrdan) boshlab "y" dialektiga xos xususiyatlar ham qadimgi umumturkiy tilga aralashib, asta-sekin rivojlana borgan². Har holda milodiy asrdan oldingi davrdan boshlab turkiy qavmlar va ularning tili, ayniqsa yozma tili taraqqiyotida muhim bir rivojlanish davri boshlangan³.Xuddi ana shu jarayon turkiy qabilalar etnogenezi uchun ikkinchi davr sanaladi. Bu davrni o'rganishda, aniqlashda ularning yozuv madaniyati, yozma manbalari muhim rol o'ynaydi.

Chunonchi, turkiy qabilalar orasida qadimgi ilk umumturkiy (fan olamida turkiy runiy yoki O'rxun-Yenisey, qadimgi uyg'ur yozuvi) yozma yodgorliklarining yaratilishi va bizning davrimizgacha yetib kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu yozma bitiklar qadimgi turkiy tilning namunasi bo'libgina qolmay, balki o'tmish turkiy urug', qabilalari va ularning tarixi haqida ham ilk yozma ma'lumot beruvchi tarixiy manba hamdir. Jumladan, qadimgi o'zbek elati va tilining ildizi haqidagi ilk tarixiy yozma ma'lumotlar xudi ana shu yozuv yodgorliklarida ham o'z aksini topgan. Ta'kidlash o'rinliki, qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarini bir qismini sinchiklab ko'zdan

¹. Abduraxmonov G'.Ko'rsatilgan asar, 21-b.

². Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. O'sha asar 129-

³. Abulg'oziyev B., Isaqov M., Sadiqov K. Yangi topilgan qadimgi turkiy bitik."O'zbekiston adabiyoti va sa'nati" gazetasi 1994., 25-son., "Meros" gazetasi,1991., 2-son.,K. Sadiqov Ajdodlarimiz bitigi. -T.1990.

kechirganimizda, unda 30 dan ortiq urug'-qabilalarning nomlarini uchratdik: *qarluq, kengaras/ kenagas, tubut, tatabi, burli, apar, purum, qo'riqan/uch qo'riqan, totar (o'tuz totar), o'g'uz (to'g'uz o'g'uz), uyg'ur, turk (ko'k turk), qitan-xitoy (qatani), tabg'ach, turkash, qirg'iz (qirqiz), sug'd(sug'dak), taziq (arab), tot, ushin, izgil, chin, chik, basmil, o'n (o'n o'q), az, öz, öd*" kabilar shular jumlasidandir¹.

Qadimgi umumturkiy til yozma manbalarida uchraganidek, bu etnonimlarning ba'zilar o'zbek xalqining keyingi asrlarda yaratilgan shajarasida ham mavjud². Ushbu qayd etilgan qabilalar qatoridagi **az, o'z, uslar** bizning diqqatimizni o'ziga jalb etgan. Tarixiy manbalarda bu urug'-qabilalar ham o'tmish ajdodlarimizdan sanalib, o'zbek elatining shaklanishida ishtirok etganligi haqida ma'lumotlar bor³. Jumladan, bu urug'larning nomi o'zbek xalqi va tilining nomlanishiga asos bo'lgandir. Bu haqda keyinroq fikr bildiramiz.

QANXA (QANG'AR-QANGLI)LAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)

Xitoy manbalarida qayd etilishicha, Markaziy Osiyoning qadimgi aholisi turkiy tilli bo'lgan. Chunonchi, A.Asqarovning yozishicha, janubiy Turon hududlari aholisining etnik tarkibi asosan turkiy xalqlardan tashkil topgan. Shning uchun ham bu yerlarga qadimdan Turkiston nomi berilgan. O'rta Osiyoning janubiy chegaralarida qadimdan eroniy tillar aholisi ham yashab kelishgan. Demak, turkiy va eroniy tilli qabilalar bu mintaqalarda aralash yashashgan.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, miloddan avvalgi III-II asrlarda O'rta Osiyoda tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz bergan. Akademik A.Asqarovning yozishicha, bu davrlarda qadimgi Farg'ona vodiysida mahalliy kadxudotlar, vispati va zantupati mavqyeidagi hokimliklar siyosiy uyushmasidan iborat(rus manbalarida -Davan, xitoy manbalarida- "Dayyuan" va "Polona, Bey-shi, Feyxan" tarzda, Gerodot asarlarida "parkaniylar yurti" va pahlaviy manbalarida ham "Parkan davlati", sug'd yodgorliklarida esa "Fraganik" nomlari bilan atalgan) yirik davlat tarkib topgan. Davan davlatining shimolida esa (xitoy manbalarida miloddan avvalgi II asrlarda shimoliy-g'arbda) Yunon-

¹. Abduraxmonov G', Rustamov.A. Qadimgi turkiy til.-T.: 1982

². Doniyorov X.O'zbek xalqining shajara va shevalari.-T.:1968.,74-75-bb.

³. Shoniyozov K Qarluq davlati va qarluqlar.-T.:1999; Malov S.Ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. -M.1951; Yeftuxova L.A. Arxeologicheskiye pamyatniki yeniseyskix kirgizov.- Abakan.: 1948.

Baqtriya davlatiga oppozitsiyada bo'lgan qang'ar qabilalari nomi bilan atalgan Qang' ("Avesto"da "Kaxa", Ptolemeyda "qandar"-qang'ar, xitoy manbalarida Qanguy) davlati tuzilgan. Davan va Qang davlati O'rta Osiyoda tashkil topgan ikki til (turkiy va sug'diylar) sohiblarining ilk bor tashkil topgan davlatlaridan biri sanalgan. Arxeologik materiallar guvohligicha, Sirdaryoning o'rta va kuyi oqimlarida sug'diylar bilan birlikda turkiy qabilalar guruhlarini ham antik davrlardan mavjud bo'lgan. Shuning uchun bu mintaqaning etnik jihatida ikki til sohiblari ajdodlaridan yangi Qang'ar elati shakllangan¹.

Sirdaryoning o'rta havzasi va Toshkent vohalarida, umuman Qang davlati hududlaridagi aholisi tarkibining asosini etnik jihatdan turkiy va sug'diy qabilalar tashkil etgan. Ularning chatishuvi (gibridizasiya) asosida yangi qang'ar elati tarkib topaboshlagan. Ular tarkibida xunlarning kelib birikishi(o'zaro sintezi), ya'ni metizasiya natijasida bu etnosda turkiy qatlam qalinlashdi. Ana shu metizasiya va gibridizasiya holati qurama etnosning moddiy madaniyati "Qovunchi madaniyati" nomi bilan fanda o'rin olgan. Ushbu qabilalar va ularning qadimiy va qudratli davlati haqida turli manbalarda fikrlar bor.

Chunonchi, bu haqda qadimgi Xitoy tarixnavislari Sima (Si Ma) Syanning(mil.avv. II-I asrlar) "Tarixiy xotiralar" (ya'ni miloddan avvalgi 138-90 yillardagi tarixiy voqyealar aks ettirilgan "Shi Ji (Shi Szi)" asari asosida yaratilgan) asarida va Ban Guning (mil.avv.I asr) "Birinchi Xan sulolasining tarixi" (ya'ni mil.avv. 138-23 yillardagi voqyealarni aks ettirgan "Xanshu" asosida yozilgan) asarida muhim ma'lumotlar berilgan. Ta'kidlaganimizdek, o'sha kezlarda Xitoy imperiyasi bilan Xunlar o'rtasida munosabatlar yomonlashgan edi. Xan hukmdori U Du yoki Udi (mil avv 140-87 yy.) xunlarga qarshi harbiy ittifoqchi qidirib, Chjan Syanni qang'arlarning Kanguy davlatiga yuborgan. Kanguy esa xunlar tomonida ittifoqdosh bo'lgan. Shu tufayli elchini sovuqonlik bilan qabul qilgan. Elchinig yozishicha, "Kanguy mag'rur va qo'rs...U bizning elchilarimizni, ko'pgina davlat elchilaridan, hatto usun elchisidan ham quyiga o'tqazgan"².

Kanguy davlatining markazi va uning tashkil topgan hududi bo'yicha ilmiy manbalarda har hil fikrlar bo'lgan. Ammo keyingi yillarda Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'istonda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Kanguy davlatining joylashgan hududi ma'lum bo'ldi.Turon podsholarining mashhur shahri Qang'diz hozirgi

¹. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 34, 164-182, 228, 260-bb.

².Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 161-170-bb.

Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi Qanqa shahar xarobasi ekanligi aniqlangan. Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarga qaraganda, Kang' davlatining asosiy yerlari Toshkent vohasi, Janubiy Qozog'iston, Talas vodiysi, Chu daryosining quyi oqimlari, undan to Sarisuv daryosigacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan (A.Asqarov o'z asarida Qang' va Davan davlatlari haqida maxsus ma'lumotlar bergan).

Xullas, Qang'arlar ham qadimiy turkiy qabilalardan biri bo'lib, ular ilk o'zbek-tojik elatlarining va davlatining shakllanishida muhim o'rin egallagan.

O'ZBEK XALQI VA TILINING SHAKLLANISHI HAMDA NOMLANISH MASALASI

Ma'lumki, o'zbek xalqi va tilining shakllanish davrini uzil kesil aniqlab belgilash nihoyatda muhim va murakkab masalalardandir. Keyingi davrlarda bu borada tarixchilarimiz juda katta izlanishlar olib borib, juda muhim ilmiy va asosli fikrlarni aytishga muvaffaq bo'ldilar. Xususan, olimlarimiz tomonidan hozirgi O'zbekiston hududida tashkil topgan qadimgi qabilalar uyushmalari (davlatlari) bo'yicha yuzaga chiqarilgan ma'lumotlar o'ziga xos xarakterga ega. Jumladan, B.Axmedov, K.Shoniyozov, A.Asqarov, Azamat Ziyo kabi olimlarimizning tadqiqotlari bu borada muhim o'rin egallaydi. Ular o'zbeklar yurtida davlatchilik tarixini miloddan oldingi davrlar bilan o'lchaydilar. Shunga ko'ra, o'zbek xalqining va tilining shakllanishi davrlarini ham shu asosda belgilaydilar.

Akademik A.Asqarov o'zbek xalqining shakllanish davrini, aniqrog'i, etnogenezi bir necha boqichga bo'ladi. Birinchi bosqichi - bronza davri bilan bog'lanadi. Olimning yozishicha, "arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, bu bosqich mil.av. II ming yillikning o'rtalaridan to makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyo hududiga kirib kelishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi". Ikkinchi bosqichi, Dayuechji qabilalari va xunnlarning bu zaminda (Movarounnahrda-U.S.) paydo bo'lishi bilan bog'lanadi. Bu davrda turkiy etnos foydasiga tub o'zgarishlar qayd etilib, Qang davlati va qang'ar elatining tashkil topgan davrlar(mil.avv. III-II asrlar) alohida ta'kidlanadi.

Jumladan, olim O'rta Osiyoda mil.av.III-II asrlarda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar asosida, etnogenetik jarayonlarning tahliliga ko'ra, Qang' davlatida qang'ar elatiga xos 5 ta etnik omil shakllanganini quyidagicha qayd etgan: "birinchidan Sirdaryoning o'rta havzasida,

Qang davlatining markaziy hududlarida etnohududiy birlik yuzaga keladi; ikkinchidan, ana shu etnohududiy birlik doirasida bir xil rivojlanish darajasidagi iqtisodiy birligi shakllanadi; uchinchidan, tarkib topgan hududiy birlik doirasida deyarli bir xil rivojlanishdagi etnomadaniy birlik maydoni qaror topadi; to'rtinchidan, o'zbek xalqiga xos antropologik tip-O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi shakllanadi va nihoyat beshinchidan, yangi etnos-qang'ar elati atrofida jipslashgan Qang' davlat konfederasiyasi, ya'ni siyosiy davlat uyushmasi tarkib topadi.

Demak, o'zbek xalqi etnik komponentining asosiy o'zagi hisoblangan turk etnosi, uning ikkinchi asosiy tarkibi (komponenti) sug'd, bohtar, xorazimiylar kabi bu zamida qadimiydir." Ya'ni turkiylar Movarounnahr zaminida avtohton yoki aborigen (mahalliy, tubjoy) elatlardandir.

"Turkiy tilli qabila va elatlarning uchinchi yirik to'ldini yoki bosqichi Movarounnahrning ichki viloyatlariga hioniylar, kidariylar, eftaliylarning kirib kelishi bog'liq"deb qaraladi. "To'rtinchi bosqich, katta etnik guruh sanalgan turkiy etnosning Movarounnahr va Xorazmga kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, bu Buyuk Turk xoqonligi davrida yuz bergan. Bu davrda O'rta Osiyoda turkiy qavmlar jadal kirib bormagan biron viloyat va tuman qolmagan"ligi ta'kidlanadi.

Aytish joizki, o'zbek ajdodlarining Movarounnahrda Qang' siyosiy davlat uyushmasi yuzaga kelganidek, IX-asrning 40-yillarida shaklangan Qarluq davlatida ham o'zbek elatiga xos etnogenetik ko'rsatkichlar, ya'ni hudud, davlatchilik, madaniyat, til umumiyligi kabilar hosil bo'lgan. Xorazmda bu jarayon ancha oldin boshlangan edi. Umuman, antik davrlardan boshlangan va turli nomlar bilan atalgan turkiy tilli qabilalarning jipslashuvini, xususan milodiy davrlarda yuzaga kelgan davlatlarda yanada yaqqol kuzatish mumkin.

Alohida ta'kidlash lozimki, respublikamizning B.Axmedov, A.Asqarov, K.Shoniyozevlar kabi zabardast o'zbekshunos olimlari so'nggi yillarda o'zbek xalqining etnogenezi masalasida muhim ishlarni amalga oshirdilar. Ular o'z qarashlari bilan o'zbek xalqining ilk shakllanish ildizini, ya'ni, etnogenezini miloddan avvalgi davrlar bilan, aniqrog'i, bronza davri bilan bog'ladilar. Zero, ularning asarlarida Osiyodan Sharqiy Yevropa mintaqalarida va Xitoy, Mo'g'uliston va Oltoy o'lkalaridan Markazi Osiyo hududlarigacha, xususan, Movarounnahr yerlarida miloddan avvalgi davrlarda (xususan, mil.avv.III-II asrlardan) yashab kelgan skif-sak, massaget, da-yuyechji,

xunn, qang'ar, eftaliy kabi turkiy va eronzabon urug' va qabilalarni o'zbeklarning ham ilk ajdodlari sanalishini ishonarli dalillar bilan talqin etildi. Har holda, o'zbek xalqining etnogenezi ildizi miloddan oldingi davrlar bilan bog'landi. Ana shu etnogenezning so'nggi davrlarida o'zbek etnosining shakllanishida asosiy komponent sifatida qatnashgan urug'-qabilalar (qang'uy, qarluq-chigil-uyg'ur, o'g'uz-qipchoq, az/uz/o'z kabi qabilalar nomlari bilan) ham qat'iy aniqlandi. Ana shu qadimiy asos-komponentlar (qayd etilgan urug'-qabilalar)ning o'zaro sintezi (birikishi) O'rta Osiyoda o'zbek nomining etnogenezi miloddan avvalgi III-II asrlar bilan bog'lansa-da, o'zbek xalqining shakllanishi va o'zbek nomi bilan atalaboshlanishi IX-XI asrlar deb e'tirof etiladi.

Ammo, ushbu o'rinda shunday savol tug'ilishi mumkin: xalqimizning "O'zbek" deb atalish ildizi yuqorida qayd etilgan qaysi urug' yoki qabila nomi bilan bog'lanadi va u qay yerlarda yashagan? Bu savolga hozirgacha tarixiy manbalarda aytilgan fikrlar mujmal, ya'ni ularda aniq va ishonarli javob aks etgan emas. To'g'ri, bu masalada so'nggi davrlarda taniqli o'zbekshunos olimlardan B.Ahmedov, A.Asqarov, K.Shoniyozov va boshqalarning qimmatli fikrlari bor¹. Ularni inkor etish qiyin. Lekin ular asarlaridagi asosiy xulosalarda ham aytilgan savollarga, xususan, o'zbek xalqining nomlanishi haqida aniq va to'laqonli fikr yo'q. O'zbek xalqi va tilining shakllanishida qarluq-chigil-uyg'ur va qipchoq-o'g'uz kabi turkiy etnik qatlam asos qilib olinadiyu, nimagadir qadimdan ular tarkibida (qabila birlashmalarida) bo'lgan turkiy tilli **uslar, o'zlar, azlar** nomli qabila-urug'larning ham o'ziga xos o'rni borligi haqida, ayniqsa, "o'zbek" etnonimining yuzaga kelishi va nomlanishida ularga bog'lab biror-bir fikr aytilmaydi.

To'g'ri, akademik K.Shoniyozovning asarlarida bu qabilalar haqida fikr-mulohazalar berilgan (ayniqsa, "Qarluq davlati va qarluqlar" asarining "Etnik nomlar izohi" qismida bu urug'lar haqida maxsus ma'lumotlar havola etilgan). Shu kabi akademik A.Asqarovning "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" o'quv qo'llanmasida va B.Ahmedovning "Tarixdan saboqlar" kitobida o'zbek xalqining

¹. Ahmedov B. O'zbeklarning kelib chiqish tarixidan.-T.:1962, shu avtor-O'zbek ulusi.-T.:1992; Asqarov A. O'zbeklar qanday kelib chiqqan. -T.:1985,"Fan va turmush" jurnali, 2,3,4-sonlari; shu avtor-Nekotoriye aspekti izucheniya etnogeneza i etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. Materiali k etnicheskoy istorii naseleniya Sredney Azii.-T.: 1986;O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy-metologik asoslari.-T.: "O'zbekiston tarixi" jurnali 4-son, 2002.; Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.-T.: 2001; shu muallif- Uzi (Iz istorii rodoplemennix deleniy uzbekov).-T.: ONU, 1972 ; K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda.-T.:1974; K voprosu o tyurkoyazichnix komponentax v slojenii uzbekskoy narodnosti. EEINSAK.-M.:1991. va boshqalar.

nomlanishini Dashtiqipchoq turkiy qabilalari bilan bog'lab talqin etilgan. A.Asqarovning yozishicha, XIII asr boshlarida Chingizxon qo'shinlari tomonidan Dashtiqipchoq yerlari bosib olingach, XIV asrlarning 60 yillaridan Dashtiqipchoqning sharqiy qismi "O'zbeklar mamlakati", aholisi esa "o'zbeklar" deb atalaboshlangan. Ungacha bu joylarda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalari (**arlot, baxrin, burqut, do'rman, iyjon, qtoy, qarluq, mojoy, qipchoq, qiyot, qo'ng'iroq, qurlovut, mang'it, nayman, nukus, tangut, uyg'ur, markit, qo'shchi, o'tarchi, jot, chimboy, kenagas, uyshun, tuboyi, toymas, echki, tumanming, shodbaxtli, shunqorli va boshqalar**)orasidan yetishib chiqqan sahroyi suvoriy harbiy guruhlar jangovor o'zbeklar nomi ostida XIII asr oxirlaridan tarix maydonida paydo bo'lgan. **Aslida o'zbek atamasi sharqiy Dashtiqipchoq (Oltin O'rda) qabilalarining siyosiy harbiy guruhlar yig'indisining nomini ifodalagan. Bu erkin, ozod, mustaqil harbiylashgan guruhining asosini aslzoda-bekzoda harbiylar tashkil etgan.** Shu bois bu atama aynan XIII asr oxirlaridan boshlab Sharq tarixchilari asarlarida "o'zbeklar" (o'zbekiyon), ko'chib yurgan yerlari esa "mamlakati o'zbek" nomi bilan tilga olingan¹. Shu kabi u XVI-XVIII asrlarda Movarounnahr va Xorazm hududlarida o'rnashib qolgan Dashtiqipchoq o'zbeklari XI-XII asrlarda shakllangan o'zbek xalqining etnik tarkibini o'zgartirmagan bo'lsa-da, mahalliy turkiy tilli o'troq aholiga "o'zbek" nomini berdi. Chunonchi, XIII-XIV asrlarda kelib o'rnashib qolgan **abdal, qarluq, qangli, kaltatoy, turk, tuxsi, az va uzlar** kabi turkiy qabilalar o'z urug'doshlari-Shayboniy o'zbeklari bilan tezda qorishib ketdilar². (Bunday g'oya ba'zi sharqshunos olimlarning asarlarida ham olg'a surilgan. Xususan, o'zbek atamasi haqida sharqshunos lardan A.Yu.Yakubovskiy, B.D.Grekov, P.Pelos, A.P.Chuloshnikov P.P.Ivanov, G.Xvors, A.Vamberi, M.A. Chaplichka, A.A.Semyonov, V.V.Grigoryev, o'zbek olimlardan M.G. Vahobov, I.Jabborov kabilarning fikrlarini qayd etish mumkin. (Bu haqda akademik B.Ahmedovning asarlarida yaxshi ma'lumotlar berilgan)³.

B.Ahmedov yuqorida nomi aytilgan kitobida Juvayniy, Rashididdin (XIII asr), Hamdulloh Mustavfiyi Qazvinii(1281-1350) kabi qator

¹. Ahmedov B.Tarixdan saboqlar, -T.: O'qituvchi,1994., 195-198-bb.

Ahmedov B. Ko'rsatilgan asar,198-199-bb.

². Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, 277-278-bb.

³. Yakubovskiy A.Yu. K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda.-T.: Fan, 1941; Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Zolotaya Orda i yeyo padeniye.-M.: 1950, str.296.; Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. 59-61-bb.

o'tmish tarixnavislari va qayd etilgan Yevropa-rus olimlarining ham o'zbeklarning kelib chiqishi, nomlanishi va xalq sifatida shakllanishi davrlari haqidagi fikrlarini tahlil etsa-da, ulardan xulosa chiqarmaydi (qarang: ko'rsatilgan asar, 60-63-bb.). Ammo "Odatda xalqning tarixi uning nomidan ilgari yuradi" degan fikri aytib, hozirgi davrda e'tiborli xalqlardan ingliz, fransuz, ruslarning kelib chiqish tarixi haqida to'xtalgan. Masalan, rus xalqining nomlanishini milodiy IX- XIII asrlarga to'g'ri keladi deb, (avval ular "vyatichi, krivichi va hokazo nomlar bilan atalib, keyinchalik) ular Dneprning o'rta oqimlarida ko'chib yurgan "rodiy"(ros, rus) qabilalari nomi bilan atalganligini qayd etadi. Jumladan, "O'zbeklarning kelib chiqishi ham shunday, lekin tarixi uzoq asrlar qa'riga kirib ketgan", deydi. Bu uzoq asrlarni miloddan avvalgi ming yillikning oxiri va milodning birinchi asr davrlariga bog'laydi¹. Lekin o'zbek nomining kelib chiqishi, uning xalq nomiga aylanishi bo'yicha qayd etilgan fikrlar keyingi davrlarga xos bo'lib, etnogenez jihatidan va yuzaga kelish sanasiga ko'ra ularga qo'shilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham etnograf olim I.Jabborov "o'zbek"atamasi ilmiy jihatdan hali aniqlanmagan², deb to'g'ri qayd etgan edi.

Bizningcha, yuqorida qayd etilgan qabilalar ancha oldingi davrlardan (miloddan avvalgi VII-V asrlarda yuzaga kelgan Bo'zqur, Arshakiy, Kenagas /Kengaras/ davlatlari tarkibida) Movarounnahrning markaziy yerlariga kelib joylashb ulgurgan edi. Masalan, miloddan avvalgi VII-V asrlarda Kengaras qabilalari birlashmasida *kenagas, qangli, qipchoq, bajanak, o'g'uz, sug'd, qarluq, mojar, qiyot, qo'ng'iroq* kabi juda ko'p urug' va qabilalar qatnashgan. Jumladan, **az, o'z va uslar** kabi qabilalar **ham** tirkesh, qarluqlar, o'g'uz-qipchoqlar tarkibida bo'lib, Kengaras birlashmasida ishtirok etgan. Bu birlashma (davlat) chegarasi Xorazm, Buxoro, Samarqand, Kesh, Kushon, Toshkentgacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan va milodiy V asrgacha yashagan. Davlat aholisi ko'k tangriga sig'inib, ko'k turk yozuvidan foydalanishgan. Bu qavmlar (xususan, kenagas, qarluq, o'g'uz, qipchoqlar) birligi milodiy VII-IX asrlardagi yozma manbalarda ham aks etgan³.

K.Shoniyo'zov yozganidek, bu qabilalar tarkibidagi **az, o'z va uslar** o'sha davrlarda Zarafshon vohasining o'rta oqimlarida, Kattako'rg'on,

¹. Ahmedov B. Ko'rsatilgan asar, 198-199-bb.

². Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi.-T. O'qituvchi, 1994., 77-b.

³. Klyashtorniy S.G. Drevnetyurskiye runicheskiye pamyatnikov kak istochnik po istorii Sredney Azii.-M. 1964., s. 161-179.

Navoiy tumanlarida va Qashqadaryo dashtidagi ko'pgina qishloqlarda va Orol bo'yi o'lkalarida joylashib qolganlar. Bu qabilalarning asl ajdodlari Oltoy va Sayan mintaqalarida, Tuva hududida, qadimgi Tele qabilasi tarkibida bo'lgan. Tele qabilasi esa miloddan avvalgi III asrdan to milodiy III asrga qadar Shimoliy Xitoy dashtlarida yashagan. Uzlar VII-VIII asrlarda Yettisuv va Sirdaryoning o'rta oqimlarida yashagan) turkiy tilli elatlardan bo'lgan.

Umuman, ular ana shu davrlardan boshlab O'rta Osiyo, yoki Movarounnahr hududlarida yashab, tub turkiy qabilalar bilan aralashib ketganligi aniq. Zero, bu urug'lar bilan bog'liq joy nomlari va shevalar hozir ham mavjud. Ular asosan aslzoda-bekzodalar va hayot tarzi esa erkin, ozod, mustaqil harbiylashgan turkiy qabilalar guruhi sanalganligidan miloddan avvalgi davrlarda yuzaga kelgan **ariylar (oriylar)**ga o'xshaydilar. Bu qabilalar o'zbek xalqining etnogenetik jarayonida qarluq-chigil-uyg'ur, o'g'uz-qipchoq til birligi tarkibida asosiy komponentlar qatorida bevosita qatnashganlar¹. Shu bois, "**az, us/uz, o'z**"urug'larning nomlarini o'zbeklarning nomlanishiga bog'lash mumkin. Bunga yana quyidagi dalillarni keltirish lozim bo'ladi.

Avvalgi sahifalarda aytganimizdek, qozoq olimi O'ljas Sulaymonov "Az i Ya" asarida miloddan avvalgi III-II asrlardagi turkiy qabilalardan biri **is>us/uz/o'z**, qabilaboshi esa **Ispek (Uspek>Uzpek>O'zbek)**nomi bilan yuritilganligini qayd etgan. Bu qabilalarning nomi milodiy davr boshlarida ham yozma manbalarda uchrashi bejiz emas. Xitoy manbalarida, xususan turkiy xalqlarning ilk yozma yodgorliklaridan-VII-IX asrlarga xos O'rxun-Enasoy va qadimgi uyg'ur bitiklarida va XI asr olimi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ular, budun-qabila-elat, qavm, urug' sifatida tilga olinadi. Manbalarda tilga olingan az, o'z nomlari, shubhasiz, bir xil etnik xususiyatga ega. L.A Yevtyuxova ham "az va o'z bir xil elat"dir, degan fikrni aytgan². Masalan, az budunug' (19.KT.QTT.106-b; Özüm Az yerim ani bil, ya'ni o'zim az, maskanim ham azdir (To'n.24); Az budun yag'i bolti... Az budun anta yoq bolti, ya'ni Az elati dushman bo'ldi...o'shanda az elati

¹. Shoniyozov K. Qarluq davlati va qarluqlar.-T.: Sharq, 1999,.167-177-bb.

Malov S.Ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. Pamyatnik v chest Kyul-tigin. S.32, 39; Yeniseyskaya pismennost tyurkov.-M.L.: Izd. AN SSSR, 1952, str. 21, 39.;Yevtyuxova L.A. Arxeologicheskiye pamyatniki yeniseyskix kirgizov. Abakan, 1948, str. 5.; Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. (Kultigin bitiktoshi.).106, 110, 111-bb (-166 b.).

². Malov S.Ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. Pamyatnik v chest Kyul-tigin. S.32, 39; Yeniseyskaya pismennost tyurkov.-M.L.: Izd. AN SSSR, 1952, str. 21, 39.;Yevtyuxova L.A. Arxeologicheskiye pamyatniki yeniseyskix kirgizov. Abakan, 1948, str. 5.; Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. (Kultigin bitiktoshi.).106, 110, 111-bb (-166 b.).

yo'q bo'ldi (KT.Ulug' bitik.42-43-bb.) Hatto, Enasoy vohasida ularning sultonligi-bekligi bo'lgan: Sizing er at Ö'r(i) eliñ Öz (Vashe geroyskoye imya Uri, gosudarstvo Öz-ya'ni Sizning er(botir nomingiz O'r(i), elingiz nomi O'zdir. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Mahmud Koshg'ariy devonida Öd(o'z), az shakllarda uchraydi: **Öd (o'z)qavmi** xazinasi (1-t..395-b.), **Tavg'ach azi** (1-t.432-b.)¹ kabi. Devonda **az o'z** shaklda kishi va joy nomlari tarkibida ham birikib kelgan.

Ayrim manbalarida **is+pæk>uzpæk-o'zbæk, o'zg'ur>uyg'ur, odg'uz >o'g'uz**) kabi nomlarning enogenezi bir (o'zagi bir) deb talqin etilgan². Balki, bu nomlarning ildizi birdir. Xususan, milodiy asrlarda, umuman, ushbu nomlar bilan atalib kelingan elatlar qadimdan ko'pincha bir xil (tirkesh, qarluqlar, keyinroq qipchoqlar) qabilaviy birlashmalarda birga bo'lishgan. Bu Kultigin bitigtoshi matnlarida ham aks etgan³.

Ushbu o'rinda yana bir qator atamalar haqida oydinlik kirish lozimdir. Chunonchi, ko'pgina ilmiy-tarixiy va badiiy asarlarda "chig'atoy" atamasi qatori **arab, turk, mo'g'ul, turkman, xitoy(qtay, qtan)** kabi qavmlar nomi o'zbek urug'-qabilalari qatorida qo'llanganini kuzatamiz. Bu urug'lar aslida shu nom bilan atalgan elatlar (xalq) vakillari sanaladilar.Chunki ular ko'p davrlar o'tishi bilan o'zbek urug'lari orasida aralashib, o'zbeklashib ketganlar.Natijada, keyinchalik ular shu nomdagi o'zbek urug'lari qatoriga kiritilgan. Navoiy, Lutfiy, Atoiy, Bobur, Muhammad Solih, Abulg'ozzi Bahodirxon va boshqalarning asarlarida uchraydigan bu kabi nomlar ham xuddi shu ma'noda qo'llangan deb izohlansa bo'ladi. O'zbek dialekt va sheva materiallarida ham arab, totor, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, turk, turkman, xitoy, mo'g'ul, chig'atoy kabi etnik nomlar bilan ataladigan qishloqlar va o'zbek urug'lari mavjud⁴.

Xullas, o'zbek xalqi va tilining shakllanishi hamda nomlanish ildizlari haqida quyidagicha mulohazamizni qayd etamiz:

1.O'zbek xalqi va tilining shakllanishi juda murakkab etnogenetik jarayon bilan bog'langan. Bu nafaqat o'zbek xalqi, balki O'rta Osiyoning boshqa xalqlari tarixiga ham aloqador bo'lgan eng murakkab masaladir.

¹. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-tom. -T.: Fan, 1969. -395 va 432-bb.

². Sulaymanov O. Az i Ya. S.-499-563.; Abushiy. X.A. Turkiy qavmlar tarixi. 121-b.; Kultigin bitigtoshi. (Ulug' bitig). -45-5, 46-6.(Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -T.: O'qituvchi, 1982.-110-111, 119-bb., 107-izoh).

³.Qarang: Kultigin bitigtoshi (Ulug' bitig).42-b.(Abdurahmonov G'.,Rustamov A.Ko'rsatilgan asar,110-b.).

⁴.Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. 74-75-bb.

2. Turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqi va tilining birinchi bosqichdagi ilk etnik ildizi skif, sak, sarmat, massaget, sug'd, o'g'uz, xorazm, xunn, qang'ar kabi miloddan avvalgi turkiy va eronzabon qabilalarga borib taqaladi, ikkinchi bosqichdagi ildizi esa milodiy davrlarda, ayniqsa, V-VI asrlarda eftalit va turk hoqonliklari davrida yetakchilardan bo'lgan qarluq (chigil-uyg'ur), o'g'uz, qipchoq va ular tarkibida bo'lgan az, us/o'z va boshqa turkiy hamda eroniy tilli urug'-qabilalarga bog'lanadi. Chunonchi, o'zbek xalqi va tilining shakllanishida ancha qadimdan ikki xil ta'sir bo'lganligini, ya'ni turkiy-qarindosh tillar chatishuvi (metizasiya) va qardosh bo'lmagan tillarning duragaylashuv (gibridizasiya) holati mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

To'g'rirog'i, yuqorida ta'kidlangan metizasiya va gibridizasiya holatiga chuqurroq yondoshsak, bu davrdagi o'zbek xalqining shakllanishi jarayonida uch tomir qatnashgan deyish mumkin. **Birinchi tomir** bu mintaqada qadimdan turg'un holda yashagan – tub turkiylar, **ikkinchi tomir** xunlar tarkibida kelgan yarim qo'chmanchi (o'g'uz-qipchoq) turkiy tilli qabilalardir. Xususan, bu ikki ildizning birikishi (o'zaro sintezi) metizasiya shaklda bo'lib, o'zbek xalqining asosiy komponentini tashkil etgan. Shuningdek, qadimgi sug'diy, eroniy kabi qardosh bo'lmagan qabilalar chatishuvi (gibridizasiya) asasida yuzaga kelgan komponent esa **uchinchi tomir** hisoblanadi.

3. **“O'zbek”** etnonimining ildizi aslida **öz(o'z)** va **bek(bäk)** so'zlardan tarkib topib, eng qadimgi urug' va qabilalarga nisbatan qo'llangan nomdir. Chunonchi, **“O'zbek”** etnonimining ildizi eng qadimgi (miloddan oldin) **is>us>uz>o'z+bek** tarzda shakllangan. Keyinchalik **isbek> izpek>uspek> o'zpek, o'zbek** shaklida qadimiy qabila-urug'lar va ularning boshliqlariga nisbatan qo'llangan nom sifatida qaralgan. Bu qabila ilk milodiy yozma manbalarda, aniqrog'i VI-IX asrlarga tegishli bo'lgan O'rxun-Enasoy bitiklarida ham bir qancha urug' va qabilalar qatorida **“äz, öz(o'z), öd(o'z)** kabi shakllarda qayd etilgan. Keyinchalik bu etnik nom (IX-XIII asrlarda) o'zbek xalqi va tilning nomlanishiga asos bo'lgan. Shuningdek, ular o'zbek xalqi etnik komponentining asosiy o'zagi hisoblangan turkiy qabilalar qatorida bo'lgan. Ular sug'd, bohtar, xorazmiylar kabi O'rta Osiyo zaminda yashagan qadimiy qabilalardandir. Ya'ni ularni turkiy tilli o'zbeklarning Movarounnahr zaminida miloddan avvalgi davrdan avtohton yoki aborigen (mahalliy, tubjoy) yashab kelgan ajdodlari deb qarash lozim.

4. Keyingi davrlarda eski o'zbek tiliga shu kabi o'zbek xalqi nomiga nisbatan “**chig'atoy** xalqi”, “chig'atoy tili” atamalarining qo'llanishi esa, faqat Chig'atoy hukmronligidagi hududlarida yashagan o'zbeklar va o'zbek tilining katta bir qismi-dialekti tushunilgan. Bu hududdagi xalqni va uning tilini Chig'atoy avlodi, ya'ni mo'g'ul millati va mo'g'ul tili deb tushunish xatodir. Bizningcha, bu tilni Chig'atoy davlati hududidagi turkiy yoki eski o'zbek tili deb qarash to'g'ri.

5. O'zbek xalqi va tilining shakllanishi bo'yicha so'nggi davrlar tarixiy manbalardagi 92 bo'li o'zbek urug'larining shajarasi haqidagi ma'lumotlar ham, asosan qadimgi turkiy til bilan munosabatda bo'lgan urug'lar sanaladi. Ularning aksariyati O'rxun-Enasoy (VI-IX asrlar) yodgorliklari tilida, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” (XI asr) va Temuriylar (Ulug'bek, Bobur, Muhammad Solix va keyingi davrlarda yuzaga kelgan dlatlar hududida yaratilgan tarixiy yozma manbalarda hamda hozirgi o'zbek xalkining dialekt va shevalarida ham mavjud. Shu kabi 92 bo'li o'zbek shajarasidagi ko'pgina urug'larni qardosh turkiy tilli xalqlarning (qozoq, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqalarning) shajaralarida ham uchratish mumkin va ular o'sha xalqlarning xalq sifatida shakllanishida salmoqli hissa qo'shgan.

O'ZBEK ELATI (XALQI)NING TARIXIY MANBALARDAGI GENEOLOGIYASI (SHAJARASI)

Ma'lumki, bundan oldingi mavzularda xalqimizning millat tarixigacha bo'lgan etnogenezi, etnik tarixi, ya'ni boshlag'ich o'tmishi haqida yozma yodgorliklar va ilmiy-tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga tayangan holda fikr-mulohazalarimizni bayon etgan edik. Ularda miloddan avvalgi VIII- IV asrlardagi Markaziy Osiyo, jumladan, Sug'diyona, aniqrog'i ikki daryo (Oks yoki O'ks-O'kuz, ya'ni Amu va Yaksart Sir) oralig'ida tarqalgan **skif, sak, sarmat, massaget, sug'd , augas, xorazm, hu(r), tur(k)** kabi eng qadimgi turkiy va eroniy tilli qabilalarning ilk ildizlari haqida ma'lumotlar bergan edik. Ular tarkibida turkiy tilda gaplashuvchi qabilalar **xunn, turk (tukyu) o'g'uz(augas), tirkash (tirkesh), qarluq, chigil, uyg'ur, qipchoq, telengut, qangli, us/o'z/az** kabi juda ko'p urug' va qavmlar birikib kelganligi tarixiy manbalarda aks etganligini kuzatdik. Masalan, tarixiy manbalarda **miloddan avvalgi** (207 yildan, milodiy 216 yillardagi) birlashmalar tarkibida bo'lgan quyidagi turkiy urug' va qabilalar nomlari tilga olinganligini uchratgan edik : “*Ashin, Arg'u, Az, Qirq az, Basmil,*

Duba(tuba), Dulu Nushib, Izgil, Kurdanta, Kiton, Sir, Tatabi (tung'uzlar), Tolis, Tordush, Xunn, Turk, Turgan, Tupuri, To'qri (toharlar), Uyg'ur, O'n uyg'ur, To'qqiz o'g'uz, Uch o'g'uz, O'g'uz, tatar, O'tuz tatar, Tirkesh(tirkash), Qarluq, Qimchoq, Quriqan"¹ kabilar shular jumlasidandir. Ularning har biri o'nlab urug'larni o'z tarkibiga birlashtirgan. Bularning ba'zilar haqida qisman fikr bildirilgan edi. Lekin bu sohadagi ma'lumotlar yakunlangan emas, ular haqidagi fikr-mulohazalarimizni, olloh nasib qilsa, yana kelgusi ishlarimizda davom ettiramiz. Ammo ko'pchilik muxlislarimizning iltimosiga ko'ra ushbu kitobda o'zbeklarning so'nggi-milodiy davrlardan boshlab qabila-elat shaklida yuzaga kelayotgan birlashmasi (davlati) tarkibiga kirgan urug'lar ro'yxati (shajarasi)ni havola etishni lozim ko'rdik.

O'tmishda o'zbeklar birlashmasi tarkibiga kirgan qabila-urug'lar shajarasi(ro'yxati)ning qayd etilishi tarixiy manbalarda umumiylikka ega bo'lsa-da, son jihatdan har xildir. Chunonchi, milodiy davrlar boshlarida *qangli, kushon (toxar), eftal (eftalit), turk, qarluq(az, o'z, uyg'ur), o'g'uz, qipchoq* kabi yirik urug'lar o'zlariga til jihatdan yaqin bo'lgan qavmlarni birlashtirib, milodiy **VII-IX asrlarda** ham turk xoqonliklari nomi bilan qudratli qabila ittifoqlarini(davlatlarini) tuzganlar. Bu ittifoq tarkibiga quyidagi urug' qabilalar kirgan edi: "*qarluq, kengaras/kenagas, tubut, tatabi, burli, apar, purum, qo'riqan /uch qo'riqan, tatar, (o'tuz totar), o'g'uz (to'g'uz o'g'uz), uyg'ur, chik, turk (ko'k turk), qitan-xitoy, tabg'ach, turkash, qipchoq, chigil, qirg'iz (qirqiz), sug'd (sug'dak), taziq (arab), tot, ushin, izgil, chin, basmil, o'n (o'n o'q), az, öz, öd*" kabi yuzga yaqin urug' va qabilalar Turk Hoqonligi hamda Eftaliylar davri yodgorliklarida aks etgan².

¹. Mahmudov Q. Turkiy hoqonliklar. "To'ron tarii" to'plami. -T.: 1992.32-b.

².Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi.-T.: Cho'lpon, 1995.-239 b.;Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab.-T.:O'qituvchi,1964.-124 b.;Yakubovskiy A.Yu.K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda.

-T.: Izd.ANUzb. 1941.-86 s.;Baskakov N.A.Altayskaya semya yaikov i yeye izucheniye.-M.:Nauka,1981.-85 s.; Kononov A.K. Rodoslovnaya turkmen. Sochineniye Abul-l-Gazi-xana Xvinskogo.-M.-L.: Izd. Vost.lit. 1958.S.-7-20; Ivanov S.N. Rodoslovnnoye drevo tyurok Abu-l-Gazi-xana.-T.: Fan, 1969.-203 s.; Gumilev A.M. Tisyachiletiye vokrug Kaspiya.-Baku.: Azerb. gos. izd. 1991.-307 s.; Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari.-T.:O'qituvchi, 1991.-216 b., 2001.-351 b.; Shu muallif. O'zbeklarning kelib chiqishi tarixidan.

-T.: Fan. 1962.-77 b., Sodiqov Q. Ajdodlar bitigi.-T.: Fan.1990.-30 b., Sulaymonova F. Sharq va G'arb.-T.: O'zbekiston, 1997.-415-b.; Azamat ZiyO.O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq , 2001.-366 b.; Rahmon. N. Turk hoqonligi. -T.: Abdulla Qodiriy, 1993.-142 b.; Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi.-T.: O'qituvchi, 1990.-159 b.va boshqalar.

Xususan, **XI asr manbalarida (Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida)** bu shajara o'ziga xos tartibda berilgan. Bunda avval 20ta katta qabilalar, so'ng 10 ga yaqin qavmlar hamda 22 ta o'g'uz-turklari shajaralari va yo'l-yo'lakay yana 20 dan ortik urug'-qabilalar nomlari tilga olinib izohlangan. Masalan, "*bajanak, qifchoq, o'g'uz, boshg'irt, yamak, basmil, qay, yabaqu, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig'raq, jaruq, jumul, uyg'ur, tangut, xitoy (qtay, qtani), tafg'ach (tavg'aj)-katta qabilalar va sug'dak (sug'd), qanjak, arg'u, xo'tan, tubut, bulg'or, suvar, tajik kabi qavmlar hamda qiniq, qayig', bayundur, ifa (iva), yiva, salg'ur(solg'ur), afshar, bektili, bukduz (buktuz), bayat (boyot), yozg'ir, aymur (eymur), qorabuluq, olquabuluq, igdar, uragir (urakir-yuragir), tutirqa (to'tirqa), ulayndlug' (ulayundlug'), tug'ar (to'gar), bajanak, juvaldor, japni, jarluqlug' (jarlug'luq), jaruqlug' (jarug'luq) kabi o'g'uz-turklar, shuningdek, qarluq, jikil, bulaq, kujo, xalach, turkman, bayot, charuq, o'd(od), az, tarbin, tot, ug'roq, sug'd, banak, qanjak, hoqoniy qavmlar kabi etnik nomlar haqida devonning har yerida yo'l-yo'lakay izohlar berilgan (3-tomida). Umuman, devonda Markaziy Osiyo, xususan, Movarounnahr hududlarida tarqalgan 100ga yaqin qabila-urug' va qavm-toifalar haqida ma'lumotlar bor.*

XIV asrning mashhur tarixnavisi **Rashididdinning "Jome'-at tavorix" asarida** o'sha davrdagi turkiy-o'zbek davlati tarkibidagi qabila va urug'lar haqida fikr yuritganda quyidagi etnonimlarni tilga olgan: "*turk (turkiy), o'g'uz, o'zbek, barlos, bekrin, jaloyir, mo'g'ul, kenagas, qiyon, nerun, sulduz (suldus), kingit, qiyot, qo'ng'irot, boyovut, sunit, tatar, merkit, kurlavut (kurlaut), tulas, tumat, bulagachin (bulg'ochin), keremuchin, urasut (o'rasut), tamg'alik, tong'ut –torqut (torut), o'yrot (oyrat), bargut (burqut), ko'ri (qo'ri), tilingut (telengut), uryankat, kurkan, sukayit (sakayit), nukus, uryankat, ikras, o'lkunit, quralas, eljigin, kun-kulayut, o'rtaut, qo'nqo'ton, orulat, kilingut, ko'njun, ushin, eldurkin, kingit, o'ngut, kerayit, nayman, tangut, uyg'ur, qangli, qipchoq, qarluq (qorluq), qolach (qalach), og'och eri, qushtami, uryangat, qirg'iz, uryovut (ungut), xushin, ildurkin (eldurkin), qataqin(qatakin), qatag'an), qangli, saljuvut, toyjuvut, xartakon, sijuvut, chinov, nuyakin, urut, mang'ut, do'rbon (do'rman), bahrin, baruvlas, xadarkin, juryat, budat, duklot, yisut, sukan, kung'iyot"* kabi etnik nomlar shular jumlasidandir. Muallif bu urug' va qabilalarning ba'zilariga etnogenetik ma'lumotlar bildirgan.

XV-XVI asrlarda yuzaga kelgan Movarounnahr o'lkasida yuzaga kelgan davlatlar tarixi haqida yozilgan yozma manbalarda turkiy-o'zbek elatining urug'-qabilalari shajaralari bo'yicha ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Jumladan, **Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarai turk" asarida** kuyidagi qabila-urug' nomlari uchraydi: "Qarluq, uyg'ur, qipchoq, qangli, qalach (nufuzli va boshqaruvchi, katta avlodlar sifatida qaraladi), aymoq, terkin (merkin), qirg'iz, kemkemchut, o'rmonkat, nuguz(nukis), tatar, bayot, boshqirt, oyrot (o'yrot), orlot, og'or, olayunotli, to'rg'ovut, qo'ru, to'las, bulg'ochin, kermuchin, tot, temirli, turumchi, turk, turkman, taka, turbotli, tevachi, jobi, jomachi, cho'bichoq, cho'boni, chig'atoy, cho'ni, xizireli, xurosonli, xalach, dukar, soriq, solur, surxi(surqi), soqar, saljuq, sultonli, savroqi, sovchili, qo'rg'oli, qo'rqin (ko'rkini), qoratoshli, qalmoq, chiroyli, qutlar, lola, mo'g'ul, mag'it, nayman, mo'ndi, yozir, yag'mo, yovmut, yurti, tulengut, o'rasut, o'qli, qusutmay, nayman, kerayit, o'ngut (ungut), qiyon, qiyot, nuguz /no'guz (qadimgi xitoy manbalarida qiyon-qiyot urug'ning ajdodi **nerun**, nuguzlarniki esa derliginlardir deyiladi, shu kabi Mo'g'uliston hududlarida yashovchi yana merkit (mekrit), qo'ng'iroq, qoranut, qurlos, elchigin (ilchigin), o'rmovut (o'ymovut), qishlik, uyshin, sulduz (sulduz), eldurkin (ildurkin), kenkit, do'rban (do'rman), barin (bahrin), sukut, qurlavut, burqut, uklan (o'qlan), juyrot, hojarot, boyovut (biyovut), jaloyir" kabi urug' nomlari qayd etilgan. Asarda ularning ba'zilari haqida izohli ma'lumotlar ham berilgan.

Shuningdek, biz **Muhammad Solihning "Shayboniynoma"** asarini kuzatganimizda Bobur bilan Shaybonixon o'rtasidagi janglarda Movarounnahr hududidagi juda ko'p qabila-urug'lar qatnashganligi sezdik. Masalan, "o'zbek, qipchoq, yag'mo, barlos, chug'ul (chigil), xo'tan, shabon, qalmoq, qiyat (qiyot), sayqiyut (soyqiyut), qo'ng'uroq, bo'rquq, manqut (mang'it), oq maqut, nayman, do'rman (durmon), ushun, qo'shchi, kasir, jaloyir, qarluq, sulduz, nukus, qochu, marka, ichi, o'yrat (o'yrot), olmachuq, turk, mo'g'ul, bujuk, jiba, xoqon qavmi, o'g'lot, totor, qozoq, arab, tojik, yuji (yuji) kabi asarda 50 ga yaqin etnik nomlar tilga olingan.

Bu kabi ma'lumotlarni "Asomia navadu firqayi o'zbek", "Ravzat us-safo", "Zafarnoma", "To'rt ulus tarixi", "Boburnoma", "Tarixi Abulxayirxon", "Abdullanoma", "Tarixi Muqimxoniy", "Tarixi Abulfayzxon", "Tarixi Salotini mang'itiya" kabi juda ko'p tarixiy-memuar asarlarda o'zbekning shajarasidagi urug'lar tilga olingan.

Ana shu 92 boqli urug'lar shajarasi "Kitmir", "Nasabnoma" kabi asarlarda maxsus berilgan. Hozir bu kitoblarning qo'lyozmalari O'zbekistonda mavjud. Ushbu shajaralardan professor X.Doniyorov SamDU talabalari bilan uyushtirgan (1963-1966 yillardagi) dialektologik ekspeditsiyasi davrida xalqimiz qo'lida saqlanib kelinayotgan G'allaorol, Jomboy, Boyovut kabi qo'lyozma nusxalarini qo'lga kiritgan edi. "Kitmir"ning mukammal holdagi nusxasi SamDU, Alisher Navoiy muzeyidan, "Nasabnoma"shajarasining mukammal nusxasi O'zFAsi qoshidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida "Nasabnomayi o'zbek" nomi bilan o'rin olgan. Biz ana shu shajaralardan ba'zi bir nusxalarini muxlislarimizga havola etamiz.

"Kitmir"dagi shajara: "Ming, yuz, qirq, o'n, o'ng jayt, jaloyir, saroy, qo'ng'iroq, nayman, qipchoq, qozoq, qalmoq, quvdoq, turloq, samarchiq, qatag'on, keleychi (qilaychi), kenagaz, buyrak, uyrak, o'roqli, qiyot, qangli, tuchat, uvuzi, o'ray, chublach, qo'shchi (qushchi), chuyut, chibit, kermin, arlat(orlot), chalchiq, mang'it, burqut, tuppalas, minit (mihit), uklan, qaray(keray), urub, iloch, chuburgon(cho'birg'on), qutlin, turkman, do'rman, topman, biyicha, rindan, mitan, uyshun, buyixauz, qirg'iz, uyruvchi, baday,tatar, yetti bosh, katash (kabash), pachqurt, (bashqurt, boshqirt), suldur (sulduz), tektuy, kirdor, suktiyan (suktiyan), qirqin, shirin, farhod, junochi, chilki, uyg'ur, mashoris, choliq, suvrin, uvgvan, kubir, xabrin, yalansoz (yalang'oz), ursun (urgun), olchin, yabu, o'g'lon, kirgiy (qirg'iy), barlos, kegiz (chiz), sandir, qvixrut, jomi, koli (holi), tangit (tang'it), burgun, jaloyir, chig'atoy, karapchi, o'zbek kabi (X.Doniyorov qo'lidagi G'allaorol nusxasi).

"Nasabnomayi o'zbek"dagi shajara: "ming, yuz, qirq, o'zbek, unkajot, jaloyir, saroy, qo'ng'iroq, olchin, arg'in, nayman, chaqmoq, azaq, qalmaq, torliq, tudak, burloq, samarchiq, qipchoq, kelachi, qinaqash, buyrak, urot, qiyot, xitoy, to'niqli, o'zjulovli, qo'ychi, o'taji(o'tarchi), bulatchi, juyut(jiyut), jot, chilchut, buvmovut, umovut, orlot, keroit, ung'ut, tang'ut, mang'ot, chilchuvut, masit, markit, burkut, qurlas, ukalan, qari, arab, ilachi, juburg'an, tishlik, keray, turkman, do'rman, tobin, tama, ramadan, , tunqli, muytan, uyshun, badiy, haviz(hafis), qirg'iz, mojoy, ko'chalik, sovransavron, bahrin, uyris, jubrat, biday, totor, tabash, michqir, sulduz(sulduz), tuboyi, tilov, kirdor, biktiya(biktil), qo'rqin (qorkin), shirin, o'g'lon, qo'rlot, bog'lon (bahlon), chinboy (chimboy), chehlikas (chehlikas), uyg'ur, agar

(*ag'ar*), *yobu*, *torg'il*, *turgak*, *ko'hat* (O'z.FAShI, qo'lyozma, inv.№ 3886, 183a-183b.).

O'zbek davlatining ilk shakllangan davrlaridagidek, hatto **XVII-IX asrlarda** ham urug'-qabilaviy xususiyatlar (urug'-aymoq surishtirish, o'z urug'-aymog'ini bilish) saqlanib kelingan. Shunga ko'ra ana shu davrlarda ilmiy kuzatuv ishlari olib borgan ko'pgina olimlarning, xususan, A. Boris(Borins), X. Vamberi, N. Xanikov, A.D. Gerebenkin, A.P.Xoroshin, V.V. Radlov, N.A. Aristov, D.N. Logofet, A.Yu. Yakubovskiy kabi horijiy-sharqshunoslarning asarlarida aniq ma'lumotlar berilgan. Bular haqida taniqli tilshunos olim X.D.Doniyorov "O'zbek xalqining shajara va shevalari risolasida anchagina muhim ma'lumotlarni keltirgan. Shundan biz ayrimlarini havola etamiz. Masalan, **N.Xanikovning "Buxoro xonligining tavsifi"** (1843 yilda yozilgan) asarida o'zining bevosita sayohati-kuzatuv asosida Buxoro hududida quyidagi o'zbek urug' va qabilalari borligini qayd etgan: "*mang'it (to'q mang'it, oq mag'it, qora mang'it), ming, yuz, qirq, o'ng, o'ng'ochit, jaloyir, saroy, qo'ng'irot (ushbu urug'ning tarmoqlari-qonjag'ali, oinli, qushtamg'ali, uvoqtamg'ali, qir) kabi urug'lar nufuzli sanalgan, yalchin (olchin), org'un, nayman, qipchoq, chechak, uyrot, qolmoq, qartuv (kartuv), burloq, samarchin, qatog'on, g'allachi (galachi), kenagas, bo'trak, o'zov (uzov), qabatlar, qangli, o'z, chunglachi, to'nchi (tunchi), o'tarchi, upilachi, julun, jid, juyut, chiljiyut, buymovut, o'ymovut, orolot (orlot), krayt (kerayit), ungut, qang'it, xolyovat, masad, murkut, arab, ilochi, julagan, qishliq, gadoy, turkman, durman, tobin, toma, rindan, mo'min, yuyshun, beroy, xofiz, qirg'iz, yuyruvchi, juyrat, bo'zachi, sixtiyon, botosh, yag'rin, shuldur, tumay, tilov, qirdor, qirqin, ug'lon(uglon), gurlat, iglan, jimaboy, chilkas, uyg'ur, og'ir, yobu, norg'il, yuzak, kahat(kohit), nochor, xo'jali, buzan, shirin, bahrin, tuma, nikuz, mo'g'ul, kalon, tatar kabi 100 ga yaqin etnink nomlar qayd etilgan.*

A.P. Xoroshxin Zarafshon okrugida yashovchi o'zbek urug'-qabilalarining nomlari haqida kuzatuv asosida muhim ma'lumotlarni bergan, ayniqsa, u o'zbek xalqining tarkibi 92 ta urug' va qabiladan iboratligini tasdiqlovchi maxsus yozma manbalar mavjudligini ilk bor qayd etgan rus olimlaridandir. U o'zbek qabilasining tarkibi (shajarasi) haqida ma'lumot beruvchi tarixiy-qadimiy yozma manbalarga alohida ahamiyat bergan, o'zi kuzatgan hududlardagi qabila-urug'lar nomi bilan qiyoslagan, yozma manbalardagi nomlarga mos kelishiga amin bo'lgan. Chunonchi, olim o'z kuzatuvlari asosida yozgan ishlarida (Sbornik

statey, kasayushixsya do Turkistanskogo kraya, SPb., 1876.) o'zbek xalqining urug'-qabilarining 92 boqli shajarasi berilgan "Kitmir" kitobidan ham foydalangan. U ushbu asar asosida 92 boqli o'zbek elatiga xos quyidagi shajarani bergan: "No'g'ay, tatar, qozoq, qirg'iz, qo'ng'irot, nayman, qangli, toma, qaraqalpoq, turkman, tuyoqli, turk, birqut (burqut), misit, abu, saroy, bahrin, qipchoq, ming, yuz, qirq, jaloyir, batosh, olchin, org'in, qizili, kirayit, ramadon, tobin, kenagas, mang'it, qiyot, sayod, jag'atay, durman, uyshun, mo'ytan, haybat, kugurli, barlas, qavchin, g'arab(arab), qalmoq, qoraxon, o'ng, yaman, chaqmoq, arzuq, qarluq, turdos, qatog'on, kilovchi, uyrot, kibot, qahat, juyachi, po'lotchi, tuvrbut, jiyot, buyot, arlot, o'tkut, jarjut, xit, saydli, turlos, ug'lon, (o'qlon), ilagi, qishliq, tejanli, bo'ri(buri), ovchi, o'tarchi, tilov, qirqin, juyrot, turgan, savdon, bovdaloq, arduri (harduri), laqay, kiyikchi, utegen (o'tagan), o'tgan, itchi (etchi), nitagan (netag'ay), jovsar, aqansoldi (arqon soldi), amon, abdal, asaka kabilar.

Shuningdek, **D.N. Logofetning "Buxoro xonligi rus vassalligida"** (1911 yilda yozilgan) nomli asarida yuzdan ortiq o'zbek elati tarkibidagi katta-kichik qabila-urug'larni aralash holda sanab o'tgan. Masalan, "Mang'it, qo'ng'irot, o'zbek, qizil qozoq, qatag'on, loqay, so'taqi, qorliq, o'tabuloq, marka qiq(qirq)yuz, do'rmon, sari qatag'on, kenagas(achamayli, obokli, chekut tarmoqlari), qipchoq, yobu (yabu), mo'g'ul (mo'ng'ul), turk, barut, toz, temez(temiz), burka (bo'rqa), sormontoy (sarmantay), sorix (sarix), sheshka (shashka), tugul (to'g'ul), mug'al, bolish, aliberdi, xo'jaxushg'or, moloy(malay), xutob, sari-mola (mo'lo), ayopi, tantay (tontoy), bonqishi, dalashi (dolosh), imav (imov), sanov (soqov), jobiqish, gal xalaka, abdal, bo'yi-qosmir, balqishi, qarasha, ormot, gandashi, qorabuloq, kaldaman, semiz, oqdijonli, qunduzi, jilondi (jilonli), yangitog'on, g'azalxli (g'ozoyaqli), kaltatoy, palkan, choli, beshtentak, mirishgar, basiz (bossiz-boshsiz), boykeldi, qoljoboq, folg'oni, qishg'ana (kichkina), xo'jabachcha, momoy, qushi, cherbatcha (sherbachcha), bolilabatcha, hozor momish, sori sangi, fozil, qaravul, mo'shoti, qonoboti(xon obodi), jovkeldi, zar burun, o'z temir, alla berdi, xo'ja ramazon, yer yebar, qotog'on qalasi, mardat, shurol, xon batcha, borol, to'lg'onish, to'g'oliq, eshka, shix, boyqashqa, soribosh, subak (subon), sulduzi, paqiral, zarmuxa, yangigavur, imamtemez, shalitemiz, boyot, mina kabilar. Ta'kidlash lozimki, ushbu sayyoh olimlarning shajaralaridagi har xil tartib va nomlarning farqlanishidan tashqari, ularda urug'larning kichik shahobchalari ham

aralashtirib yuborilgan. Shu tufayli ularning ro'yxatida urug'larning soni 100dan oshib ketganligi tabiiy.

Xullas, ushbu manbalarda qayd etilgan aksariyat urug' va qabilalarning etnogenez jihatida turlicha bo'lishidan qat'iy nazar o'zbek elatining tarkibida birlashib, o'zbek xalqining shakllanishiga asos bo'lishgan. Bu jarayon ancha qadim davrlardan boshlangan bo'lib, shuning uchun ular yozma manbalarda maxsus qayd etib kelingan. Xususan, asrimizning o'rtalaridan boshlab, bu shajara ancha kengaya borgan. Lekin asosiy katta urug'lar 9 yoki qabilalar) soni 92 bo'lib hisoblangan. Bular birlashib o'zbek xalqining etnik qatlamini vujudga keltirganlar. Nomlanishi masalasi esa miloddan avvalgi is(uz), us (uz), az (K. Shoniyozov)¹ ismlari bilan atalgan urug'lar (aslida ular bir urug' bo'lib, bir xil sharoitda va bir xil mintaqalarda yashashgan), hatto, VII-X asrlargacha tirkesh, qarluq qabilalar birlashmalari tarkibida Oltoy mintaqasida birga yashab, **uslar, o'zlar, azlar nomlari bilan atalib kelingan urug'-qabilalar bilan bog'lanadi.** Bu urug'-qabilalarning qadimdan mavjudligi oldingi sahifalarda dalillar orqali qayd etganmiz. Ular milodiy davr boshlaridan, asosan Turk Hoqonligi davrida, aniqrog'i VII-X asrlarda tirkash, qipchoqlar va qarluqlar bilan birga O'rta Osiyo mintaqasiga (hozirgi Xorazm, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo hududlariga) ham kelib joylashgan turkiy tilli urug'lardir. Keyinchalik ularning katta qismi Dashti qipchoqqa tomon siljib, o'g'uz-qipchoqlar birlashmasiga kirganlar va asta-sekin Dashti qipchoq hududlaridagi qabilalar orasida katta mavqeyga ega bo'lganlar va siyosiy maydonga kirib kelganlar. Natijada ular nomiga yuqori daraja (yuqori mavqeyga ega bo'lgan daraja) ma'nosini ifodalovchi **bek so'zi** qo'shilgan. (Beg/bek so'zi o'tmish mabalarda, chunonchi "Tafsir", "Qutadg'u bilig", "Dvonu lug'atit turk" va boshqa asarlarda hamda so'nggi ilmiy manbalarda, lug'atlarda quyidagicha izohlangan: *bek/beg-hukmron, sulton; beklik, sultonlik, ya'ni knyaz, knyajestvo, pravitel, doljnost knyazya; shu kabi er(dovyurak), baquvvat, kuchli, mahkam, mustahkam, pishiq, qattiq, ya'ni silniy, krepkiy, prochniy kabi ma'nolarini ham ifodalagan*². Xullas, ana shunday xususiyatlarga ega

¹ . Shaniyazov K. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. -T.: Fan,1974, s. 9-42-43; yana shu muallif- K vorosu ob uchastii tyurkskix plemyon sentralnoy Azii i yujnoy Sibiri v etnogeneze uzbekskogo naroda. Tezisi doklada XXIX sessii Riad.-T.: 1986, s. 70.

².. Devonu lug'otit turk. Indeks.-T.: Fan, 1967, 62-63-bb.; Drevnetyurkskiy slovar. -L.: Nauka, 1969, 92-b.; Malov S.Ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti.-M.-L.: Izd. AN SSSR, 1951, str. 369-370, Yeniseyskaya pismennost tyurkov.-M.L.: Izd. AN SSSR, 1952, str. 21, 39.; Svortyan E.B. Etimologicheskiy slovar.-M.: Nauka, 1978,108,119 va boshqalar.

bo'lgan qadimiy **O'z** qabilasi keyinchalik **o'zbek nomi bilan mashhur bo'lgan. Asta-sekin bu etnonim elatga va hukmronlikka (davlatga) nisbatan ham qo'llangan,** degan xulosaga keldik. Agar bu atamani **kishi nomi** bilan bog'lab qaralganda ham *milloddan avvalgi III-II asrlarda yashagan turkiy qabila va uning boshlig'i Ispek (manbalarda Uspek/Usbek, Uzbek/O'zbek shakllarda uchraydi) nomi bilan bog'lash mumkin*¹. O'zbekxon nomi bilan bog'lanishida esa yurtboshimiz I.A.Karimov aytgan fikrlarga qo'shilamiz. Dashti qipchoq xoni O'zbekxon (1312-1342) ismi esa ana shu qadimiy o'zbek qabilasi vakillari nomidan olingan. Bu nom bilan O'zbekxondan oldin ham bir qancha hukmronlar va arboblari o'tgan (masalan, Inal O'zxon Turk hoqonliklari davrida o'tgan qipchoq hukmronlaridan biri²).

Xullas, ushbu o'rinda ta'kidlashimiz lozimki, o'zbek xalqi va tilining shakllanishi (ajdodlarimiz hamda ularning etnogenezi va etnik) tarixi haqidagi fikrlarimiz hali yakuniga yetgan emas, aniqrog'i etnik tarix va millatga xos davrlar hali yoritilgan emas. Shu kabi bu masalada hozirgi yetuk olimlarimizdan B. Ahmedov, A. Asqarov, K. Shoniyo'zov, I. Jabborov, Ziyoyev A, H. Ziyoyev, M. Isoqov, N. Komilov, X. Doniyorov, G'. Abdurahmonov va boshqalarning juda muhim fikr mulohazalari va ma'lumotlari borki, ularni davom ettirish lozimdir.

Zero, o'zbek xalqining shakllanish jarayoni keyingi davrlarda ilmiy manbalarda arxeologik va qadimiy yozma yodgorliklar asosida antik davrgacha qadimiylashtirilgan edi (akademiklar S.P.Tolstov, K.Shoniyo'zovlar ishlari bo'yicha). Hozirgi davrga kelib esa, akademik A.Asqarov o'zbek xalqining shakllanish jarayonini yanada qadimiylashtirib talqin etmoqda, aniqrog'i bronza davri bilan belgilamoqda. Shunday ekan, biz havola etayotgan o'zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan urug' va qabilalarning ilk ajdodlari shajarasi va tarixiy nomlarini ilmiy asosda va ishonarli tarzda ham belgilashimiz shart. Chunki har bir urug' va qabila vaqt va zamon o'tishi bilan bog'liq holda tarixda o'z nomi bilan birlashmalariga ega bo'lishgan.Xuddi shunday vaqt va zamon o'tishi bilan katta birlashmalar tarkibidagi unchalik ko'zga chalinmagan urug'lar kattalashib, mavqeyi jihatidan ko'tarilib, siyosiy maydonga chiqqanlar va yirik qabila ittifoqlariga bosh bo'lishgan. Bunday xususiyatni har bir etnik(xalq)ning o'tmish tarixiy jarayonini kuzatgandagina sezamiz. O'zbek xalqining shakllanishi tarixiga ham shu yo'sinda yondashish lozim bo'ladi.

¹. Qarang: O'ljaz Sulaymonov. Az i Ya .-Alma-Ata, Jalim, 1990., str.499-564-bb.).

². Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk, 1-tom, 342-b.

Shu kabi o'zbek qabilasi ham siyosiy maydonga ko'tarilgach, o'z tarkibiga qanchadan-qancha urug' va qabilalarni o'z birlashmasiga qo'shib olgan. Bular o'zbek xalqining keyingi davrlardagi urug'lari shajarasida aks etgandir. Lekin ularning ilk shajarasi va uning shaxobchalari to'liq belgilanganicha yo'q. Chunki bizningcha, o'zbek shevalarida bu urug'larning 400 dan ortiq shahobchalari bor. Shundan professor X. Doniyorov 300 tasini joy nomlari va sheva materiallari asosida aniqlagan. Jumladan, u ko'pgina urug'larning etimologik ma'nolarini ham bergan. Shular haqida ham ma'lumotlar berish lozim. Ko'pgina tarixiy-badiiy yodgorliklarda, jumladan ilmiy kuzatuv ishlarda xuddi shunday ma'lumotlar bor. Ularda har bir qabilaning shakllangan davrlari, yashash va tarqalish o'rinlari ham qayd etiladi. Bu singari ma'lumotlarni jamlab tahlil etilsa, shundagina havola etilayotgan urug'lar shajarasining ilk tuzilgan (shakllangan)davri, etnogeneziga xos xususiyatlari va so'nggi bosqichi bo'yicha ham ma'lumotga ega bo'lish hamda etnologiyasi haqida ham ma'lum darajada xulosaga kelish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. *O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li.* -T. : O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.* -T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.* -T.: "O'zbekiston tarixi" jurnali, 1-son, 1999.
4. Karimov I.A. *O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz.* -T.: "Adolat" gazetasi, 1999.
5. *Inson baxt uchun tug'iladi (O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning hikmatli so'zlaridan).* -T.: Sharq, 1998,
6. Abdullayev O. *Haqiqat ko'zgusi.* -T.: Jahon adabiyoti, 1-son, 1999.
7. Abduzukur A. "Turkiy xalqlar tillari va tarixi". -T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 8 son, 19 fevral, 1993.
8. Abu Rayhon Beruniy. *Tanlangan asarlar.* 1-jild. -T.: Fan, 1968
9. Abushiy X.A. *Turk qavmlari tarixi.* -T.: "Cho'lpon", 1995.
10. Abdurahmonov G'. *O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida.* T.: TDSHI 1999.
11. Abdurahmonov G', A. Rustamov. *Qadimgi turkiy til.* -T.: O'qituvchi, 1982.
12. Azamat Ziyov. *O'zbek davlatchiligi tarixi.* T.: Sharq, 2001.
13. Alisher Navoiy. *Muhokamat-ul lug'atayn.* -T.: Fan, 1967.
14. Alimhammedov A. *Antik adabiyot tarixi.* -T.: O'qituvchi, 1969.
15. Arrian. *Poxod Aleksandra.* -M.-L.: Izd. AN SSSR, 1962.
16. Asqarov A. *O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari.* -T.: "O'zbekiston tarixi" jur., 4-son, 2002.
17. Asqarov A. *O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi.* -T.: "Universitet" 2007.
18. Ahmedov B. *Tarixdan saboqlar.* -T.: O'qituvchi, 1994.
19. Ahmedov B.A. *O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari.* -T.: O'qituvchi, 1991.
20. Baskakov N.A. *Tyurkskiye yazi.* -M.: Iz. vost. lit., 1960.
21. Baskakov N.A. *Altayskiy yazi.* -M.: Nauka, 1968.
22. Bichurin N.Ya. *Sobraniye svideniye o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevniye vremena 1-3 t.* -M.-L.: 1950-1953.
23. Boynazarov F. *Antik dunyo.* -T.: Mehnat, 1989.
24. Boynazarov F. *O'rta Osiyoning antik davri.* -T.: O'qituvchi, 1991.
25. Bulgakov P.T. *Geniy pereshaguvshiy veka.* -T.: Fan, 1983.
26. Bo'zqurt F. *Turklarning tili.* -Istanbul.: 1992.
27. Vamberi H. *Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi.* -T.: G'afur G'ulom, 1990.

28. Vaynberg B.I. *Moneti drevnego Xorezma*.T.: 1977.
29. Gafurov B.Tadjiki.-M.: Nauka, 1972.
30. Geradot. *Istoriya v devyati knigax VII*. - M.: 1972.
31. Geradot.*Istoriya v devyati knigax*.Kniga chetvyortaya. V 2-x tomax, tom 1.
32. -M.: 1985.
33. Gumilev L.N. *Tisyache letiye vokrug Kaspiya*.-Baku.: Az.gos. izd. 1991.
34. Dyakonov I.M. *Yaziki drevney Peredney Azii*.-M.: Nauka,1969.
- DitmarA.B. *Ot Skifii do Elefantini*.-M.: Izd.geogr. literaturi. 1961.
35. Droyzen I.G. *Istoriya Ellinizma*. -M.: Tipo-litografiya Rixter V.F. 1891.
36. *Drevnetyurkskiy slovar*.-L.: Nauka, 1968.
37. Jabborov I.O'zbek xalqi etnografiyasi.-T.: O'qituvchi, 1994.
38. Yevtixova.Arxeologicheskiye pamyatniki yeniseyskix kiogizov. Abakan: 1948.
39. Ziyoyev H. *Xolis va sidqidildan*. -T.: "Jahon adabiyoti"jurn. 1- son, 1999.
40. *Istoriya Uzbekistana v istochnikax* (sostavitel Lunin V.V.). -T.:UzSE, 1984.
41. Isoqov M. *Qadimiy xorazmiy yozuvi*.-T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1992-1994 .
42. Isoqov M. *Qadimiy xorazmiy yozuvi*.-T.: "O'zbekiston adabiyoti san'ati" gazetasi, 1992-1994 .
43. Isoqov M., Otaxo'jayev A. *Sug'dlarning buddaviy falsafiy-axloqiy yozma meroslari* (Qadimgi yozma yodgorliklar.-T.: Yozuvchi, 2000.
44. Isabek B. "Shanyuy unvoni haqida"(Turk shajarasi).-T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1993. 16 aprel.
45. Karimov I. *Zardushtiylik haqida haqiqat*.-T.: " Muloqot" jurnali, 1999
46. Karimov Sh.,Shamsitdinov R.*Vatan tarixi*.1 kitob.-T.: O'qituvchi, 1997.
47. Kvint Kursiy Ruf.*Istoriya Aleksandra Makedonskogo, Soxranivshiyesya knigi*.-M.: MGU,1960.
48. Kvint Kursiy Ruf.*Istoriya Aleksandra Makedonskogo,Soxranivshiyesya knigi*.-M.: 1963.
49. Klyashtorniy S.G. *Drevnetyurkskiye runicheskiye pamyatniki kak istochnik po istorii Sredney Azii*.-M.:1964.
50. Komilov N. *Milliy o'zlikni anglapsh*.-T. "Jahon adabiyoti", jurn. 1-son. 1999.
51. Kryukov M.V., Safronov M,V., Cheboksarov N.N. *Drevnie kitaysi. Problemi etnogeneza*. -M.: 1978.
52. Malov S.Ye. *Pamyatniki drenetyurkskiy pismennosti*. –M.-L.: Izd. AN SSSR, 1951.

53. Malov S.Ye. *Yeniseyskaya pismennosti tyurkov*. -M.-L.: Izd.AN SSSR, 1952.
54. Mahmud Koshg'ariy. *Devonu lug'otit turk*". -T.: Fan, 1963.
55. *Materiali po istorii derevnix kochevix narodov gruppi dunxu*. -M.: 1984
56. Mahmudov Q. *Turkiy qavmlar taqdiri*. -T.: "Fan va turmish"jur.,1990.
57. Nasimxon Rahmon. *Turk hoqonligi*. -T.: Abulla Qodiriy, 1993.
58. Nizomiddinov I.G'. *XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo - Hindiston munosabatlari*. -T.: Fan, 1966.
59. Normatov K. *Haqqoniylik tamoyili*. -T. Jahon adabiyoti, 1-son, 1999.
60. Oppenxeym A. *Drevnaya Mesapotomiya*, -M.1990.
61. Sagdullayev A.,Kostetskiy V. *Tarix*. -T.: 2006.
62. Sanaqulov U. *O'zbek xalqi hamda tilining shakllanishi va nomlanishi*. - Samarqand.: SamDU, 1991.
63. Sanaqulov U. *O'tmish ajdodlarimiz haqida lavhalar*. -Samarqand.: SamDAQI, 2003.
64. Strabon. *Geografiya v 17 knigax*. -M.: 1964.
65. Sulaymonova F. *Sharq va G'arb*. -T.: O'zbekiston, 1997.
66. Sulaymanov O. *Az i Ya*. -Alma-Ata, "Jalim", 1990.
67. Tolstov S.P. *Drevne dalti Oksa i Yaksarta*. -T.: 1948.
68. Tolstov S.P. *Dreviy Xorazm*. -M.: 1948.
69. Tolstov S.P. *Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab*. -T.: 1964.
70. Tohir Qahhor. *Hur Turkiston uchun*. -T.: Cho'lpon, 1994.
71. Freyman A.A. *Xorezmskiy yazik*. 1.-M.-L.: 1951.
72. *O'zbekiston tarixi va madaniyati*. -T.: O'qituvchi, 1992.
73. Hasan Ato Abushiy. *Turk qavmlari tarixi*. -T.: Cho'lpon, 1995
74. Hidoyatov G.A. Yustin. *"Epitoma Pompey Troga"*. Vestnik drevney istorii. -M.:1954.
75. Yusupov. E.Yu., Bulgakov P.T. *Geniy pereshagnuvshiy veka*. -T.: Fan, 1983.
76. Yakubovskiy A.Yu. *K Voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda*. -T.:1941.

MUNDARIJA

KIRISH SO'Z :

AJODLARIMIZ HAMDA ULARNING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI HAQIDA.....	3
ENG QADIMGI YOZMA MANBALARDA AJDODLARIMIZ HAQIDAGI ILK MA'LUMOTLAR	14
MAKAZIY OSIYODA YASHAGAN ENG QADIMGI URUG' VA QABILALAR	20
SKIPLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI).....	24
QADIMIY XORAZMIYLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI).....	31
SHUMERLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI).....	46
SUG'DLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)	48
SAKLAR VA ULARNING BIRLASHMALARI (DAVLATLARI)	53
MASSAGETLAR VA ULARNING BIRLASHMALARI (DAVLATLARI).....	63
SARMATLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI).....	74
XUNNLAR VA ULARNING BIRLASHMALARI (DAVLATLARI)	81
EFTALITLAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)	87
TAVG'ACHLAR VA XUNG-NULAR HAMDA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI)	91
QANXA (QANG'AR-QANGLI)LAR VA ULARNING BIRLASHMASI (DAVLATI).....	96
O'ZBEK XALQI VA TILINING SHAKLLANISHI HAMDA NOMLANISH MASALASI.....	98
O'ZBEK ELATI (XALQI)NING TARIXIY MANBALARDAGI GENEOLOGIYASI (SHAJARASI)	106

Usmon SANAQULOV

**O`ZBEK XALQI VA TILINING ETNOGENEZI
HAMDA ETNIK QATLAMLARI**

(O'zbekiston tarixi bo'yicha maqolalar to'plami)

Muharrir	-	A. Eshqobilov
Tex. muharrir	-	Q. Berdiyev
Sahifalovchi	-	I. Bilyalov

_____ yilda bosishga ruxsat etildi.

Hajmi 7,5 b/t. Adadi 100 nusxa.

Buyurtma № _____. "Times" garniturasida.

SamDChTI nashr-matbaa markazida chop etildi
Manzil: Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93